



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 4-son

VOLUME 4 / ISSUE 4 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
1140-sonli guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent
davlat yuridik universitetiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal
materiallaridan foydalanish, tarqatish
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan
amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 23.08.2024-yilda bosmaxonaga
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 23,48 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 133.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori
(Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori
(Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
(Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
23.08.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 23,48. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 133.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing
house on 23.08.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 23,48. Unit: 100.

Order: 133.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Associate Professor of Tashkent State University
of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 11 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Markaziy Osiyo davlatlarida kodekslashtirish jarayoni: ayrim nazariy-huquqiy masalalar
- 20 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Tabiiy huquq nazariyasi va uning mohiyati

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 33 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
Ma'muriy islohotlar sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish: ilmiy-nazariy tahlil
- 42 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Ma'muriy islohotlar davrida oliy ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishning ma'muriy-huquqiy jihatlari
- 56 **MUSTANOV ILXOM ABIDVALIJONOVICH**
Bank tizimini tashkil etish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 71 **XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
"Lex informatica" – raqamli huquqlarni amalga oshirishning kollizion prinsipi sifatida
- 82 **XOSILOV ERKIN DILMUROTOVICH**
Insofsizlik fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 94 **ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Sud hujjatlarini qayta ko'rish instituti: taftish instansiyasi faoliyati tahlili
- 105 **HABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o'zaro tahlili
- 114 **XUDOYNABAYEV DADAXON AVAZ O'G'LI**
Iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatini raqamlashtirish masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

- 124 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH**
Yer qonunchiligi ijrosini nazorat qilish jarayonida prokuraturaning boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 140 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar sabablari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI151 **BAZAROVA DILDORA BAXADIROVNA**

Jinoiy protsessda shaxs huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari

170 **IMOMNAZAROV ALISHER HASANOVICH**

Ko'zdan kechirish jarayoni va natijalarni qayd etish bilan bog'liq muammolar tahlili

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

180 **XUN VEYSIN**O'zbekistonda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirishning huquqiy jihatlari:
xitoylik investorlar uchun imkoniyatlar va xatarlar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

191 **MAJIDOV SHAHZOD ABDIXALIL O'G'LI**Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi qonun
loyihagini takomillashtirish yuzasidan ayrim mulohazalar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Процесс кодификации законодательства в государствах Центральной Азии:
некоторые теоретико-правовые вопросы

20 АМИРОВ САНЖАР ИЛЁС УГЛИ

Теория естественного права и её сущность

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

33 НЕМАТОВ ЖУРАБЕК НЕМАТИЛЛОВИЧ

Административно-правовое регулирование деятельности организаций высшего образования
в условиях административных реформ: научно-теоретический анализ

42 ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ

Административно-правовые аспекты развития сферы высшего образования до 2030 года
в период административных реформ

56 МУСТАНОВ ИЛХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Опыт отдельных зарубежных стран по организации банковской системы: сравнительно-правовой
анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

71 ХАЗРАТКУЛОВ ОДИЛБЕК ТУРСУНОВИЧ

Lex informatica как коллизионный принцип реализации цифровых прав

82 ХОСИЛОВ ЭРКИН ДИЛМУРОТОВИЧ

Недобросовестность как гражданско-правовая категория

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

94 ЭСАНОВА ЗАМИРА НОРМУРОТОВНА

Институт пересмотра судебных актов: анализ деятельности ревизионной инстанции

105 ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБЕКОВИЧ

Анализ процессуальной справедливости и процессуальной законности в гражданском
судопроизводстве

114 ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ

Вопросы цифровизации деятельности лиц, содействующих осуществлению правосудия
в экономическом процессе

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

124 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Взаимодействие органов прокуратуры с другими государственными органами в процессе
надзора за исполнением земельного законодательства

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

140 НИЯЗОВА САЛОМАТ САПАРОВНА

Причины совершения преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

151 **БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Конституционные гарантии прав личности в уголовном процессе

170 **ИМОМНАЗАРОВ АЛИШЕР ХАСАНОВИЧ**

Анализ проблем, связанных с фиксацией процесса и результатов осмотра

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

180 **ХУН ВЕЙСИН**

Правовые аспекты реализации инициативы «Один пояс, один путь» в Узбекистане: возможности и риски для китайских инвесторов

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

191 **МАЖИДОВ ШАХЗОД АБДИХАЛИЛ УГЛИ**

Некоторые суждения по совершенствованию законопроекта о защите лиц, сообщивших о коррупционных правонарушениях

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 11 **AXMEDSHAEVA MAVLUDA AXATOVNA**
Codification process in Central Asian countries: some theoretical and legal issues
- 20 **AMIROV SANJAR ILYOS UGLI**
Theory of natural law and its essence

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

- 33 **NEMATOV JURABEK NEMATILLOEVICH**
Administrative and legal regulation of the activity of higher education organizations in the conditions of administrative reforms: scientific and theoretical analysis
- 42 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Administrative and legal aspects of the development of the field of higher education until 2030 during the period of administrative reforms
- 56 **MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**
The experience of some foreign countries on the organization of the banking system: a comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 71 **KHAZRATKULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
“Lex informatica” as a principle of conflict for the implementation of digital rights
- 81 **KHOSILOV ERKIN DILMUROTOVICH**
Bad faith as a civil law category

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION

- 94 **ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Institute for review of judicial documents: an analysis of the activities of the inspection instance
- 105 **KHABIBULLAEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Mutual analysis of procedural fairness and procedural legality in the conduct of civil court cases
- 114 **KHUDOYNAZAROV DADAKHON AVAZ UGLI**
Issues of digitalization of the activities of persons assisting in the implementation of justice in the economic process

12.00.07 – JUDICIARY. PROSECUTOR'S SUPERVISION. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES. ADVOCACY

- 124 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**
Interaction of prosecutor's offices with other state bodies in the process of supervising the implementation of land legislation

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 140 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Reasons for committing crimes against the sexual integrity of minors

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

151 **BAZAROVA DILDORA BAKHADIROVNA**

Constitutional guarantees of individual rights in criminal proceedings

170 **IMOMNAZAROV ALISHER KHASANOVICH**

Analyzing issues related to the review process and recording the results

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

180 **HONG WEIXING**

Legal aspects of the implementation of the "one belt, one road" initiative in Uzbekistan: opportunities and risks for chinese investors

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

191 **MAJIDOV SHAKHZOD ABDIXALIL UGLI**

Some considerations for improving the draft law on the protection of persons reporting corruption offenses

Kelib tushgan / Получено / Received: 08.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 02.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./HEGI4671

UDC: 340.1(045)(575.1)

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA KODEKSLASHTIRISH JARAYONI: AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi

kafedrası professori,

yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0003-3719-6599

e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi davrda shiddat bilan rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi kuzatilmoqda, natijada huquqni qo'llash jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikni tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keladi. Qonunchilikni tizimlashtirish ma'lum darajada obyektiv jarayon hisoblanadi. Uning inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya kabi turlari mavjud bo'lib, ularning ichida kodekslashtirish alohida o'rin tutadi. Maqolada bir qator olimlarning qonunchilikni tizimlashtirish masalasiga oid fikrlari keltirilgan va tahlil etilgan. Ayni paytda, muallifning fikricha, bugungi kunda milliy yuridik adabiyotlarda qonunchilikni tizimlashtirish va uning turlari, jumladan, kodekslashtirish hamda uning muhim shakli bo'lgan kodekslar haqidagi nazariy ishlanmalar kam realizatsiya qilinmoqda. Muallif maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari huquq tizimlaridagi kodekslashtirish jarayonini hamda uning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniq misollar yordamida tahlil etgan. Ushbu mamlakatlar huquq tizimi romano-german huquq oilasiga mansub bo'lib, mazkur jarayonda ko'plab umumiy jihatlari namoyon bo'ladi. Bu umumiylik ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida, jumladan, sohalaridagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan kodekslar tizimining o'xshashligi va yaqinligi kabilarda ko'rinadi. Maqola yakunida tahlil etilgan mavzu yuzasidan tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: huquq, huquqiy tizim, romano-german huquq oilasi, anglo-sakson huquq oilasi, huquqiy tizimlar ta'siri, normativ-huquqiy hujjat, qonunchilik, qonunchilikni tizimlashtirish, inkorporatsiya, konsolidatsiya, kodekslashtirish, kodeks.

ПРОЦЕСС КОДИФИКАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,

доктор юридических наук, профессор

кафедры «Теория государства и права»,

Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. В сегодняшнюю эпоху бурного развития общественных отношений происходит принятие многочисленных нормативно-правовых актов, регулирующих эти отношения, и, как следствие, в процессе правоприменения возникают определённые трудности, что в свою очередь приводит к усилению необходимости систематизации законодательства. Систематизация законодательства в определённой степени является объективным процессом. Существуют такие её виды, как инкорпорация, консолидация и кодификация, и среди них кодификация занимает особое место. В статье представлены и проанализированы мнения ряда учёных по вопросу систематизации законодательства. Между тем, по мнению автора, сегодня теоретические разработки по систематизации законодательства и его видам, включая кодификацию, а также кодексов, являющихся его важной формой, в национальной юридической литературе реализованы мало. В статье автор на конкретных примерах проанализировал процесс кодификации в правовых системах стран Центральной Азии, а также её общие и специфические аспекты. Правовая система этих стран принадлежит к романо-германской правовой семье, и в этом процессе проявляется очень много общих черт. Эта общность находит выражение в процессе регулирования общественных отношений, в том числе в таких аспектах, как сходство и близость системы кодексов, направленных на регулирование правоотношений в отраслях. В конце статьи сформулированы соответствующие выводы по анализируемой теме.

Ключевые слова: право, правовая система, романо-германская правовая семья, англосаксонская правовая семья, влияние правовых систем, нормативно-правовой акт, законодательство, систематизация законодательства, инкорпорация, консолидация, кодификация, кодекс.

CODIFICATION PROCESS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: SOME THEORETICAL AND LEGAL ISSUES

Axmedshaeva Mavlyuda Axatovna,

Professor of the Department of Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. In today's era, the adoption of many legal documents regulating rapidly developing social relations is observed, as a result of which certain difficulties arise in the process of applying the law. This, in turn, leads to an increase in the need to systematize legislation. Legislation systematization is to some extent an objective process. There are such types as incorporation, consolidation, and codification, among which codification has a special place. The article presents and analyzes the opinions of a number of scientists on the issue of legal systematization. At the same time, in the author's opinion, theoretical developments about the systematization of legislation and its types, including codification and codes, which are its important form, are not being realized in the national legal literature today. In the article, the author analyzed the process of codification in the legal systems of Central Asian countries and its general and specific aspects with the help of specific examples. The legal system of these countries belongs to the Romano-Germanic family of law, and this process shows many common aspects. This commonality is seen in the process of regulating social relations, including the similarity and closeness of the system of codes aimed at regulating legal relations in the fields. At the end of the article, appropriate conclusions are drawn on the analyzed topic.

Keywords: law, legal system, Roman-German legal family, Anglo-Saxon legal family, influence of legal systems, normative-legal document, legislation, systematization of legislation, incorporation, consolidation, codification, code.

Kirish

Jahon huquq tizimi rivoji tendensiyalari ko'p omillarga bog'liq holda kechadigan tabiiy jarayondir. Bugungi kunda ushbu omillar ichida jahon huquqiy tizimlarining biri-biriga ta'sir etishi, o'zaro harakatda bo'lishi kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eng yirik hisoblangan roman-german va anglo-sakson huquq oilalari o'z mohiyatiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qilishsa-da, keyingi paytlarda ularning ayrim xususiyatlari, belgilari bir-biriga ta'sir etayotganini e'tirof etish mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar huquq tizimlari o'z mohiyati va parametrlariga ko'ra asosan romano-german huquq oilasiga mansub bo'lsa-da, ayni paytda ular Yevropa Ittifoqi sudi qarorlariga rioya etadi. Ko'p olimlar bu qarorlarning ma'lum qismi o'z mohiyatiga ko'ra yoki boshqacha aytadigan bo'lsak, "de facto" pretsedent xarakteriga ega ekanini ta'kidlashadi [1].

Shu nuqtayi nazardan olganda romano-german huquq oilasiga mansub bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari huquq tizimi jahon, Yevropa va mintaq huquqiy rivojlanishi ta'siridan xoli emas, albatta. Bu davlatlar huquqiy tizimlarida kechayotgan jarayonlarni tahlil etish, jarayondagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash ma'lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Huquq nazariyasining taniqli vakili S.S.Alekseyev huquqiy izlanishlarning milliy qobiq ichida chegaralanib qolishi zararli ekani haqida fikr yuritadi, shuningdek, olimning: "Huquqiy bilimlarning ma'lum bir davlat doirasida milliy cheklanganligi, uning sof milliy materiallar bilan chegaralanib qolishi, garchi u har bir huquqshunos uchun qanchalik muhim bo'lmasin, oxir-oqibatda chinakam fan bo'lgan yurisprudensiya uchun halokatlilik hisoblanadi", – degan fikriga qo'shilmay bo'lmaydi [2].

Romano-german huquq oilasining muhim belgilaridan biri sifatida masalaning yana bir tomoni unda anglo-sakson huquq oilasiga

nisbatan kodekslashtirish jarayonining faolligidir. Shu bois Markaziy Osiyo davlatlaridagi qonunchilikni tizimlashtirishning muhim bir shakli sifatida kodekslashtirish jarayoni, uning qanday yangi tendensiyalar ostida kechayotgani, qanday umumiy va o'ziga xos jihatlarga egaligi masalasi muayyan ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Material va metodlar

Maqolada tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli va tarixiy usullar kabi atrofdagi huquqiy borliqni tushunishning umumiy ilmiy usullari, shuningdek, qiyosiy-huquqiy, rasmiy-huquqiy hamda xususiy-huquqiy usullar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Hozirgi vaqtda ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivojlanishi ularni normativ tartibga solish jarayonini ham murakkablashtirmoqda. Boz ustiga, yangi murakkab ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar majmui ham (massivi) muntazam ravishda ko'payib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonun hujjatlarini tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi tabiiydir.

Qonunchilikni tizimlashtirishning ahamiyati shundaki, u qonunchilik hujjatlarini bir tizimga solib, undan foydalanishni osonlashtirish barobarida, undagi kamchiliklar, ziddiyatlarni, bo'shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Qonunchilikni tizimlashtirish borasida yuridik adabiyotlarda ko'plab fikrlar bildirilgan, darsliklarda esa tegishli ta'rif va tavsiflar berilgan. Biroq shunga qaramasdan, ilmiy adabiyotlarda "qonunchilikni tizimlashtirish" borasida yakdillikning yetarlicha emasligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, S.A. Komarov qonunchilikni izchil bir tizimga keltirishni unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning hayotiy zarurati, deb tushunadi [3]. D.V.Chuxvichevning fikricha esa qonun hujjatlarini tizimlashtirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar tuzilmasini ma'lum bir tartibga so-

lishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida belgilanadi [4].

Fikrimizcha, qayd etilgan mualliflarning qonun hujjatlarini tizimlashtirish borasidagi qarashlari biroz tor. R.A. Romashovning fikriga ko'ra, qonunchilikni tizimlashtirish normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo'llashni osonlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar, noaniqliklar, bo'shliqlarni bartaraf etish, shu tariqa qonunchilik tizimini yaxlit takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha vakolatli subyektlarning maqsadli faoliyatidir. Shunday qilib, ushbu muallif qonunchilikni tizimlashtirish vazifalarini ham normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solishda, ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda ko'radi [5]. Yuqoridagi mualliflar fikrlaridagi umumiy jihat – qonunchilikni tizimlashtirish uni takomillashtirishga olib keladi, degan fikrdir.

L.A. Morozovaning fikricha, qonun hujjatlarini tizimlashtirish, uni yagona tizimga keltirish, tartibga solish, birinchidan, kerakli normativ-huquqiy hujjatni tezda topish, unga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi; ikkinchidan, normativ materialdagi bo'shliqlar, ziddiyatlar va boshqa nomuvofiqliklarni aniqlash; uchinchidan, amaldagi qonunchilik tizimini takomillashtirishda o'z ifodasini topadi [6].

A.S. Pigolkin va A.N. Golovistikova haqli ravishda ta'kidlaganidek, qonunchilikni tizimlashtirish amaldagi huquq tizimini rivojlantirish va uni tartibga solib borishning doimiy shaklidir [7]. V.V. Gruzdevning ta'kidlashicha, qonun hujjatlarini tizimlashtirish – mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ishlash, qayta guruhlash va to'plamlar yoki yig'ma aktlar shaklida yaxlit tizimda taqdim etish orqali ularni maqsadli ravishda tartibga solish va takomillashtirishdir [8].

Shunday qilib, yuqoridagi ta'riflardan "qonun hujjatlarini tizimlashtirish" uni yagona tizimga keltirish, tartibga solish va qonun

hujjatlarini inventarizatsiya qilishga olib keladi, shu bilan birga, undagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlaydi, shu orqali qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Qonun hujjatlarini tizimlashtirishning muhim shakllaridan biri ularni kodekslashtirishdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yuridik adabiyotlarda qonunchilikni tizimlashtirishning eng yuqori shakli sifatida kodekslashtirishning o'zi haqida ham, uning xususiyatlari, maqsadlari va boshqalar haqida ham umumiy, yakdil fikr mavjud, deyish qiyin [9].

Ayni paytda, ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, kodekslashtirish qonun hujjatlarini tizimlashtirishning bir turi sifatida qator xususiyatlarga ega:

- kodekslashtirish akti jamiyat hayotining muayyan sohasida amal qiluvchi hujjatlar orasida eng muhimi bo'lib, u tegishli huquq sohasi yoki institutining barcha normalari mohiyati va mazmunini belgilovchi umumiy tamoyillarni o'z ichiga oladi;

- bunday akt munosabatlarning muhim va yetarlicha keng sohasini (mulk, mehnat, nikoh va oilaviy munosabatlar, jinoyatchilikka qarshi kurashish va boshqalar) tartibga soladi;

- kodekslashtirish hujjati yagona, o'zaro uzviy bog'liq hujjat bo'lib, u hayotda ham, ijtimoiy amaliyotda ham sinovdan o'tgan mavjud normalarni, shuningdek, ijtimoiy hayot dinamikasi va jamiyatning dolzarb ehtiyojlari bilan belgilanadigan yangi qoidalardan iborat;

- kodekslashtirish uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, yanada barqaror normalarni yaratishni ta'minlaydi;

- kodekslashtirish normativ hujjatlarining tizimlilikini, ularning huquqiy birligi va izchilligini mustahkamlaydi. Kodekslashtirish hujjati odatda qonunchilikning ma'lum bir tarmog'ini yoki alohida institutini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq normativ hujjatlar tizimini o'zida ifodalaydi;

- kodekslashtirish hujjati har doim katta hajmga va murakkab tuzilishga ega (qismlar,

bo'limlar, boblar va boshqa bo'limlar) bo'ladi. Bu me'yoriy talablar tizimini yanada aniq qurishni, shuningdek, foydalanish qulayligini ta'minlaydigan o'ziga xos yiriklashtirilgan qonun hujjatlari jamlanmasidir [10].

Shuni ta'kidlash kerakki, kodekslashtirish qonun hujjatlarini tizimlashtirish shakli sifatida nafaqat qonun hujjatlari mazmuniga, balki uning shakliga ham ta'sir qiladi. Shu bilan birga, T.Y. Xabriyevaning fikricha, qonun hujjatlarini kodekslashtirish huquqiy tartibga solish mexanizmining normal ishlashini ta'minlash uchun zarur, lekin u maqsadga aylanishi kerak emas, balki huquqiy hujjatlarining yaxlit, muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish vositasi bo'lishi kerak [11].

Kodeks qonunchilikni tizimlashtirishning ancha keng tarqalgan shakli bo'lib, qonun hujjatlarining kodekslashtirilgan va yirik jamlanma hujjati hisoblanadi. Binobarin, 1804-yilda Fransiyada Napoleon Bonapart rahbarligida Fransiya Fuqarolik kodeksi qabul qilingan vaqtdan beri bir necha asrlar o'tgan bo'lishiga qaramay, kodeks o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu esa kodekslashtirish qonunchilikni tizimlashtirishning samarali shakli ekanini isbotlaydi [12].

Taniqli olim Y.A. Tixomirovning fikricha, kodeksni boshqa huquqiy hujjatlardan ajratib turadigan quyidagi xususiyatlari mavjud [13]:

a) kodeks – normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida yuqori o'rinni egallagan qonun;

b) kodeks – yagona tamoyillar asosida ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar jamlanmasi;

d) kodeks ijtimoiy munosabatlarning muhim va ancha keng sohasini tartibga soladi;

e) kodeks bir xil ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mazmuni va usullariga sezilarli yangilik kiritadi;

f) kodeks tartibga solishning to'liqligini ta'minlaydi va tartibga soluvchi normalarning ichki birligi, yaxlitligi va izchilligi bilan tavsiflangan yirik birlashtirilgan hujjatdir;

g) kodeks qonunchilikni tartibga solish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taniqli fransuz olimi Jon Luis Berjel ta'kidlaganidek, "Keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, kodeks – muayyan masalaga oid qonunlar, hujjatlar yoki huquqiy qoidalar to'plamidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu bir to'plamga jamlangan, bir nechta huquqiy masalalardan biri bo'yicha ko'proq yoki kamroq qoidalar tizimini o'z ichiga olgan qonunlar yoki qoidalar to'plamidir. Bu qonunchilikka tatbiq etiladigan "uslub ruhi" mahsulidir" [14].

Kodekslashtirish va kodekslar haqida gap ketganda kodekslarning turlari masalasi ham muayyan ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otishi tabiiy. Agarda Fuqarolik, Jinoyat kodekslari an'anaviy ravishda romano-german huquq oilasi huquqiy tizimlarida, shu jumladan, MDHda tarmoq (soha) kodekslari sifatida keng tarqalgan bo'lsa, Saylov, Shaharsozlik va Budjet kodekslari esa boshqa yo'nalishga ega, ya'ni bular tematik tusga ega, deyish mumkin.

Yuqoridagi fikrlar mazmunidan ko'rinib turibdiki, qonun hujjatlarini tizimlashtirish u yoki bu shaklda amaldagi qonunchilikni tartibga solish, takomillashtirish, bo'shliqlar, ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish omili, vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ayni paytda Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonda milliy huquq tizimi ijtimoiy munosabatlarining murakkablashuvi va raqamlashtirish tufayli jadal rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga hamda ularni tizimlashtirish, jumladan, kodekslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu o'rinda Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishida farqli jihatlardan ko'ra ularni birlashtirishga xizmat qiluvchi umumiy jihatlar ko'proq deyilsa, mublag'a bo'lmaydi. Bunga ushbu davlatlarning tarixiy rivojlaniishi, dini, madaniyati, urf-odatlar, mentaliteti

juda yaqinligi hamda ular joylashgan hudud asos bo'ladi. Shu bilan birga, garchi bu davlatlar deyarli bir tarixiy davrda mustaqillikka erishgan va o'z davlatchiligini rivojlantirishga kirishgan bo'lsa-da, bugungi kunda ularning rivoji, xususan, huquqiy rivojlanishida muayyan o'ziga xosliklar mavjud bo'lishi tabiiydir [15].

Markaziy Osiyo davlatlari huquqiy tizimidagi kodekslashtirish jarayoni haqida fikr yuritganda, aytish kerakki, huquqiy tizimi romano-german huquq oilasiga mansub davlatlarda ushbu jarayon ko'plab umumiy jihatlarga egaligini ko'rish mumkin. Bu umumiylik, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jumladan, sohalaridagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan kodekslar tizimining o'xshashligi va yaqinligi kabilarda ham ko'rinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining deyarli barchasida an'anaviy tisdagi kodekslar mavjudligini ta'kidlash kerak. Bunday kodekslar sirasiga dastlab, hamma davlatlar huquq tizimida ham amalda bo'lgan, bir nomdagi va obyektlari o'xshash kodekslarni kiritamiz. Bunday kodekslar sirasiga avvalo Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya, Ma'muriy javobgarlik, Ma'muriy protsessual, Mehnat, Oila, Uy-joy, Bojxona, Soliq, Yer, Havo, Budget, Saylov [16] kodekslarini kiritishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan kodekslar nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki romano-german huquq oilasiga mansub barcha davlatlarda, jumladan, MDH mamlakatlarida ham amal qiladi. Qayd etilgan kodekslarning ma'lum qismi anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda ham u yoki bu tarkibda mavjud.

Qayd etilgan kodekslarni tartibga soladigan munosabatlari mazmuniga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin: bir huquq tarmog'i (sohasi) doirasida amal qiladigan (yuqorida sanab o'tilgan 16 nomdagi kodekslar) va muayyan munosabatlar turini tartibga soluvchi

(Shaharsozlik, Budget, Saylov kodekslari kabi) kodekslar.

Ayni chog'da kuzatishimizcha, Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qirg'iziston huquqiy tizimida kodekslashtirish jarayonlari muayyan o'ziga xoslikka ega. Binobarin, ushbu davlat huquqiy tizimida "Bolalar haqida", "Nojo'ya harakatlar haqida", "Huquqbuzarliklar haqida"gi kodeks, "Nosoliq (yoki soliqsiz) daromadlar" haqidagi kodekslar borligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu kodekslarning qabul qilinishiga obyektiv sabablar mavjud, albatta.

Qirg'iz Respublikasining nojo'ya harakatlar va huquqbuzarliklar haqidagi kodekslari va ularning qabul qilinishi qiziqish uyg'otadi. Binobarin, ushbu kodekslarning nomlanishi, ular tartibga soladigan munosabatlar va ular o'rtasidagi nisbat masalasi o'ziga xosligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Nojo'ya harakatlar to'g'risidagi kodeksni oladigan bo'lsak, dastlab yodimizga davlat va huquq nazariyasidan, qolaversa, jinoyat huquqi nazariyasidan olgan bilimlarimiz keladi. Zero, huquqbuzarliklar ikki guruhga, ya'ni jinoyat va nojo'ya harakatlarga bo'linadi. Shunga asoslangan holda, ushbu kodeks barcha nojo'ya harakatlarni, ya'ni Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadigan jinoiy-huquqiy munosabatlardan boshqa huquqbuzarliklarni, jumladan, ma'muriy, fuqaroviy, intizomiy va boshqa nojo'ya harakatlarni tartibga soladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu holda "Huquqbuzarliklar haqidagi kodeksning predmeti qanday munosabatlarni tartibga soladi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Kodekslarning nomlanishi ham shunday savolni keltirib chiqaradi. Shu boisdan bo'lsa kerak, Qirg'iz Respublikasining Nojo'ya harakatlar to'g'risidagi kodeksi QRning 2021-yil 28-oktabrdagi 126-sonli "Qirg'iz Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksini kuchga kiritish va Qirg'iziston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan o'z kuchini yo'qotgan.

Shu o'rinda Huquqbuzarlik haqidagi kodeksning 14-moddasiga e'tibor qaratsak. Unda ta'kidlanishicha, "agarda ushbu qilmish Qirg'iziston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka olib kelmasa, bu holda qilmish uchun Huquqbuzarlik haqidagi kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik vujudga keladi" [17]. Bu joyda huquqbuzarlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi kodekslarning predmeti o'ziga xos taqsimlanganini ko'rishimiz mumkin. Mintaqaning qolgan davlatlarida huquqbuzarliklarga oid moddiy normalar asosan JK, MJtK va boshqa qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Bundan tashqari, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikistonda O'rmon va Suv kodekslarining mavjudligi ushbu mamlakatlarda o'rmon hududlarining ko'pligi, suv masalasining murakkabligi bois hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning ko'payib ketgani ularni kodekslashtirish ehtiyojini keltirib chiqargan, degan xulosa olib keladi [18].

Qirg'izistonda Bolalar haqida kodeksning qabul qilinishi bu sohadagi huquq normalarini qo'llash samaradorligini oshirish maqsadi bilan bir qatorda, mazkur davlatning bu masaladagi qonunchilikni tizimlashtirishga bergan e'tibori ifodasi ham, deb e'tirof etish mumkin.

Shu o'rinda Markaziy Osiyo davlatlari huquq tizimlarida ayrim kodekslar borligi, ba'zilarining nomlanishida o'ziga xoslik mavjudligini ta'kidlash mumkin. Masalan, Qozog'istonda ma'muriy protsessual munosabatlarni tartibga soladigan Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksi, Ijtimoiy kodeks (Turkmanistonda Aholining ijtimoiy himoyasi haqidagi kodeks), Tadbirkorlik kodeksi (O'zbekistonda shu nomdagi kodeks Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilmoqda), Ekologik kodeks, Xalq sog'lig'i va sog'liqni saqlash tizimi haqidagi kodeks (O'zbekistonda Ekologiya, Sog'liqni saqlash kodekslarini qabul qilish rejalashtirilgan)lar amal qilmoqda.

Turkmanistondagi kodekslashtirish jarayoni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, unda Sanitariya kodeksi va Dengiz savdosi kodeksi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Sanitariya kodeksi "aholining sanitar-epidemiologik farovonligini, fuqarolarning maqbul atrof-muhitga bo'lgan va boshqa shu bilan bog'liq huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini belgilaydi. Dengiz savdosi kodeksi esa mamlakatning hududi dengizga yaqinligi bilan tavsiflanadi. Arbitraj-protsessual kodeksi ham amal qiladi.

Tojikistondagi kodekslar tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda Avtomobil transporti, Sog'liqni saqlash, Jinoiy jazolarni ijro etish kodekslari mavjudligini ko'ramiz [19]. Shu o'rinda huquq tizimi qonunchilik tizimidan farq qilgan holda ma'lum darajada obyektiv omillar ta'siri ostida shakllanishini e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, kodekslashtirish jarayoni ham obyektiv omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Biroq bu jarayonga subyektiv omilning ta'siri yo'q, deb ham bo'lmaydi.

Shunga bog'liq holda mintaqa davlatlari huquqiy tizimlarida kodekslashtirish jarayonining istiqbollari masalasi muayyan ilmiy qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Ayni chog'da ta'kidlash joizki, O'zbekistonda hozirda Tadbirkorlik, Ekologik, Axborot kodeksi, Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi, Sog'liqni saqlash to'g'risidagi kodekslarning loyihalari ishlab chiqilmoqda, ayrimlari muhokama bosqichida, masalan, Tadbirkorlik kodeksi joriy yilning 16-iyul kuni Parlamentning Qonunchilik palatasi tomonidan 1-o'qishda qabul qilindi [20].

Garchi mintaqa davlatlari huquqiy tizimida bir xil, ya'ni an'anaviy tarmoq va tematik kodekslar mavjud bo'lishi bilan birga, ularning ayrimlarida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish, ayrim hollarda geografik hududi va tabiati bilan bog'liq bo'lgan ba'zi kodekslarning qabul qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosalar

Yuridik fanda, jumladan, milliy yuridik fanda qonun hujjatlarini tizimlashtirish va uning inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodekslashtirish kabi turlari yetarlicha o'rganilmagan. Bu masalalar bo'yicha nazariy ishlanmalar kam, shu munosabat bilan qonunchilikni tizimlashtirish, uning shakllari huquqni qo'llash jarayonidagi qanday amaliy ahamiyat kasb etishi borasidagi nazariy masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda milliy yuridik fanda yaxlit kodeks nazariyasi ishlab chiqilmagan. Bunga oid ko'plab masalalarga amaldagi qonunchilikda yoki milliy huquqiy doktrinada yetarlicha javob yo'q. Masalan, kodeks qanday maqomga egaligi, u qonunning bir turi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qanday o'rin tutishi, uning qonun bilan o'zaro yuridik kuchi nisbati qandayligi, qachon muayyan bir sohada kodeks yaratishga ehtiyoj tug'ilishi, xususan, bir sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar soni ma'lum bir raqamni tashkil etish-etmasligi, kodeksning ichki

strukturasiga oid umumiy talablar qandayligi haqidagi savollarga asoslangan javoblar ilmiy izlanishlarda aks etishi kerak.

Mintaqa mamlakatlari huquqiy tizimlarida kodekslashtirish jarayonlari dinamik tarzda rivojlanmoqda, bir qancha kodeks loyihalari ishlab chiqilmoqda, ayni paytda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bir joyda to'xtab qolmaydi, yangilari vujudga keladi. Shunga bog'liq holda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi zarurati paydo bo'ladi, shu tariqa qonunchilik tizimi tobora ko'payib boradi. Bu holat esa, o'z navbatida, ularni qo'llashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, takrorlanishlar, noaniqliklar paydo bo'ladi va hokazo. Ushbu sohalardan biri turli darajadagi va yuridik kuchga ega bo'lgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan norma ijodkorligi jarayonidir. Shu munosabat bilan sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni birlashtirib, tizimlashtirib, Norma ijodkorligi to'g'risidagi kodeks (yoki Huquq ijodkorligi to'g'risidagi kodeks) loyihasini ishlab chiqishni zarur deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Ispolinov A. Precedent v praktike Suda Evropeyskogo Soyuza [Precedent in the jurisprudence of the European Union Court of Justice]. *Mezhdunarodnoye pravosudiye – International Justice*, no. 3, pp. 64–77.
2. Alekseyev S.S. Problemy obschey teorii prava [Problems of the General Theory of Law]. *Herald of the Humanities University. Series: Law*, 2000, no. 1 (2), 6–9. Available at: <http://i.uran.ru/nasledie/content/problema-vseobshchey-teorii-prava>
3. Komarov S.A. Obschaya teoriya gosudarstva i prava [General Theory of State and Law]. St. Petersburg, 2014, no. 512, p. 279.
4. Chukhvicev D.V. Zakonodatel'naya tekhnologiya [Legislative technology]. Moscow, 2014, Unity-Dan, Zakonodatei'stvo i Pravo, p. 415.
5. Romashova R.A. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of State and Law]. Moscow, Yuridicheskiy tsentr Press, 2015, no. 650, p. 270.
6. Morozova L.A. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of State and Law]. Moscow, Eksmo Publ., p. 23.
7. Pigolkin A.S. (Ed.). Sistematizatsiya zakonodatel'stva v Rossiyskoy Federatsii [Systematisation of legislation in the Russian Federation]. St. Petersburg, 'Yuridicheskiy Tsentr Press' Publ., 2003, p. 382.

8. Golovistikova A.N. Problemy teorii gosudarstva i prava [Problems of the theory of state and law]. Moscow, 'Eksmo' Publ., p. 471.
9. Gruzdev V.V. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of State and Law]. Moscow, 'Bonfayr' Publ., 2018, p. 90.
10. Wencelas J. Wagner, Codification of Law in Europe and the Codification Movement in the Middle of the Nineteenth Century in the United States. 2 *Saint Louis University Law Journal*, no. 335. Available at: <https://www.repository.law.indiana.edu/facpub/2324>
11. Jan L.B. Osnovnyye osobennosti i metody kodifikatsii [Main features and methods of codification]. *Louisiana Law Review*, 1988, vol. 48 (5). Available at: www.digitalcommons.law/lsu.edu/lairev/vol48/iss5/3
12. Barsukova V.N. Sistematizatsiya zakonodatel'stva i yego vliyaniye na strukturirovaniye kodifitsirovannykh aktov [Systematization of legislation and its impact on the structuring of codified acts]. *Legal Policy and Legal Life*, 2010, no. 2, pp. 196–202.
13. Khabriyeva T.Ya. Kodifikatsiya rossiyskogo zakonodatel'stva v usloviyakh federativnogo gosudarstva [Codex of Russian legislation in the context of a federal state]. *Codification of legislation: theory, practice, technique: Proceedings of the International Scientific and Practical Conference (Nizhny Novgorod, 25-26 September 2008)*. Ed. D.G. Krasnov. N. Novgorod, Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia, Chamber of Commerce and Industry of Nizhny Novgorod region, 2009, p. 35. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kodifikatsiya-rossiyskogo-zakonodatelstva>
14. Tikhomirov Yu.A. Teoriya zakona [Law Theory]. Moscow, 'Nauka' Publ., 1982, p. 257.
15. Kodeks Napoleona, yego proshloye i budushchee [The Napoleonic Code: Its Past and Future]. 2019, March 26. Available at: <https://www.nlb.by/content/news/book-exhibitions-nlb/kodeks-napoleona-ego-proshloe-i-budushchee/>
16. Jean L.B. Principal Features and Methods of Codifications. *Louisiana Law Review*, 1988, vol. 48 (5), p. 4.
17. Centralised Data Bank of Legal Information of the Kyrgyz Republic. Available at: <https://cbd.minjust.gov.kg/112305/edition/1127825/ru/>
18. Codes of Kazakhstan. Legislation of CIS countries. 2003-2024 SoyuzPravoInform. Available at: <https://base.spinform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3/>
19. Codes of Tajikistan. Legislation of CIS countries. 2003-2024 SoyuzPravoInform. Available at: <https://base.spinform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3/>
20. Codes of Turkmenistan. Legislation of CIS countries. 2003-2024 SoyuzPravoInform. Available at: <https://base.spinform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3>
21. Tadbirkorlarga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi beriladi [Entrepreneurs are given the right to perform any activity not prohibited by law]. Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/kr/42635279/>

Kelib tushgan / Получено / Received: 20.06.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./DMOQ8776

UDC: 342.56(045)(575.1)

TABIIY HUQUQ NAZARIYASI VA UNING MOHIYATI

Amirov Sanjar Ilyos o'g'li,

Qashqadaryo viloyati

yuridik texnikumi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-1820-5927

e-mail: sanjaramirov19@gmail.com

Аннотация. В соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере высшего образования, науки и инноваций в рамках административных реформ» от 4 июля 2023 года № ПП-200 предусмотрены важные изменения в сфере высшего образования. В статье на основе административных реформ научно-теоретически проанализированы проблемы административно-правового регулирования деятельности высших образовательных организаций и пути их решения. Также в целях характеристики административно-правового регулирования деятельности организаций высшего образования рассматриваются пять моделей, представленных в монографической исследовательской работе Э. Эльмуродова. Научно-теоретический анализ показал, что в Узбекистане государство оказывает существенное влияние на большинство вопросов высшего образования, включая регистрацию, лицензирование, образовательное содержание, аккредитацию и контроль организации. Соответственно, можно сделать вывод, что высшее образование в Узбекистане имеет административное управление, близкое к французскому опыту, описанному Франсом ван Вутом под названием *state control model* (модель государственного контроля). Отмечено, что административно-правовое регулирование деятельности организаций высшего образования включает такие вопросы, как их государственная регистрация, выдача лицензий негосударственным образовательным организациям, аккредитация и государственный контроль. В статье также рассмотрены некоторые проблемы высшего образования, существующие в настоящее время в нашей стране. Дан ряд предложений и рекомендаций по решению существующих проблем административно-правового регулирования сферы высшего образования в Узбекистане.

Ключевые слова: административная реформа, организации высшего образования, административно-правовое регулирование, модели управления высшим образованием.

ADMINISTRATIVE AND LEGAL REGULATION OF THE ACTIVITY OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS IN THE CONDITIONS OF ADMINISTRATIVE REFORMS: SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS

Nematov Jurabek Nematilloevich,
Professor of the Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 4, 2023 "On measures for effective organization of state management in the field of higher education, science and innovation within the framework of administrative reforms" No. PD-200, important reforms in the field of education are envisaged. In the article, the problems of administrative-legal regulation of the activities of higher education organizations based on these administrative reforms and their solution from a scientific-theoretical point of view are analyzed. Also, in order to describe the administrative and legal regulation of the activities of higher education organizations, five models presented in the monographic research work of E. Elmurodov are considered. Scientific and theoretical analyses show that the state has a strong influence on most issues of higher education in Uzbekistan, including organization registration, licensing, educational content, accreditation, and control. Accordingly, it can be concluded that in Uzbekistan there is an administrative management of higher education close to the French experience called "the state control model" described by Frans Van Vyut. It can be said that the administrative and legal regulation of the activities of higher education organizations includes issues such as their state registration, licensing of non-state educational organizations, accreditation, and state control. The article also mentions a number of current problems in higher education in our country. A number of suggestions are given for the solution of the existing problems of administrative and legal regulation of the field of higher education in Uzbekistan.

Keywords: administrative reform, higher education organizations, administrative-legal regulation, higher education management models.

Kirish

Mamlakatimizda qabul qilingan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlarni strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-sonli Farmoni asosida muhim ma'muriy islohotlar nazarda tutilgan edi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarori oliy ta'lim sohasidagi muhim islohotlar tomon qo'yilgan yana bir qadam bo'ldi.

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solishda davlat organlari bilan o'zaro munosabatini to'g'ri muvozanatda ushlab dolzarb hisoblanadi. Ma'muriy islohotlar shuni ko'rsatmoqdaki, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Hozirga qadar asosan davlat oliy ta'lim tashkilotlari doirasidagi ma'muriy tartibga solishni yangilanayotgan shart-sharoitga, jumladan, yangi Konstitutsiyamiz asosidagi huquqiy reallikka, shuningdek, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasiga ham muvofiq deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan eng tanilgan modellar tahlili asnosida O'zbekistonda ma'muriy tartibga so-

lishning milliy modeliga xos taklif-tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilindi.

Material va metodlar

Maqolada yuqoridagi ma'muriy islohotlar asosida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish muammolari va ularning yechimi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Unda qiyosiy tahlil, formal-yuridik tahlil kabi metodlar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, mustaqillikning ilk yillaridan 2022-yil oxiriga qadar ta'lim sohasida Xalq ta'limi (maktab), Oliy va o'rta maxsus ta'lim (oliy va kasb-hunar ta'limi), shuningdek, 2017-yildan so'ng esa Innovatsion rivojlantirish, Maktabgacha ta'lim vazirliklari ham mavjud edi. 2022-yil oxirida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar natijasida esa yuqoridagi vazirliklarning barchasi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi, Ta'lim sifatini baholash inspeksiyasi, Davlat test markazi kabi bir necha vazirlik va idoralar yagona vazirlik doirasida birlashtirildi. Biroq tan olish kerakki, nomi bir vazirlikka birlashgan bo'lsa-da, aksariyat vazifa, funksiyalar u yoki bu tarzda ushbu idoralar zimmasida qoldi, deb aytish mumkin.

Oliy ta'lim sohasini ma'muriy boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, samarali boshqaruvni tashkil etish borasida rivojlangan davlatlar tajribasida bir necha modellar mavjud. Bu borada E. Elmurodov o'z monografik tadqiqot ishida beshta model haqida fikr yuritgan [1, 23-24 b.].

E. Elmurodovga ko'ra, birinchi model – Klarkning uchburchak modelidir (*Clark's Triangle Model*). Burton Klark (1921–2009) amerikalik olim bo'lib, ushbu nazariyasiga 1983-yilda asos solgan [2, 143-b]. Nazariyaning asosiy mohiyati shundaki, oliy ta'limdagi siyosat va boshqaruv hukumat-bozor-akademik oligarxiyasidan iborat uchta institut o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik natijasida samarali boshqariladi yoki inqirozga yuz tutadi.

Ikkinchisi evristik model bo'lib, mazkur nazariyaning asoschisi Luzan universiteti pro-

fessori Ditmar Braundir [3, 87–100 b]. Braun o'z nazariyasida Klark uchburchagidagi oliy ta'lim muassasalari (akademik oligarxiya) ishtirokini chuqur tahlil qiladi va uning ta'sirini ikki toifaga bo'ladi:

a) oliy ta'lim tashkilotlari zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy hamjihatligi va iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Oliy ta'lim tashkilotlari institutsion avtonom bo'lib, olimlar va tadqiqotchilar o'z bilim hamda ko'nikmalarini ixtiyoriy ravishda jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar qiladilar. Olimlar siyosiy va byurokratik bosimlar ta'sirida bo'lmaydi, ularning akademik erkinliklari ta'minlanadi. Oliy ta'lim tashkilotlarining erkinligini ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi. Davlat oliy ta'lim tashkilotini nazorat qilish emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarishida ko'mak beradi. Ushbu qarash Yevropa va Amerika qit'asining aksariyat davlatlariga tegishli, deb aytish mumkin;

b) oliy ta'lim tashkilotlariga utilitar ma'noda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlariga erishishiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi instituti sifatida qaraladi. Bunda oliy ta'lim tashkilotlari o'z ilmiy-innovatsion faoliyatini hukumat olib borayotgan siyosat (islohotlari)ni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ishlatadi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotining (OTT) akademik va boshqaruvdagi erkinligi cheklanadi [1, 24–30-b].

E. Elmurodovga ko'ra, uchinchi model – Dobbins va Nillning oliy ta'limni boshqarishning qiyosiy-tahliliy modeli. U 2014-yilda Dobbins va Nill tomonidan ishlab chiqilgan [4, 43-b]. Dobbins va Nill bu nazariyasini Klarkning "Boshqaruvning uchburchak modeli" tamoyillari asosida rivojlantirgan va oliy ta'lim boshqaruvini quyidagi 3 ta keng qamrovli toifaga ajratgan: 1) bozorga yo'naltirilgan model (*the market-oriented model*); 2) davlatga yo'naltirilgan – markazlashgan model (*the state-centered model*); 3) akademik o'z-o'zini boshqarish modeli (*the academic self-rule model*).

Dobbins va Nill yuqoridagi 3 ta toifaga qo'shimcha ravishda yana uchta o'zgaruvchan xususiyatni ham integratsiya qilish haqida fikr yuritadi, ya'ni: 1) universitetning tashkiliy tarkibi, shakli hamda kadrlar va moliyalashtirish masalalari; 2) davlatning tartibga soluvchi mexanizmlari va yondashuvlari; 3) oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar va jamiyatdagi boshqa tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar. O'z nazariyalarini yaratishda Dobbins va Nill oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasi to'g'risida ham to'xtalib o'tishgan. Berdaxlning tartibiy va mazmunan avtonomiyasi tushunchalariga qo'shimcha ravishda, ular kadrlar va moliyaviy erkinlikning muhimligini ham ta'kidlaydi [1, 30-32-b].

E. Elmurodovga ko'ra, to'rtinchi model asoschisi – gollandiyalik olim Frans Van Vyutdir. Vyut dunyo mamlakatlarining oliy ta'lim tizimini boshqarish shakllari va xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagi toifalarga ajratdi: davlat tomonidan nazorat qilinadigan model (*The State control model*); davlat tomonidan tartibga solinadigan model (*The State Supervising Model*). Bu ikki toifa davlatning boshqarish jarayonidagi ta'sir darajasiga qarab farqlanadi. Van Vyutning fikricha, oliy ta'lim tizimining davlat tomonidan nazorat qilinadigan modeli Yevropa davlatlaridagi an'anaviy boshqaruv uslubi bo'lib, u "kontinental model" deb ham ataladi. Klark ham "kontinental model" atamasini o'z ilmiy ishlarida qo'llaydi va bunda u davlat bilan universitet ichki tuzilmalari (kafedra va dekanatlar) vakolatlarining integratsiyasini nazarda tutadi.

Van Vyutning nazariyasiga asosan, davlat tomonidan nazorat qilinadigan modelda oliy ta'lim boshqaruv tizimi hukumat tomonidan shakllantiriladi, boshqariladi va moliyalashtiriladi. Boshqaruv jarayonida davlat eng asosiy va ta'sir doirasi keng institut/ishtirokchi hisoblanadi. Bu tizimga yaqqol misol – Fransiya tajribasidir. Fransiyada ta'lim vazirligi sifatini baholash mezonlari, o'quv jarayonlari, ilmiy daraja talablari, imtihon tizimi, ta'lim soha-

sidagi kadrlarni tayinlash kabi muhim masalalarni tartibga soladi. Federal boshqaruv tizimidagi davlatlarda, masalan, Germaniya va AQShda nazorat quyi – milliy darajaga tushirilgan.

Klark Van Vyutning ushbu nazariyasiga munosabat bildirgan va uning fikricha, kontinental modelda oliy ta'lim tizimini boshqarishda ishtirok etadigan institutlarning ta'siri shunday taqsimlanadi: markaziy davlat apparati *kuchli* →, oraliq boshqaruv institutlari *o'rtacha* →, quyi struktura, ya'ni kafedralar, kengashlar *kuchli* ta'sir doirasiga ega bo'ladi. Kontinental modelda, Van Vyutning fikricha, davlat oliy ta'lim tashkilotiga o'ziga kerakli kadrlarni tayyorlab beradigan manba sifatida qaraydi. Shuningdek, davlat bozordagi kadrlar ehtiyojini o'rganib, oliy ta'lim tashkilotlari orqali zarur kadrlarni yetishtiradi va shu usulda bozordagi kadrlar siyosatini ham nazorat qiladi. Bu esa davlatning o'z siyosatini legitimlashtirish va iqtisodiyotni boshqarishdagi islohotlarini amalga tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi.

Davlat tomonidan tartibga solinadigan boshqaruv modeli deganda Van Vyut kontinental modelga nisbatan davlatning ta'siri kam bo'lgan tizimni nazarda tutadi. Bu tizimga misol tariqasida u AQSh va Buyuk Britaniya tajribasini keltiradi. Albatta, oxirgi yillarda Buyuk Britaniyada oliy ta'limni boshqarishda o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, Britaniya ta'lim tizimida davlatning ta'siri nisbatan kam. Davlat tomonidan tartibga solinadigan tizimda oraliq boshqaruv institutlari, ya'ni universitet ma'muriyati va kengashlar hamda kafedralar o'rtasidagi munosabat uzviy bog'langan bo'ladi. Oliy ta'lim tizimini boshqarishda korporatsiyalar tuziladi. Har bir OTT qabul mezonlari, o'quv jarayoni va kadrlar salohiyatini mustaqil shakllantiradi. Ta'kidlash joizki, bu modelga kiradigan mamlakatlarda oliy ta'limni boshqarishda davlatning roli quyidagi omillar ta'sirida qisqarib bormoqda: oliy ta'lim muassasalariga davlat tomonidan ajratilgan mablag'larning qisqarib borishi; ta'lim

sifatining erishilgan natijalar ko'rsatkichi asosida baholanishi tendensiyasining rivojlanishi; oliy ta'lim tizimini boshqarishda tadbirkorlik subyektlariga oid iyerarxiya tamoyillarining kirib kelishi va universitet-sanoat munosabatlari rivojlanishi. Van Vyut nazariyasida davlatdan mutlaqo mustaqil ravishda boshqariladigan oliy ta'lim tizimi to'g'risida mulohaza yuritilmaydi. OTT erkin faoliyat yuritsa-da, davlat uni rag'batlantirishi, ta'lim sifatini nazorat qilishi, jarayonlar shaffofligini ta'minlashi va amaldagi tartiblarga rioya qilinishini nazorat qilishi lozimligi ta'kidlanadi [1, 32–34-b].

Beshinchi model – Glonikal agentlik ta'limoti (*A glonical agency heuristic*). Ushbu ta'limot asoschilari Avstraliyaning Monash universiteti professori Simon Morginson va AQShning Arizona universiteti professori Gari Rodes bo'lib, "Glonikal" ingliz tilidagi "*global, national, local*" (global, milliy va mahalliy) so'zlaridan olingan. Ushbu ta'limot Burton Klark g'oyalari asosida rivojlantirilgan bo'lsa-da, oliy ta'limni boshqarishni globalizatsiya jarayonlari ta'sirida o'rganadi va tahlil qiladi. Glonikal boshqaruv nazariyasiga ko'ra, oliy ta'limni joriy etish, boshqarish va isloh etishda nafaqat "davlat, akademik oligarxiya va bozor" ishtiroki, qolaversa, global qadriyatlarning ta'siri e'tiborga olinishi lozim. Olimlarning fikricha, oliy ta'lim tizimi allaqachon mahalliy va milliy darajadan chiqib, xalqaro jarayon sifatida shakllanib bo'lgan. Oliy ta'lim tizimini boshqarishda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarda liberalizm, neoliberalizm va akademik kapitalizm qadriyatlari singib bormoqda. Masalan, davlat budjetidan oliy ta'limga ajratilayotgan subsidiyalarning muntazam qisqarib borayotgani, oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish tendensiyasining avj olishi, xususiy universitetlar va davlat-xususiy sektor sherikligi kabi larning rivojlanayotgani buning yaqqol isbotidir. Shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi "davlat va oliy ta'lim", "oliy ta'lim va bozor" hamda "davlat va bozor" munosabatlari shakllanga-

ni ham glonikal agentlik ta'limotida nazarda tutilgan neoliberalizm g'oyalarining amalda qo'llanayotganidan darak beradi.

S. Morginson va G. Rodeslarning fikricha, oliy ta'lim tizimi keskin globallashib ketishi natijasida milliy tizimlarda Jahon Banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlarning ta'siri ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar turli kreditlar, grantlar va boshqa loyihalar orqali mahalliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishmoqda. Glonikal agentlik nazariyasiga ko'ra, jahonda mehnat bozorining xalqarolashuvi ham aynan oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlar va talablar asosida isloh qilinishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham ayni paytda ko'plab milliy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari jahon bozorida talab etilayotgan kadrlarni tayyorlashga harakat qilishmoqda. Ayrim xorijiy universitetlar esa o'z filiallarini boshqa davlatlarda ochish yoki satellik kampuslar orqali professional kadrlarni tayyorlamoqda. Bu esa o'z navbatida xalqaro universitetlarga katta daromad manbayi ham bo'lmoqda.

S. Morginson va G. Roudeslarning ilmiy nazariyalari oliy ta'limda nafaqat mahalliy va milliy, qolaversa, xalqaro omillarni hisobga olishni nazarda tutadi [5, 281–309-b.]. Bu nazariya bugungi oliy ta'lim mahalliy yoki milliy emas, xalqaro tizimga aylangan fenomen ekanini isbotlab bergan ta'limot sifatida tan olinganligi E. Elmurodovning monografik tadqiqotida keltirib o'tiladi [1, 35–36-b.].

Ushbu tahlillardan ko'rish mumkinki, oliy ta'limni boshqarishning turli ko'rinishlari mavjud. O'zbekistonda oliy ta'limga oid aksariyat masalalar davlat nazoratida deb aytish mumkin. OTTlarini boshqarishda rektor asosiy o'rinni egallaydi, chunki tashkilot rahbari va ish beruvchi sifatida u o'ziga kerakli xodimni tanlay oladi. Bu masalada rektorga nisbatan deyarli hech qanday cheklov yo'q deb aytish mumkin. Prorektor yoki ayrim mansabdor shaxslarni tayinlashda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yoki sohaviy vazirlik-

idoralar ta'sirini ko'rish mumkin xolos. Bundan tashqari, ta'lim mazmuni, sifati, akkreditatsiya, nazorat masalalarida ham davlatning kuchli ta'sirini ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'limning Frans Van Vyut tavsiflagan *"The State control model"* deb nomlangan fransuz tajribasiga yaqin ma'muriy boshqaruvi mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari soni 213 tani, shundan nodavlat ta'lim tashkilotlari 67 ta, xorijiy universitetlar filiallari 30 tani tashkil etmoqda [18]. Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, OTTlari nafaqat davlat tomonidan, balki davlatga qarashli bo'lmagan subyektlar tomonidan ham tashkil etilmoqda. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu sohadagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni yuqorida keltirib o'tilgan ilg'or xorijiy tajriba asosida yangilashga ehtiyoj tug'ilmoqda va buni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ham taqozo etmoqda, deb aytish mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni va boshqa normativ hujjatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, sobiq ittifoq davridan beri davlatning kuchli nazoratida bo'lib kelgan oliy ta'limni akademik va moliyaviy mustaqil qilishga intilish borligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 51-moddasida ham fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish, nodav-

lat ta'lim tashkilotlariga litsenziya berilishi, akkreditatsiya va davlat tomonidan nazorat qilish kabi masalalarni o'z ichiga oladi, deb aytish mumkin [6, 90–110-b; 7, 41–47-b; 8, 118–129-b; 9, 61–66-b].

Huquqshunos olimlarimizdan B. Qodirovning ilmiy ishida AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya misolida amalga oshirilgan tahlillardan ko'rish mumkinki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim tashkilotlari asosan o'zini o'zi boshqarish tizimi orqali harakat qiladi [10, 65–68-b]. Mazkur davlatlarda davlat organlari tomonidan oliy ta'lim tashkilotiga litsenziya berish yoki ularning ichki boshqaruvi, moliyaviy hamda akademik masalalarini belgilashga maxsus vakolatli vazirlik yoki boshqa ko'rinishdagi davlat organining ma'muriy aralashuvi kuzatilmaydi [11, 96–102-b].

Nazarimizda, maktab ta'limidan farqli ravishda oliy ta'limda davlatning kuchli nazorat yoki ma'muriy aralashuvi sobiq sovet davridan farqli ravishda bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan, buni O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 50-hamda 51-moddalari mazmunidan ham anglash mumkin. Oliy ta'limda ta'lim oluvchilar ham voyaga yetgan, o'zi mustaqil qaror qabul qila oladigan talaba yoshlardan iborat. Shunga ko'ra, bugun oliy ta'limni davlat tomonidan kuchli ma'muriy nazoratda ushlashga ehtiyoj qolmadi. Konstitutsiyaning 51-moddasi ayni shu reallikdan kelib chiqib, oliy ta'lim sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga solishning sobiq ittifoq davridan farq qiladigan yangicha modelini joriy etishni taqozo etmoqda, deyish mumkin.

Oliy ta'lim sohasini huquqiy jihatdan tadqiq qilib kelayotgan K. G'oziyevning ilmiy ishlarida ham yangicha modelni joriy etish zarurati sifatida hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'limidagi mavjud bir qancha muammolar, jumladan, aholining savodxonlik darajasi pastligi, qabul kvotalarining davlat tomonidan belgilanishi, salohiyatli kadrlarning asosan xorijga chiqib ketayotganligi, pedagog xodim-

larning muntazam ravishda o'quv ishlariga bog'liq bo'lmagan tashkiliy ishlarga jalb qilinishi, xorijiy adabiyotlarni o'rganish borasida talabalarning ingliz tilini bilish darajasi pastligi, har bir oliy ta'lim tashkiloti bozor iqtisodiyoti talab-taklifiga qarab mustaqil ravishda o'quv reja va dasturlarni belgilay olmasligi, to'liq moliyaviy mustaqillik yo'qligi sababli oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida raqobatning mavjud emasligi kabi muammolar sanab o'tilganini ko'ramiz [12, 135–136-b].

QS Universities Rankings xalqaro universitetlar o'rniga oid reytingga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistondan 2024-yil holatiga ko'ra, bor yo'g'i ikkita oliy ta'lim tashkiloti (Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari Milliy tadqiqot universiteti– 547-o'rinda hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti – 781–790-o'rinlarda) mazkur nufuzli reytingga kirganini ko'rishimiz mumkin [13].

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mamlakatimizda oliy ta'lim sohasini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish borasida quyidagi taklif-tavsiyalarni berish mumkin.

Birinchidan, oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solishning kuchli davlat nazorati va aralashuviga asoslangan sovet davri tajribasidan to'liq voz kechib, nisbatan liberal tartibga solish modeli bo'lmish yuqorida tahlili keltirilgan modellarning biriga, jumladan, Dobbins va Nillning oliy ta'limni boshqarishning akademik o'z-o'zini boshqarish modeli (*the academic self-rule model*)ga o'tish taklif etiladi [14, 105–125-b; 15, 10–16-b; 16, 59–71-b].

Ikkinchidan, oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va akkreditatsiyalashning mavjud tizimini to'liq qayta ko'rish, unda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz 51-moddasida belgilangan oliy ta'lim tashkilotlarining qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligini aks ettirish tavsiya qilinadi.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini keskin kuchaytirish hamda davlat tomonidan grantlar ajratish asnosidagi moliyaviy boshqaruvning yangicha modellarini joriy etish ham masalaga yaxshi yechim bo'la oladi [17, 24–33 b].

To'rtinchidan, ma'muriy huquq sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar doirasida oliy ta'lim tashkilotlarini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solishga oid monografik tadqiqotlarni ko'paytirish zarur. Mazkur tadqiqotlar doi-

rasida oliy ta'lim tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, akkreditatsiya, litsenziya talab va shartlariga rioya qilinayotganini nazorat qilish (tekshirish), oliy ta'lim tashkilotining ichki boshqaruvi, moliyaviy mustaqillik va uning chegaralarini aniqlash, akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqining ma'muriy-huquqiy tavsifi, mazmuni hamda chegaralarini belgilashga oid ilmiy muammolarni tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb ehtiyojidir.

REFERENCES

1. Elmurodov E.Sh. O'zbekistonning oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatida Yaponiya tajribasini qo'llash yo'llari [Ways of applying the Japanese experience in Uzbekistan's state policy in the field of higher education]. Tashkent, 2023, 'Political institutions, processes and technologies' Publ., pp. 23–24.
2. Clark B.R. The Higher Education System. Academic Organization in Cross-National Perspective. University of California Press, Los Angeles. 1983, p. 143.
3. Braun D. Changing governance models in higher education. The case of new managerialism. *Swiss Political Science Review*, 1999, no. 5/3, pp. 87–100.
4. Dobbins M., Knill C. Higher education governance and policy change in Western Europe: International challenges to historical institutions. Basintoke, Palgrave Macmillan, 2014, p. 43.
5. Morginson S., Rhoades G. Beyond national states, markets, and systems of higher education. A gloncal agency heuristic. *Higher Education*, 2002, pp. 281–309.
6. Nematov J. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy protseduralarning institutsional asoslarini takomillashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil [Improvement of the institutional foundations of administrative procedures in the Republic of Uzbekistan, comparative legal analysis]. *Society and Governance*, 2017, no. 4, pp. 90–110.
7. Nematov J. O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning huquq instituti sifatidagi ilmiy-nazariy tahlili [Scientific and theoretical analysis of administrative procedures as a legal institution in Uzbekistan]. *Journal of Legal Studies*, 2018, no. 9, pp. 41–47.
8. G'oziyev K. Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida [Higher education organizations as subjects of administrative law]. *Review of Legal Sciences*, 2024, no. 1, pp. 118–129.
9. Nematov Zh. Nekotoryye voprosy primeneniya printsipov sorazmernosti i vozmozhnosti byt' vyslushannym v administrativnykh protsedurakh Respubliki Uzbekistan [Some issues of application of the principles of proportionality and the opportunity to be heard in administrative procedures of the Republic of Uzbekistan]. *Justice*, 2020, no. 5, pp. 61–66.
10. Qodirov B.B. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improvement of the organizational and legal basis of personnel training in the system of higher education in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2019, pp. 65–68.
11. Nematov J. Some issues of perception, interpretation of administrative law and legal education in modern Uzbekistan. *Review of Legal Sciences*, 2019, no. 1, pp. 96–102.

12. Goziyev K. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va tashkil etishning huquqiy jihatlarlari [Legal aspects of management and organization of higher education institutions in Uzbekistan]. *Journal of Society and Innovation*, 2022, no. 6, pp. 135–136.
13. World University rankings. Available at: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/>
14. Nematov J. Transformation of Soviet administrative law Uzbekistan's case study in judicial review over administrative acts. *Administrative Law and Process*, 2020, no. 1/28, pp. 105–125.
15. Nematov J. O'zbekistonda ma'muriy sudlar tomonidan ma'muriy-huquqiy normalarni qo'llashning dolzarb masalalari [Actual issues of application of administrative-legal norms by administrative courts in Uzbekistan]. *Bulletin of the Ministry of Internal Affairs Academy*, 2023, vol. 1, pp. 10–16.
16. Nematov J. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi arafasida, asosiy yutuqlar va muammolar [On the eve of the 6th anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Administrative Procedures", the main achievements and problems]. *Review of Legal Sciences*, 2024, no. 1, pp. 59–71.
17. Goziyev K. Oliy ta'limni moliyalashtirish qiyosiy tahlil [Comparative analysis of higher education financing]. *Jurisprudence*, 2023, no. 4, pp. 24–33.
18. List of higher education institutions. UzRes Ministry of Higher Education, Science and Innovation 2020-2023. Center for the Development of Digital Educational Technologies Producer. Available at: <https://stat.edu.uz/universities/>

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./YCVS4631

UDC: 342.9:378.1(045)(575.1)

MA'MURIY ISLOHOTLAR DAVRIDA OLIY TA'LIM SOHASINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNING MA'MURIY-HUQUQIY JIHATLARI

G'oziyev Kozimbek Jovlonbekovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-8093-7332

e-mail: kozimg@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlarning bir qismi bo'lgan oliy ta'limni 2030-yilga qadar rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda statistik ma'lumotlar, ma'muriy islohotlarning mazmun-mohiyati, boshqaruvni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Milliy qonunchilikni o'rganish barobarida oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi, davlatning bu sohada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishish yo'lidagi qilinishi lozim bo'lgan masalalar yoritib berildi. Shuningdek, axborot va raqamlashtirish asrida oliy ta'lim sohasini tashkil etish va boshqaruvini takomillashtirish, davlat organlari bilan oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro munosabatini tartibga solish hamda muvofiqlashtirish holatlari tahlil etildi. Davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga taqdim etilgan preferensiyalarning o'zaro nisbati o'rganildi. Xorijiy tajriba asosida boshqaruvni tashkil etish masalasi ko'tarilib, qiyoslash usullaridan foydalangan holda umumiylik, o'xshashlik va o'ziga xosliklar o'rganildi, tegishli xulosalar chiqarilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari haqida taklif-tavsiyalar bildirildi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga e'tibor qaratgan holda oliy ta'lim tashkilotlarining ichki va tashqi boshqaruvi sohasidagi ayrim jihatlari tahlil qilinib, ta'lim xablarini yaratishning ijobiy holatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ma'muriy islohotlar, boshqaruv, raqamlashtirish, moliyaviy erkinlik, akademik mustaqillik, tashkilot.

АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ДО 2030 ГОДА В ПЕРИОД АДМИНИСТРАТИВНЫХ РЕФОРМ

Гозиев Козимбек Жовлонбекович,

преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы развития высшего образования до 2030 года в рамках проводимых в нашей стране административных реформ, проанализированы научные работы национальных и зарубежных учёных, статистические данные, сущность административных реформ и особенности осуществления управления. Наряду с изучением

национального законодательства были освещены вопросы развития высших образовательных учреждений, пути достижения целей и задач, определённых государственной политикой в этой сфере. Также проанализированы необходимые условия для совершенствования организации и управления сферой высшего образования, регулирования и координации взаимодействия государственных органов и организаций высшего образования в век информации и цифровизации. Изучено соотношение предпочтений, предоставляемых государственным и негосударственным образовательным организациям высшего образования. Поднят вопрос об организации управления на основе зарубежного опыта, с использованием сравнительного метода изучены её общие черты, различия и особенности, сделаны соответствующие выводы, даны предложения и рекомендации по направлениям научно-исследовательской работы, которые должны быть реализованы в перспективе. Также были проанализированы некоторые аспекты внутреннего и внешнего управления организациями высшего образования с акцентом на отношения государственно-частного партнёрства и выявлены положительные стороны создания образовательных хабов.

Ключевые слова: высшее образование, административная реформа, управление, цифровизация, финансовая свобода, академическая независимость, организация.

ADMINISTRATIVE AND LEGAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF HIGHER EDUCATION UNTIL 2030 DURING THE PERIOD OF ADMINISTRATIVE REFORMS

Goziev Kozimbek Jovlonbekovich,

Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the issues of the development of higher education until 2030, which is a part of the ongoing administrative reforms in our country, the scientific works of national and foreign scientists and the analysis of statistical data, the essence of the administrative reforms, and the specific features of the implementation of management are analyzed. Along with the study of the national legislation, the development of higher education organizations and the issues that should be done in order to achieve the goals and tasks set by the state in this field were highlighted. Also, cases of improving the organizational and management of higher education in the age of information and digitization, regulation, and coordination of interaction between state bodies and higher education organizations were analyzed. The issue of management organization based on foreign experience was raised, commonalities, similarities, and peculiarities were studied using comparative methods, relevant conclusions were drawn, and suggestions were made about the directions of scientific research work to be carried out in the future. Also, some aspects of internal and external management of higher education organizations are analyzed with a focus on public-private partnership relations, as well as positive cases of educational hubs creation are revealed.

Keywords: higher education, administrative reforms, governance, digitization, financial freedom, academic independence, organization.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida ta'lim – keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga yo'llagan murojaatida "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini

shakllantirish milliy g'oyamizning eng muhim omillari va ajralmas qismlaridir" [1, 16-b.] – deb ta'kidlagan edi. Yoshlarning o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadlariga erishishida keng imkoniyatlar yaratish bugun eng ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqara oladigan haqiqiy kuchga ay-

lanadi. “Yangi O‘zbekiston – maktab ostona-
sidan, ta’lim va tarbiya tizimidan boshlanadi”
shiori ostidagi keng ko‘lamli islohotlar shu
maqsadda o‘tkazilmoqda.

Ma’muriy islohotlar davrida oliy ta’lim so-
hasidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab bera-
digan qator normativ hujjatlar qabul qilindi.
Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezi-
dentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston
Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilga-
cha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash
to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni sohani
2030-yilga qadar rivojlantirishning asosiy us-
tuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bugungi kunda sohadagi ma’muriy islo-
hotlar natijasida oliy ta’lim tashkilotlari soni
210 taga yetdi. Ayni paytda 114 ta davlat, 67
ta nodavlat va 29 ta xorijiy oliy ta’lim dargoh-
lari faoliyat olib borayotganini hisobga olsak,
bu 2017-yildagi 77 taga nisbatan 133 taga
oshgani, so‘nggi yillarda ularning soni deyarli
3 barobarga ko‘payganini ko‘rishimiz mum-
kin. Natijada Oliy ta’lim, fan va innovatsiya-
lar vazirligining *edu.uz* sayti ma’lumotlariga
ko‘ra, oliy ta’lim tashkilotlarida 37 704 nafar
professor-o‘qituvchi faoliyat olib borayotgan
bo‘lsa, bakalavriat bosqichida 1315,1 ming,
magistraturada 24,1 ming nafar hamda ordi-
natura bosqichida 2,2 ming nafar talaba tah-
sil olmoqda.

Sohada davlat-xususiy sheriklikni rivoj-
lantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy
ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish
asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasi bu-
gungi kunda 42 foizni tashkil etmoqda, bu
raqam 2016-yilda 9 foizni tashkil etgan. Ya’ni
2017-yildagi 279,7 mingta oliy o‘quv yurti
bugungi kunda 1061,7 mingtaga yetgani yoki
deyarli 4 barobarga ortgani oliy ta’limda ba-
kalavr bosqichida 306 ta ta’lim yo‘nalishi,
magistraturada esa 625 ta mutaxassislik
bo‘yicha chuqur bilimli va malakali kadrlarni
tayyorlashga zamin bo‘lmoqda.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy
ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish,
olingan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar

bilan uyg‘unlashtirish maqsadida oliy ta’lim
tashkilotlarida tahsil olayotgan yuqori kurs
talabalariga o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida ish-
lash imkoniyati yaratib berildi. Shu bilan bir-
ga, oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutini ke-
ngaytirish ilmiy salohiyatni yangi bosqichga
ko‘targani natijasida tayanch doktoranturada
o‘qiyotganlar 5 322 nafar, doktoranturadagi-
lar 283 nafarni, mustaqil izlanuvchilar soni
6 347 nafarni tashkil etdi va 289 ta ilmiy ke-
ngashda dissertatsiyalar himoya qilindi. Bu
bilan umumiy ilmiy salohiyat 2017-yilgi 32,7
foizdan 2024-yilga 41 foizga oshgan.

Oliy ta’lim sohasini jahon andozalarga
moslashtirish, tizimdagi tashkilotlarning ka-
mada 10 tasini xalqaro e’tirof etilgan tashki-
lotlar (*Quacquarelli Symonds World University
Rankings, Times Nigher Education* yoki *Acade-
mic Ranking of World Universities*) reytingi-
ning dastlabki 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim
muassasalari ro‘yxatiga kiritish borasida olib
borilgan ma’muriy islohotlar natijasida bi-
rinchi marotaba mamlakatimizdan Toshkent
irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsi-
yalash muhandislar instituti Milliy tadqiqot
universiteti (Top-547) va Mirzo Ulug‘bek no-
midagi O‘zbekiston Milliy universiteti (Top-
781–790) dunyo miqyosidagi oliy ta’lim tash-
kilotlari reytingiga kirishiga erishildi.

Oliy ta’limga bo‘lgan huquqni ta’min-
lashda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj
qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati chek-
langan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov
darajasini oshirish, ular uchun infratuzilma-
ga oid sharoitlarni yaxshilash maqsad qilindi.
Natijada O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy
ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish
jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha dav-
lat komissiyasining 2022-yildagi bayoni bilan
kirish imtihonlarida 53 ta turdagi imtiyoz jo-
riy etildi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston
Respublikasi Konstitutsiyasining 1-modda-
sida qayd etilgan O‘zbekiston ijtimoiy davlat
ekanligi, 50-moddadagi har kim ta’lim olish
huquqiga ega ekanligi hamda 51-moddasida-
gi fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tan-

lov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqliligi haqidagi prinsiplarga to'la mos keladi.

Adabiyotlar tahlili. 2030-yilga qadar oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ma'muriy islohotlar davrida davlat tomonidan qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, oliy ta'lim tashkilotlarining davlat organlari bilan bo'ladigan munosabatlarida islohotlarning ahamiyatini ochib berishga oid ilmiy masalalar nafaqat xorijiy mamlakatlar, balki milliy olimlarimiz tomonidan ham ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar davomida o'rganilgan, tegishli xulosa va tavsiyalar taqdim etilgan. Jumladan, B.B. Qodirov oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish [2, 227-b.], I.B. Jurayev oliy ta'lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish [3, 220-b.], M.U. Tursunova xalqaro huquqiy standartlar negizida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [4, 50-b.], J.N. Boqiyev O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta'lim misolida) [5, 48-b.], E.Sh. Elmurodov O'zbekistonning oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatida Yaponiya tajribasini qo'llash masalalarini [6, 25-b.], Alberto Amaral [7, 431-b.] AQSh, Kanada, Shveysariya kabi davlatlarda ta'lim tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solishdagi o'ziga xos jihatlar effektini o'rgangan.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determinizm prinsiplari, xronologik uslub, statistik, qiyosiy-tahlil, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Maqola bosh mazmuni va obyektidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborni O'zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar oliy ta'lim va ta'lim tashkilotlarining ma'muriy islohotlar davrida rivojlanishi, bu boradagi mavjud

muammolar, ularni hal etish yo'llari, ushbu mexanizmni takomillashtirish istiqbollari va sohada vujudga keladigan shu kabi munosabatlarni milliy, xorijiy tajriba, shuningdek, normativ hujjatlarni tadqiq qilish asosida yoritishga qaratamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarorida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ilg'or xorijiy tajriba hamda iqtisodiyotdagi soha, tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji asosida qayta ko'rib chiqilishi belgilangan. Shunga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi idoralar bilan birgalikda iqtisodiyotning real tarmoqlari va sohalarida ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talabni o'rgangan holda 4 yilga mo'ljallangan prognozni shakllantirib boradi.

Davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida ta'lim shakllari bo'yicha bakalavrga nisbatan kunduzgi 66,9 foizni, sirtqi 25,8 foizni, kechki 5,8 foiz va masofaviy ta'lim 1,5 foizni tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun kerakli kadrlarga bo'lgan talabni oliy ta'lim tashkilotlari kelishib, real holatdan kelib chiqib emas, balki barcha mutaxassisliklarga birdek kvota ajratilishi bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy mustaqillik berilgan OTTga kadrlar ehtiyojini mustaqil belgilash berilgan bo'lsa-da, amalda bu tartib ishlamaydi. Sababi bu toifadagi OTTga ham talaba davlat buyurtmasi asosida qabul qilinadi.

Masalan, statistik ma'lumotlarga qaraganda 2022–2023-o'quv yilida jami 176 312 nafar talaba (shundan 23 304 nafari magistr bosqichini) bitirgan bo'lsa, ularning ish bilan ta'minlanganligi joriy yil holatiga ko'ra 94 224 (53,4 foizni) tani tashkil etadi. Shundan magistr darajasini olganlarning 18 038 (77,4 foizi) nafari ish bilan band qilinganligi

ish bilan ta'minlanganlik darajasining pastligini ko'rsatadi. Bu esa oliy ta'lim sohasining xalqaro daraja olib chiqishga ham (QS World ranking Top universitetlarga kirishda ish bilan ta'minlash ko'rsatkichi inobatga olinadi), oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi (Vazirlar Mahkamasining 16.06.2019-yildagi 467-sonli qaroriga asosan bitiruvchilarning ishga joylashish holatiga 100 balldan 8 ball taqdim etiladi).

Xorijiy mamlakatlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan hududlar va tarmoqlarning buyurtmalari asosida olib borilib, oliy ta'lim tashkilotlariga tavsiyalar real ehtiyojlardan kelib chiqib beriladi. Masalan, AQShda kadrlar bo'lgan ehtiyojni "raqamlar asosida" hisoblash metodikasi orqali Mehnat statistikasi byurosi tomonidan 1997-yilda ishlab chiqilgan qo'llanma 10-15 yilga mo'ljallanadi va har ikki yilda yangilab boriladi. Bunda qaysi sohaga kadrlar zarurligi aniqlanib, federal hukumatga taqdim etiladi va shu asosda oliy ta'lim tashkilotlariga turli grantlar ajratiladi [8, 747-b.].

Ushbu muammolarni hal etish va yuqorida qayd etilgan normativ hujjatlardagi belgilangan maqsadlarga erishish uchun:

- xalqaro tajribadan va iqtisodiyotning real holatidan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot institutlari bilan birgalikda aniq metod orqali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning 5–10 yillik prognozlarini ishlab chiqish;

- davlat granti asosidagi buyurtmalarni va kirishdagi imtiyozlarni qisqartirib, qabul parametrlarini yo'nalishlar kesimida belgilash;

- ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida sirtqi ta'lim yo'nalishlariga qabulni qisqartirish, buning o'rniga sanoat sohasini rivojlantirish uchun bu yo'nalishga qabulni bosqichma-bosqich oshirib borish lozim bo'ladi.

Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etishda yuqori malakali, ma'lumotli kadrlarni tayyorlash va yetkazishni, shuningdek, oliy

ma'lumotli aholining ko'payishini kafolatlaydi, mamlakatni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga yordam beradi. Kadrlar nafaqat davlat chegaralari ichida, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh bo'ladi.

Ma'muriy islohotlar davridagi dolzarb masalalardan biri oliy ta'lim tashkilotlari uchun moliyaviy mustaqillikning amalida qo'llanishidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli qarorining 8-maqsadida oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini takomillashtirish masalasi ko'tarilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-boshqaruv va akademik jihatdan mustaqilligini ta'minlaydigan eng muhim jihat moliyaviy mustaqillik hisoblanib, bu boradagi muammolarni bartaraf qilmasdan belgilangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy saytidagi ma'lumotlarga ko'ra, vazirlik tizimidagi 72 ta oliy ta'lim tashkilotining daromad manbalarida budjet mablag'lari o'rtacha 26,3 foizni, to'lov-kontrakt 70,5 foiz va jamg'arma mablag'lari 3,2 foizni tashkil etishi O'zbekistonda budjet va to'lov kontraktidan moliyalashtirish barcha davlat OTM uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilayotganining isbotidir. Buning asosiy sababi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining bir-biriga zidligi yoki hukumat komissiyalari tomonidan turli bayonlar orqali amaldagi normalarning ishlagishiga qo'yilayotgan sun'iy to'siqlardir.

Davlat komissiyasining 2020–2024-yildagi turli bayonlari bilan (oxirgisi 2023-yil 4-sentabrdagi 45-8-sonli bayon) to'lov kontrakt miqdorlarini oshirish to'xtatilgan (bu qoida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan 40 ta oliy ta'lim tashkilotiga ham tegishli). Biroq qayd etilgan davrda respublikadagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdori bir necha marotaba, oxirgi marotaba 2023-yil-

ning 1-dekabrda 7 foizga oshirilgan bo'lsa-da, kontrakt miqdorlari 2021-yildagi holatda qoldirilgan. Buning natijasida esa kontrakt summolari talabani 1 yillik o'qitish xarajatlari o'rta hisobda 55–60 foizini qoplagan. OTM bu summaning yetishmagan qismini, o'z moliyaviy ehtiyojlarini asosan tabaqalashtirilgan to'lov-kontraktidan (2023-2024 o'quv yilida 2,4 trln so'm) qoplashiga sabab bo'lgan.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy erkinlik harakatlariga ta'sir etuvchi yana bir jihat ulardagi mavjud pul oqimlarining qonuniy asoslarda yo'naltirilmasligidir. Bu nimalarda ko'rinadi? Avvalo, oliy ta'lim tashkilotlarining (nodavlat OTT bundan mustasno) pul mablag'lari bankdagi shaxsiy hisob raqamlarida emas, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hisob raqamlarida saqlanishi hamda ularning sarflanishi qat'iy byurokratik to'siqlarni vujudga keltiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatlari uchun oddiy ashyolardan tortib moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydigan jihozlarni ham birja orqali g'aznachilik xizmati pul oqimlarini o'tkazish yo'li bilan olishi, turli xorijiy olimlarni dars mashg'ulotlariga taklif etish yoki xorijlik hamkorlar bilan konferensiyalarni tashkil qilish uchun o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larni tenderga qo'yish orqali olishi amalda moliyaviy mustaqillikni yo'qqa chiqaradi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tashkilotlarining o'zlari ham pul oqimlarini boshqarishda zamonaviy menejmentni joriy qilmagani, o'z ishlanmalarini tijoratlashtirishni yo'lga qo'ymaganligi, moliyaviy ehtiyojni qoplashda asosan tabaqalashtirilgan kontrakt summalariga bog'lanib qolganligi, xayriya fondlarini tashkil etish va xorijdan mablag' jalb qilishdagi ba'zi to'siqlarning mavjudligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlarda, xususan, AQShda joylashgan Pensilvaniya davlat universiteti 500 ga yaqin kompaniyalar bilan tuzilgan shart-

nomalari asosida 1,2 mlrd dollarlik ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda biznes, ta'lim va tadqiqotni birlashtirgan innovatsiyalar bog'i kampusida barpo etilgan aeroport, mehmonxona, regbi stadioni, texnologik injiniring markazlarini ilmiy ishlar bajarish uchun ijaraga berish asosida 2023-yilda 8 mlrd dollar foyda ko'rgan.

A. Xo'jayevning fikricha, "budjetdan tashqari pul mablag'larini shunga o'xshash ilmiy va innovatsion mahsulotlar tayyorlanadigan texnoparklarni tashkil etish orqali ishlab topish mumkin. Buning uchun ilmiy salohiyatni saqlash, tajriba bazasini yaratish, amaliy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, venchur kapitaldan foydalanish, hududlardagi muammolarni hal etish yuzasidan hamkorlik qilish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish zarur, bu esa xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini yaratadi" [9, 205-b.].

Shu maqsadda oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy erkinlikni ta'minlash uchun bazaviy to'lov-kontrakt miqdorlarini ta'lim yo'nalishlari xususiyatidan kelib chiqib belgilash imkoniyatini taqdim etish;

– oliy ta'lim tashkilotlari o'z mablag'larini erkin tasarruf qilishi uchun tushumlarning barchasini bank depozit hisob-raqamlariga o'tkazish imkoniyatini taqdim etish;

– "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun xorijiy hamkorlar va nodavlat tashkilotlari bilan erkin shartnomalar tuzish imkoniyatini taqdim etuvchi normalarni kiritish lozim.

– Bu orqali davlat oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga erishiladi, pul oqimlarini to'g'ri sarflash, o'z ishlanmalarini tijoratlashtirish va natijada muassasa davlatga moliyaviy qaramlikdan imkon qadar qutulishiga zamin yaratiladi.

Oliy ta'lim sohasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, bu orqali oliy ta'limga bo'lgan huquqni ta'minlash, o'quv dasturlari, kontent, ichki boshqaruv jarayonlari hamda hujjatlar almashinuvini raqamlashtirish alohida aha-

miyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim tashkilotlariga qabul jarayonlari raqamlashtirilgan va internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi, yaratilgan axborot tizimlari raqamli hukumat tizimlariga integratsiya qilingan hamda vazirlik va idoralar bilan ma'lumot almashish yo'lga qo'yilgan. Masalan, Toshkent davlat yuridik universitetida ta'lim platformasi to'liq raqamlashtirilib, *digital.tsul.uz* yoki xodimlar o'rtasidagi hujjatlar aylanmasi "*smart.adliya*" tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, oliy ta'lim sohasida talabalarga to'lov-shartnoma, qayta o'qish hamda talabalar turar joylari uchun shartnomalarni elektron shaklda berish, onlayn to'lovlar, onlayn kutubxona, professor-o'qituvchilar va talabalarga oid ma'lumotlar bo'yicha "*HEMIS*" axborot tizimi hamda ta'lim tashkilotlari tomonidan to'lovlar monitoringini yuritish uchun "*edubilling*" va boshqa axborot platformalari yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-228-sonli qarori bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasini ishga tushirish belgilangani ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishga qo'yilgan qadamlardan biri bo'ldi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bazaviy hamda maxsus o'quv kurslari bo'yicha mazkur virtual akademiyada o'qitish uchun 2025-yil 1-yanvarga qadar tegishli ilova va platforma ishga tushirilishi belgilab qo'yildi.

To'g'ri, bu platforma birinchi navbatda davlat xizmatchilarining malaka va ko'nikmalarini oshirishga mo'ljallangan bo'lishi, keyinchalik esa boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida ham joriy etish mumkin. Chunki dunyo tajribasida virtual universitetlar ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'limga bo'lgan huquqni ta'minlab boradi, bu borada,

ayniqsa, AQSh va Janubiy Koreya davlatlari yetakchilardan hisoblanadi [10, 125-b.].

Oliy ta'lim tizimi va ta'lim tashkilotlarini raqamlashtirish borasida ijobiy ishlar qilingan bo'lsa-da, hali yechimini kutayotgan qator muammolar ham mavjud. Masalan, moliyaviy jarayonlar to'liq raqamlashtirilmagani, oliy ta'lim tashkilotlari o'z mablag'larini tasarruf etish jarayonida soliq bazasida barcha yo'nalishlar bo'yicha satrlarning mavjud emasligi, masofaviy va inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun kontentlar va o'quv dasturlari to'liq elektron darajada emasligi shular jumlasidan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish bo'yicha soha va hamkor tashkilotlar tomonidan quyidagi bir qator ishlar amalga oshirilishi raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Buning uchun:

- oliy ta'lim tashkilotlari uchun pul oqimlarini ta'lim sohasi jarayonida tasarruf etish uchun soliq bazasi tomonidan tegishli satrlarni mustaqil kiritish imkoniyatini taqdim etish;

- "*HEMIS*" axborot tizimidan foydalanish yuzasidan aniq reglament ishlab chiqish;

- oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy va inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun kontentlarni tayyorlagan professor-o'qituvchilarga yuqori darajadagi ustamalarni to'lash tartibini joriy etish lozim.

O'zbekistonning 2030-yilgacha va oliy ta'lim sohasidagi boshqa ma'muriy islohotlar bilan bog'liq qonunosti hujjatlarida oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish va buning uchun nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish vazifasi maqsad qilib qo'yilgan. Davlatga qarashli yoki nodavlat bo'lishidan qat'i nazar, oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ta'lim berish bo'lishi lozimligi dunyo tajribasida isbotlangan voqelikdir.

Bugungi kunda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatini olib borish yuzasidan bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan va hozirda 67 ta OTT o'z faoliya-

tini olib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil holatiga bu turdagi oliy o'quv yurtlarida 324 476 nafar (davlat OTT 994 795) talaba, shundan 79 484 nafari yoki jami talabalarining 25 foizi kunduzgi (davlat OTT 564 200 nafar, 57 foizi) va 244 893 nafari yoxud mavjud ilm toliblarining 75 foizi sirtqi (davlat OTT 387 590, 39 foizi) tarzda ta'lim olib, ularga 7 424 nafar professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda.

Yuqorida nomlari qayd etilgan qonunchilik hujjatlarida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi ta'lim bozorida sog'lom raqobatni vujudga keltirishi, oliy ta'limga bo'lgan huquqni ta'minlash orqali qamrovni kengaytirish, ichki va tashqi bozorga sifatli hamda malakali, chuqur ilmiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash maqsad qilingan. Xalqaro tajribada dunyoning yetakchi hamda tan olingan aksariyat oliy ta'lim tashkilotlari ham davlat nazorati ostida emas, balki *public* hamda *private* tarzda faoliyat olib borishini ko'rish mumkin [11, 123-b.].

Albatta, ta'lim bozorida sog'lom raqobat bo'lgani yaxshi, biroq muammo ko'lami boshqa tarafda. Yuqorida qayd etgan statistik raqamlardagi nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi ta'lim berishmi yoki foyda olish maqsadida sirtqi ta'limni rivojlantirishmi degan savollar tug'iladi. To'g'ri, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda oliy ta'lim tashkiloti ustavida ta'limning shakllari va turlari ko'rsatilishi, bunga cheklovlar yo'qligini ko'rish mumkin. Lekin e'tibordan chetda qolgan boshqa masalalar ham bor.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-sonli qarorida tahsil olayotgan talabalar soni o'quv binolarning ikki barobaridan ortib ketmasligi belgilab qo'yilgan. Biroq davlat organlari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarga ko'ra, 67 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotining 28 tasida (masalan, Toshkent iqtisodiyot va

pedagogika instituti o'quv binosi quvvati 2 500 nafar bo'lgan holda ta'lim olayotgan talabalar soni 9 524 nafar) talaba soni belgilangan talabdan 2-3 baravar yuqoriligi, 10 tasida sirtqi ta'lim ulushi 90 foizdan balandligi (masalan, IT Park Universityda 100 foiz yoki Ipak yo'li innovatsiyalar universitetida 99 foiz) asosiy sabab esa kam xarajat sarflab, sifatli ta'lim emas, yuqori daromad qilish maqsad qilingani ko'rsatilgan. Chunki sirtqi ta'lim shaklida ta'lim oluvchilar asosan yilda ikki marta universitetlarga kelishadi va to'langan kontrakt summalari asosan ta'sischi uchun foyda bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari yuridik shaxs, ya'ni tadbirkorlik subyekti bo'lganligi, ularga nisbatan Soliq kodeksining 234-moddasi va bir qator tegishli moddalari bilan ta'lim xizmatlarini ko'rsatayotgani uchun soliq imtiyozlari (mol-mulk, yer va foyda) taqdim etilgan. Shu tufayli tahsil olayotgan talabalar tomonidan to'langan pul nazorat qilinmasligi va soliqqa tortilmasligi oqibatida pul oqimlarining o'rtacha 50–70 foizi (har bir nodavlat OTMda farq qiladi) ta'lim xarajatlariga, qolgan qismi esa ta'sischi larning boshqa korxonalariga yordam tariqasida o'tkazilishi kuzatilmoqda.

Shuni ham qayd etish lozimki, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan litsenziya talablariga rioya qilinmaganligi oqibatida *public.sud.uz* sayti ma'lumotlarga ko'ra, 5 ta: NAMXU, Binari, Turkiston yangi innovatsiyalar, Valley innovative university va Rensissance universitetlarining litsenziyalari iqtisodiy sudlar tomonidan bekor qilingan.

AQSh va Yevropaning qator davlatlarida oliy ta'lim tashkilotlarini litsenziyalashga nodavlat tashkilotlari tomonidan talab va shartlar 6 oydan 1 yilgacha o'rganilib (O'zbekistonda 30 kun), xizmatning majburiy sharti sifatli ta'lim berish sifatida belgilanadi hamda litsenziya 10 yilgacha beriladi (O'zbekistonda muddatsiz) [12–14, 120-b.]. Shu bilan birga,

davlat oliy ta'lim tashkilotlariga talabalarni qabul qilish aniq mezon va talablar asosida belgilangan muddatlarda qabul qilinsa, nodavlat OTT uchun talabalarni qabul qilishning yagona tartibi belgilanmagan.

Yaponiya tajribasini hisobga olgan holda xususiy ta'lim departamentini joriy etish zarur. Yaponiya boshqaruv tizimida [15, 52-b.] xususiy ta'lim departamentining asosiy maqsadi xususiy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va ochish uchun litsenziyalar berish, ular uchun boshqaruv tizimini ishlab chiqish va professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirishdan iborat. Departamentning ichidagi maxsus bo'lim xususiy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi va bir guruh maslahatchilar xususiy ta'lim sohasidagi tadbirkorlikni boshqaradi. Faqat xususiy ta'lim sektori uchun mas'ul bo'lgan alohida ijro etuvchi organning joriy etilishi boshqaruv samaradorligini oshirishga va hozirda faoliyat yuritayotgan davlat organlari yukini kamaytirishga yordam beradi.

Oliy ta'lim sohasidagi ma'muriy islohotlar bo'yicha faqatgina natijalarga erishish emas, balki sifatli ta'limni ham kafolatlash maqsadida:

- nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga sirtqi ta'lim shakli uchun ma'lum kvotalarni joriy etish;

- litsenziya talablari asosida pul oqimlarini boshqa korxona va firmalarga yordam tariqasida o'tkazmasdan ta'lim yoki oliy ta'lim tashkilotining boshqa ehtiyojlariga sarflashni belgilash;

- nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tadbirkorlik subyekti bo'lgani sababli ularga soliq sohasida taqdim etilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish orqali tartibga solish lozim.

Buning natijasida normalarning ta'sir mexanizmini aniq ta'minlaydigan, huquqiy munosabatlar subyektlarining huquq va majburiyatlarini aniq hamda tushunarli belgilaydigan, ularni ta'minlash choralarini aniq shakllantiradigan harakat samarali, ta'sirli bo'ladi [16, 120-b.].

Dunyo tajribasidan kelib chiqib hamda oliy ta'lim sohasidagi ma'muriy islohotlarning hozirgi bosqichida, shuningdek, 2030-yilga qadar oliy ta'lim tashkilotlarining akademik boshqaruvini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy boshqaruv jihatdan mustaqilligi haqidagi Lima deklaratsiyasida ham akademik erkinlik universitetlar va boshqa tashkilotlarga yuklangan ta'lim, tadqiqot, ma'muriy va xizmat funksiyalarini bajarishning muhim sharti ekanligi qayd etilgan [17, 6-b.].

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat boshqaruvi deganda jamiyat ishlarini, shu jumladan, oliy ta'lim sohasini ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ijro-topshiriq va ma'muriy-nazorat faoliyatining tegishli shakli orqali boshqarish tushuniladi. Davlat boshqaruvi aniq belgilangan tashkiliy, muvofiqlashtiruvchi va ma'muriy xususiyatga ega.

N.I. Bulayev ta'limda davlat boshqaruvi alohida kategoriya sifatida belgilaydi va uni davlat ta'lim organlari tomonidan ta'lim tizimiga amaliy, tashkil etuvchi va tartibga soluvchi ta'sir sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, davlat ta'lim siyosatining asosiy strategik yo'nalishlarini amalga oshirish uchun ta'lim tizimining faoliyatini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning moliyaviy, iqtisodiy hamda kadrlar mexanizmlari mavjud bo'lishi talab etiladi [18, 6-b.].

Bizning fikrimizcha esa oliy ta'lim tizimini boshqaruvchi davlat boshqaruv organi faqatgina muvofiqlashtirish orqali nazorat olib borishi, turli idoralarning takroriy funksiyalarini bekor qilish va natijada ularning vakolatlarini tizimlashtirish, bo'ysunishning vertikal mexanizmini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish orqali muvofiqlashtirish davlatdagi ta'lim tizimini yaxshilaydi. Shu-

ningdek, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimini ma'muriy-huquqiy tartibga solish tamoyillarini Singapur misolida [19, 1470–1475-b.] tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Singapurda raqobat ta'lim tizimidagi muhim prinsip va yetakchi mexanizm hisoblanadi. Sog'lom raqobat nafaqat ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat doirasida, balki ta'lim sohasidagi mansabdor shaxslar, muassasa rahbarlari ishining samaradorligi doirasida ham rivojlangan. Ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatli shaxsning aniq modeli, shu jumladan, muassasa darajasida ham boshqaruv xodimlarining o'zi va bu sohada rahbarlar darajasida ma'lum kasbiy vakolatlar to'plami ishlab chiqiladi, keyin moliyaviy rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan mezonlar ko'rsatiladi, bu bizga ish samaradorligining aniq va obyektiv ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuning uchun qonunchilik darajasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasi rahbariyatining vakolatlari to'plamining milliy modelini ishlab chiqishimiz, u yoki bu darajadagi vakolatlarga egalikni baholash bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qilishimiz, shuningdek, rahbarlarni rag'batlantirishning o'ziga xos shaffof mexanizmini ishlab chiqishimiz zarur.

Ta'lim xizmatlarining nodavlat manbalarini jalb qilish mexanizmlarining ishlab chiqilishi tizim ichidagi raqobatning kuchayishiga va oliy ta'lim berish imkoniyatlarining ortishiga olib keladi. Davlatning roli faqat huquqiy tartibga solish, ya'ni muvofiq-lashtirish bilan cheklangan bo'lishi kerak. Oliy ta'limda nodavlat sektori rivojlanishining shubhasiz afzalligi shundaki, xususiy ta'lim tashkilotlari mijoz kompaniyalar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin, bu xususiy ta'lim tashkilotining reytingini va uning ta'lim xizmatlari bozoridagi obro'sini oshiradi.

Ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etishda ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining huquqlari, sha'ni, qadr-

qimmati va ishbilarmonlik obro'si davlat tomonidan himoya qilinadi. Ushbu konsepsiyada islohot bir necha jihatlarni qamrab oladi, fikrimizcha, eng muhimlaridan biri "Universitet 3.0" modelini joriy etishdir.

Ushbu konsepsiyaning paydo bo'lishi iqtisodiy xarakterdagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Sanoat ishlab chiqarish sektorining iqtisodiy ustunligi o'tmishga aylanib bormoqda. O'sishning asosiy omili endi iqtisodiyotning intellektual mulkni yaratish va boshqarish qobiliyati bo'lmoqda va universitet bu yangi voqelikning asosiy bo'g'inidir.

Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, dunyodagi barcha universitetlar 3.0 formatiga o'tmoqda, bu yerda o'qitish uchun faqat ilmiy asos yetarli emas. Zamonaviy model o'quv jarayoni, tadqiqot va tahlil, dizayn ishlanmalari va innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liq. Shunga asoslanib, aynan iqtisodiyotga bo'lgan ehtiyoj mamlakatdagi oliy o'quv yurtlarining huquqiy maqomini o'zgartirishning hal qiluvchi mezoniga aylanadi degan xulosaga kelish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatadigan universitet moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qiladi, jamiyat va davlat institutlariga qaramligi kam, ijodkorlik qo'llab-quvvatlanadi, faoliyatning turli sohalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qodir raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlaydi, yangi bilimlarni yaratadi va uni kapitallashtiradi, o'zgaruvchan talablarga tezda moslasha oladigan moslashuvchan tashkiliy tuzilishga ega, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish maqsadida o'qituvchilar va talabalar tomonidan yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantiradi, yangi bilimlarni ko'paytirishning to'liq siklini (g'oyalarni ishlab chiqarishdan innovatsiyalarning prototiplarini yaratishgacha) amalga oshiradi, ta'lim, fan, biznesning integratsiyasiga yordam beradi va shu bilan kompaniyaning innovatsion rivojlaniishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi, mamlakat innovatsion hududiy klasterini rivojlantirish markaziga aylanadi.

“Universitet 3.0” modeli fan va biznesning o‘zaro ta’siri uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ushbu universitet modeli faoliyatining natijasi universitet va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni kuchaytirishi kerak, bu esa mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, davlat xususiy ta’limga asoslangan innovatsion, ijodiy va tarmoq universitetlarini yaratishi kerak. Ushbu universitetlar o‘rtasidagi farq quyidagicha:

- innovatsion universitet, bu yerda universitet mamlakatning iqtisodiy o‘rishini ta’minlashga qaratilgan bilimlarni ishlab chiqaradigan korxona vazifasini bajaradi. Bu talabalarni mamlakatning iqtisodiy faoliyatiga jalb qilish orqali iqtisodiy rahbarni tarbiyalashga yordam beradi. Bunday universitetni yaratish natijasida mamlakatga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun asos bo‘ladigan biznes vujudga keladi hamda shu orqali xalqaro va ilmfan o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik o‘rnatiladi.

- ijodiy universitet asosiy maqsadi kelajak shaxsini tarbiyalashdir, bu yerda ta’limning asosi individual o‘quv dasturlarini shakllantirish va ilmiy faoliyat olib borish orqali ta’limning ijodiy usullariga tayanadi. Bunday universitetning paydo bo‘lishi natijasida mobil kadrlarni tayyorlash, shuningdek, davlatning fuqarolik va ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish mumkin.

- tarmoqli universitet, ta’lim oluvchilar va professor-o‘qituvchilarning yuqori akademik harakatchanligini ta’minlaydigan turli virtual va o‘quv dasturlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ya’ni “Universitet 3.0” modelini to‘liq amalga oshirish uchun biz taqdim etgan barcha turdagi universitetlar birgalikda bo‘lishi kerak, shu orqali ushbu modelning asosiy maqsadi – universitet yutuqlarini targ‘ib qilish bilanadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishga erishiladi.

Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, dunyoda kelajak haqida bilim berish vazifasini amalga oshiradigan “Universitet 4.0” ham jadal rivojlanmoqda. Ushbu format

yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanmoqda, uning asosiy vazifasi – bilimlarni kapitallashtirishdir. Kollektiv fikrlash texnologiyalashtirish harakatlarining ustuvor obyektiga aylanmoqda.

“Universitet 4.0” yangi sifat parametrlari bilan mehnat resurslariga bo‘lgan mehnat bozori talabining dinamikasini aks ettiradi, shuning uchun muntazam ko‘nikmalar kamroq talab va malakaga ega bo‘ladi, motivatsiya, qiziqish va konstruktiv shaxslararo muloqot qobiliyati ko‘proq talabgirdir.

Ushbu modelning asosiy xarakteristikasi ta’limning klassik modellari va axborot uzatishning chiziqli usulini bosqichmbosqich almashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish bo‘lib, bu talabalar va professor-o‘qituvchilarning iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga olib keladi. Bunday konsepsiyani amalga oshirish natijalari professor-o‘qituvchilar tarkibini yangilash va ularning malakasini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish orqali universitetlarning iqtisodiy mustaqilligiga erishishdir. Ta’lim markazini rivojlantirishning asosiy maqsadi dunyoning yetakchi universitetlarini hamkorlikka jalb qilish, shuningdek, mamlakatda xalqaro standartlarga javob beradigan ta’lim olishga intilayotgan talabalarni saqlab qolishdir. Ushbu siyosatni amalga oshirish jarayonida ta’lim markazlari bilimlarni tarqatish tarmog‘ini shakllantirishga turtki berishi mumkin, bu mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Boloniya jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan akademik harakatchanlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning Boloniya jarayoniga istiqbolli kirishi nafaqat davlat doirasida yuqori ma’lumotli raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni, balki xalqaro talablarga javob beradigan kadrlar bozorining mavjudligini ham kafolatlaydi. Bugungi kunda davlat akademik harakatchanlikni amalga oshirishda:

– olingan baholar (kreditlar) va diplomlarni tan olish zarur, bunda *European Credit Transferand Accumulation System* (ECTS) asosida to'liq tan olinish nazarda tutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, konsepsiyada kredit modulli tizimining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qayd etilgan. Ayni paytda kredit-modul tizimini barcha universitetlar uchun joriy etish rejalashtirilgan;

– chet ellik hamkorlarning mavjudligi va izlanishlarda akademik harakatchanlikni rivojlantirish uchun xalqaro sheriklar bilan aloqalarni o'rnatish kerak, bu ularni qidirish, aloqa seminarlarini tashkil etish va xalqaro ta'lim ko'rgazmalarida qatnashish orqali o'rnatilishi mumkin;

– hozirgi vaqtda til muammosi dolzarbdir, chunki samarali akademik almashinuv uchun chet tillarini bilish zarur. Bunda Singapur tajribasini ta'kidlash joizki, ta'lim siyosatini amalga oshirishda muvaffaqiyat malay milliy til ekanligiga qaramay, asosiy til sifatida ingliz tilini o'rganish muhim rol o'ynadi. Ikki tillilikni joriy etish Singapur ta'lim tizimining asosiy elementi hisoblanadi, ya'ni ingliz tili aloqa va o'rganishning asosiy tili hisoblanadi va u milliy tillar bilan birga o'qitiladi. Ya'ni o'rta maktab bitiruvchilari kamida ikki tilda – ona tili va ingliz tilida gaplashishlari kerak. Shu bilan birga, o'rta maktab darajasida o'quv dasturiga fransuz, nemis, yapon yoki xitoy tillariga aylanadigan fakultativ fanlar sifatida uchinchi til qo'shiladi. Shunday qilib, singapurlik talaba xalqaro universitetlarga o'qishga kirgandan so'ng ikki yoki uch tilda muloqot qilish va o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Universitetda o'qish paytida til ko'nikmalarini egallamaydi, balki ularni rivojlantiradi va yangi tillarni o'zlashtiradi. Bu yechim ta'limda jahon intellektual mulkidan tahlil qilish uchun foydalanish imkonini berdi. Shu bilan birga, akademik almashinuv uchun ko'plab imkoniyatlar ochildi, bu esa mamlakatda raqobatbardosh, yuqori bilimli kadrlar ta'limini yanada rag'batlantirishga yordam berdi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash uchun Singapur misolida o'zbek tili bilan bir qatorda ingliz tilida o'qitish darajasini oshirish, zarur hollarda ularni millatlararo muloqot tillari sifatida qonuniy mustahkamlash, shuningdek, fanlarni o'quv jarayonida majburiy etib belgilash muhimdir, bu mamlakatda ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Biz akademik harakatchanlik strategiyani amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan ta'limni internatsionallashtirish konsepsiyasi va Milliy dasturini ishlab chiqishni zarur deb bilamiz. Fikrimizcha, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun konsepsiyada oliy ta'lim tashkilotlarida ta'limning til siyosatini aks ettirish; talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik harakatchanlikni yanada qulayroq qilish, xorijiy mamlakatlar (Kanada va AQSh misolida) tajribasini o'rganish orqali harakatchanlik terminologiyasi va metodologiyasini shakllantirish, me'yoriy mustahkamlash zarurdir.

Shunday qilib, internatsionallashtirish jarayoni talabalarga xalqaro standartlarga javob beradigan yaxshiroq ta'lim xizmatlarini olishni kafolatlaydi; o'qituvchilar uchun bu butun dunyo olimlari va o'qituvchilari tomonidan yaratilgan bilimlarni olish, shuningdek, global ilmiy makonga bepul kirish va faol ishtirok etish imkoniyatidir. Bu bilimlarni shakllantirish va almashish ularning raqobatbardoshligi oshiradi; tadqiqotchilar va doktorantlar nafaqat mintaqaviy tajriba almashish doirasida, balki jahon miqyosida ham ilmiy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida qayd etilgan xorijiy mamlakatlarning milliy qonunchiligi va olimlarning ilmiy ishlarida ma'muriy islohotlar davrida oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirishning ahamiyati, ta'lim sohasi davlatning har tomonlama rivojlanishi asosi ekanligi, ma'muriy islohotlar davrida sohada erishilgan natijalar, mavjud ba'zi muammolar va ularni hal etish mexanizmlarini milliy va xo-

rijiy tajribani ma'muriy-huquqiy nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish asosida qator ijobiy jihatlarni ko'rsatib o'tish lozim. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanishida xususiy oliy ta'lim tashkilotlari nafaqat milliy kadrlarni yetishtirish, balki turli sohalarida tadqiqot olib borish, izlanishlar natijalarini daromad keltiruvchi tarmoqlarga aylantirish va raqobat muhitini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy erkinligini ta'minlashning noan'anaviy metodlarini qo'llash, ya'ni investitsion fondlarni (bugungi kunda Yevropa mamlakatlari, xususan, AQSh va Buyuk Britaniyada ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohalarida ushbu fondlar keng faoliyat yuritadi) rivojlantirish moddiy-texnik bazani kuchaytirishga, moliyaviy mustaqillikni kengaytirishga yordam beradi, reytinglarni tuzishda tushumlar mezonidan foydalaniladi.

Sohaviy va sohalararo mutaxassisliklar bo'yicha xususiy oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ta'lim sohasini tijoratlantirish zarur. Bunda tijorat tashkilotlariga xususiy OTTlarni ro'yxatdan o'tkazishning va ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalashning aniq qoidalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim tashkilotlari soni va sifatini oshirish orqali qabul sonini oshirish hamda bosqichma-bosqich qabul kvotalarini bekor qilish, oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar sonini belgilashni ta'lim tashkilotining ixtiyoriga qoldirish uchun sharoit yaratish zarur. Barcha turdagi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etishda davlatning ishtiroki asosan ulari faoliyatini huquqiy tartibga solish, umumiy ta'lim siyosatini belgilab berish bilan cheklanishi lozim.

Bugungi kunda xorijiy universitetlar filiallarini ochishdagi mavjud tartib va ularning tashkiliy-huquqiy shaklini inobatga olib, xalqaro tan olingan ta'lim muassasalari reytingida birinchi 300 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy universitetlar filiallarini

ochishning soddalashtirilgan tartibotini joriy qilish, shuningdek, ularga ochilgan davridan boshlab 10 yil davomida turli soliq imtiyozlarini taqdim etish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati va o'quv dasturlarini belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini bekor qilish taklif qilinadi. OTTlarga real ehtiyojdan kelib chiqqan holda o'z o'quv dasturlari va ta'lim standartlarini mustaqil belgilash huquqini berish zarur.

Xalqaro miqyosda yetakchi nufuzga ega bo'lgan universitetlar filiallari majmuasidan iborat bo'lgan erkin iqtisodiy zonani va bu orqali Markaziy Osiyoda yetakchi innovatsion markazni tashkil etish mamlakatimizda ilmfanni rivojlantirish uchun qo'yiladigan katta qadam bo'lardi. Shu sababli Toshkent viloyati hududida o'zida ishlab chiqarish, qayta ishlash va ta'lim berish jarayonlarini qamrab oluvchi xususiy universitetlar yoki xorijiy universitetlar filiallarini tashkil qilish, oliy ta'lim tizimida *education hub* tashkil qilish orqali ushbu hududga erkin iqtisodiy zona maqomini berish taklif qilinadi.

Xulosalar

Oliy ta'lim tashkilotlarining maqomini kuchaytirish ma'muriy-huquqiy munosabatda va ma'muriy islohotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasida birinchi navbatda ommaviy sohada faoliyat yuritadigan ijtimoiy institutlarning ochilishiga imkon beradi. Ularning roli davlat ta'lim siyosatida ularga yuklatilgan vazifalarning ahamiyatini ochib berish bilan belgilanadi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida va ma'muriy islohotlar davrida oliy ta'lim sohasini isloh qilish, oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy boshqaruvini takomillashtirish har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini va qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish imkonini ham taqdim etadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi [Address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Qodirov B.B. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal basis of personnel training in the higher education system in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2019, p. 26.
3. Djurayev I.B. Oliy ta'lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish [Improvement of the prosecutor's control over the implementation of legislation in higher education institutions]. Tashknet, 2021, p. 279.
4. Tursunova M.U. Xalqaro huquqiy standartlar negizida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal foundations of the education system of the Republic of Uzbekistan on the basis of international legal standards]. Tashkent, 2022, p. 50.
5. Boqiyev J.N. O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish oliy ta'lim misolida [Improving the organizational and legal foundations of education in the conditions of digitization in Uzbekistan is an example of higher education]. Tashkent, 2024, p. 48.
6. Elmurodov E.Sh. O'zbekistonning oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatida Yaponiya tajribasini qo'llash yo'llari [Ways of applying the Japanese experience in Uzbekistan's state policy in the field of higher education]. Tashknet, 2023, p. 25.
7. Alberto A. Federal States, States and Local Policiyes in Higher Education. *The International Encyclopedia of Higher Education Systems and Institutions*, 2020, pp. 431–436. DOI: 10.1007/978-94-017-8905-9
8. Sharpe M.E. USA Education system. *International education an encyclopedia of contemporary issues and systems*. New-York, 2013, p. 747.
9. Xo'jayev A.S. Oliy ta'lim muassasalarini tadbirkorlik faoliyati – budjetdan tashqari mablag'larning muhim asosi sifatida [Entrepreneurial activity of higher education institutions as an important basis of extra-budgetary funds]. *Economy and Education*, 2021, no. 16, pp. 205–206.
10. Salmi J. Tertiary education in the 21st century. Challenges and opportunities. *Journal of the Programme on Institutional Management in Higher Education*, 2001, vol. 13 (2), pp. 105–125.
11. Ulrich K. Organization and procedures for funding higher education in the federal republic of Germany. *Higher Education in Europe*, no. 10/1, pp. 114–123. DOI: 10.1080/0379772850100117
12. Karsten M. Rethinking governmental licensing of higher education institutions. A Bibliometric Review based on Scopus. *European Journal of Law and Economics*, 2008, no. 25, pp. 57–78. DOI: 10.1007/s10657-007-9036-4.
13. Barbara B. US Accreditation and Quality Assurance, International Dimensions. *The International Encyclopedia of Higher Education Systems and Institutions*, 2020, pp. 2733–2736. DOI: 10.1007/978-94-017-8905-9
14. Beales H. Licensing and certification systems. In P. Newman (Ed.). London, Macmillan. *The New Palgrave Dictionary of Economics and the Law*, 1998, vol. 2, pp. 578–581.
15. Masahiro H., Yuko K. Independent administrative institution: innovation of public organizations in Japan. *Public Organizations in Japan*, 2 *Int'l J. Civ. Soc'y L.*, 2004, p. 52.
16. Kirilovych A.A. Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida [Higher education organizations as subjects of administrative law]. 2013, p. 30.
17. The Lima declaration on academic freedom and autonomy of institutions of higher education.
18. Bulayev N.I. Oliy ta'lim sohasida ta'limni davlat tomonidan nazorat qilishning o'ziga hos jihatlari [Specific aspects of state control of education in the field of higher education]. Moscow, 2022, p. 30.
19. Jason Eng Thye Tan. *Higher Education Systems and Institutions*, Singapore. *The International Encyclopedia of Higher Education Systems and Institutions*, Springer Nature. 2020, pp. 1470–1475.

Kelib tushgan / Получено / Received: 01.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./NVAC4271

UDC: 346.62+336.71(045)(575.1)

BANK TIZIMINI TASHKIL ETISH BO'YICHA AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Mustanov Ilxom Abdivalijonovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0000-0203-2776

e-mail: ilxomabdivalijonovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliya tizimi tarkibi sifatida bank tizimi, turlari, bank prinsiplari va vazifalari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotdan maqsad ilmiy o'rganish natijasida bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Banklar moliya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Moliya tizimi moliyaviy munosabatlarni bank-kredit siyosati va qonunchiligi asosida tartibga soladi. Banklar moliyaning alohida tizimi sifatida faoliyat yuritadi, xususan, birinchi bo'g'inda tijoratchi banklar hamda nobank tashkilotlari, ikkinchi bo'g'inda mazkur tashkilotlarni nazorat qiladigan Markaziy bank namoyon bo'ladi. Markaziy bank, tijorat banklari, shu'ba, chet el ishtirokidagi va chet el banklari yagona bir tizimni tashkil qiladi. Bank tizimi o'zaro nazorat, bo'ysunish va yagona tashkiliy tuzilmani anglatadi. Shu sababli banklar tizimi doirasini aniq belgilash muhim hisoblanadi. Maqolada mazkur masalalarni milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, tarixiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy, statistik hamda boshqa usullar yordamida o'rganish orqali milliy qonunchilikda bank tizimi, prinsiplari tushunchasi ishlab chiqilgan, shuningdek, bank qonunchiligiga doir takliflar berilgan. Mazkur takliflar ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, bank qonunchiligi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda qo'llanadi. Tijorat banklarining maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, ular shu maqsadda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini kreditlaydi hamda moliyalashtiradi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, bank faoliyati maqsadi, Markaziy bank, bank faoliyati prinsiplari, bank ishi, bank vazifalari, bank turlari, bank filiali.

ОПЫТ ОТДЕЛЬНЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ОРГАНИЗАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Мустанов Илхом Абдивалижонович,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. В данной статье автор проанализировал банковскую систему, виды банков, принципы банковского дела и функции банков как структуры финансовой системы. Целью данного исследования является выработка предложений и выводов по результатам

исследования, направленных на совершенствование банковской системы. Банки являются неотъемлемой частью финансовой системы. Финансовая система регулирует финансовые отношения, опираясь на банковско-кредитную политику и законодательство. В качестве обособленной структуры всей финансовой системы выступают банки, в частности, на первом её уровне – коммерческие банки и небанковские организации, на втором – Центральный банк, контролирующий эти организации. Центральный банк, коммерческие банки, дочерние банки, банки за рубежом и иностранные банки образуют единую систему. Банковская система означает взаимный контроль, подчинение и единую организационную структуру. Поэтому важно чётко определить сферу деятельности банковской системы. Посредством сравнительного анализа национального законодательства и законодательства зарубежных государств, историко-правового, системного, логического, статистического и иных методов исследования этих вопросов разработаны понятия и принципы банковской системы и предложения для совершенствования национального банковского законодательства. Данные предложения могут быть использованы в научной деятельности, законотворчестве, правоприменительной практике, толковании норм и совершенствовании национального законодательства.

Ключевые слова: банковская система, цели деятельности банка, Центральный банк, принципы деятельности банка, банковское дело, банковские функции, типы банков, филиал банка.

THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES ON THE ORGANIZATION OF THE BANKING SYSTEM: A COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

Mustanov Ilkhom Abdivalijonovich,

Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the author analyzed the banking system, types of banks, principles of banking, and the tasks of banks as part of the financial system. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at improving the banking system as a result of the study. Banks are an integral part of the financial system. The financial system regulates financial relations on the basis of banking and credit policies and legislation. Banks act as a separate system of the financial system; in particular, commercial banks and non-banking organizations are represented in the first level, and the central bank that controls these organizations is represented in the second level. The Central Bank, commercial banks, subsidiaries, foreign banks and foreign banks form a single system. The banking system means mutual control, subordination, and a single organizational structure. It is therefore important to clearly define the scope of the banking system. By studying these issues through a comparative analysis of domestic and foreign legislation, historical, legal, systemic, logical, statistical, and other methods, the concept of the banking system and the principles of national legislation, as well as proposals for banking legislation, were developed. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement, interpretation of banking legislation, and improvement of national legislation. The goal of commercial banks is to make a profit, and for this purpose they lend and finance production and services.

Keywords: banking system, purpose of banking, central bank, banking principles, banking, banking functions, types of banking, bank branch.

Kirish

Dunyoda banklarning normal faoliyatini ta'minlash orqali davlatning bank-kredit tizimini barqarorlashtirish, bank faoliyatini zamonaviylashtirish yo'li bilan esa valyuta va narx barqarorligini ta'minlash tobora

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Banklar o'z funksiyasini normal amalga oshirishida bank siyosati va qonunchiligini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. *The Heritage Foundation* xalqaro tadqiqot institutining 2024-yilgi tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekiston Res-

publikasi iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha dunyoda 103-o'rinni egalladi. Xususan, bu indeks bo'yicha Qozog'iston – 66-, Qirg'iziston – 112-, Tojikiston – 137-, Turkmaniston – 162-, Estoniya – 8-, Litva – 15-, Gruziya – 32-, Latviya – 20-, Armaniston – 47-, Rossiya – 131-, Moldova – 99-, Belarus Respublikasi – 153-, Ozarbayjon 70-o'rinlarni egalagan. E'tiborlisi, Jahon bankining *Doing Business-2020* indeksining kredit olish reytingida O'zbekiston Respublikasi 67-o'rinni egalladi. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatini xalqaro standartlar asosida zamonaviylashtirish va bank faoliyatiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda bank faoliyatining zamonaviy usul va vositalarini qo'llash orqali tadbirkorlik hamda ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni joriy qilishga keng ahamiyat berilmoqda. Jumladan, xalqaro bank standartlarini milliy qonunchilikka doimiy implementatsiya qilish, banklar faoliyatiga qo'yilgan minimum talablarga javob berish, Markaziy bank tomonidan belgilangan normativlarga maksimum qat'iy amal qilish, bank operatsiyalarining zamonaviy turlarini joriy etish, bank mijozlariga qulay va sifatli bank xizmatlarini taklif etish hamda bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda manfaatlarni himoya qilish masalasiga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga egaligi, 151-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iborat ekanligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda banklar yagona va bir tizimga birlashtirilgan. Banklar har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, banklar ham turlarga bo'linadi. Ularning jamlanmasi

esa bitta tizimni tashkil etadi. Avvalambor, bank tizimi tushunchasiga to'xtalib o'tsak, mazkur masalaga olimlarimiz turlicha yondashadilar.

Banklar tizimi milliy va xorijiy olimlar, xususan, O. Raximova, Sh. Bozarov, E. Xojiyev, A.M. Hamidov, A. Zulyarov, O. Axmadjonov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A.A. Omonov, T.M. Qoraliyev, A. Abduraxmanov, M. Umarova, O. Sattarov, Adik Li, G.F. Ruchkina, Y.N. Polyushko, M. Miradova, A.O. Venina, E.R. Kadirgulova, A.D. Bunin, M.P. Morozova, Y.P. Ogorodnikova, Y.A. Kasheyeva, L.T. Yefimova, N.D. Eriashvili, G. Tosunyan, N.Y. Yerpileva, Alfred M. Pollard, Raymond Natter va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramasdan, ushbu tizimni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish lozim bo'ladi.

Material va metodlar

O'zbekistonda bank tizimining huquqiy asoslarini normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlarda qonunchiligi va amaliyoti hamda bank huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O. Raximova va Sh. Bozarovlar bank tizimi respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar yig'ini va ular o'rtasidagi munosabatlar asoslari ekanini ta'kidlashadi. Shuningdek, ular bank tizimi tushunchasiga miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari banklar o'rtasidagi o'zaro ko'rsatkichlarni, munosabatlarni amalga oshirish tartibini ham kiritishadi. Ularning aytishicha, bank tizimi bank tashkilotlarining oddiy yig'ini emas, balki ular o'rtasidagi bog'liqlar va qaramliklardir [1, 19-b.].

Shuningdek, iqtisodchi olim M. Umarova bank tizimi moliya bozorining asosiy

bo'g'inlaridan biri ekanini, uning rivojlanishi, bir tomondan, mamlakat moliya sektori rivojlanishiga turtki bo'lsa, ikkinchi tomondan, real sektorni moliyalashtirish natijasida ishlab chiqarish obyektlari faoliyatining rivojlanishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelishini ta'kidlaydi [2, 13-b]. Iqtisodchi olim O. Sattarovning ta'rifiga ko'ra, bank tizimi yaxlit va evolyutsion tizim bo'lib, faqat banklar faoliyatiga oid bo'lgan o'zaro bog'liq tashkiliy-uslubiy, funksional va tartibga solish-nazorat elementlarining yig'indisidir [3, 27-b].

G.F. Ruchkina esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida ushbu institutlardan iborat bank, moliya va kredit tizimi mavjudligini ta'kidlaydi: Markaziy bank; bank (tijorat, jamg'arma, ipoteka va boshqalar) hamda bank bo'lmagan kredit tashkilotlari (hisob-kitob, kliring va boshqalar); ixtisoslashgan bankdan tashqari kredit-moliya institutlari (sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqalar) [4, 14-b.]. Adik Li bank tizimi deganda u yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui tushunilishini aytadi.

"Bank tizimi" tushunchasi bilan birga, nisbatan keng ma'nodagi "bank-kredit tizimi" tushunchasi ham mavjud bo'lib, u ilmiy va o'quv adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. Qayd etilgan ushbu tushunchalar o'rtasidagi farq shundan iboratki, gap bank-kredit tizimi haqida ketayotgan bo'lsa, unga banklardan tashqari, ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari, masalan, sug'urta, investitsiya va boshqa institutlar ham kiritiladi, lekin ular ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirsa ham, bank maqomiga ega bo'lmaydi [5, 533-b.].

Fikrimizcha, moliya-kredit tizimi kengroq tushuncha bo'lib, bank tizimini o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda nafaqat banklar, balki nobank va boshqa kredit muassasalari ham ish-tirok etadi.

Shuningdek, Y.N. Polyushkoning fikricha, bank tizimi – bir-biri va tashqi muhit bilan o'zaro bog'liq bo'lgan banklar birlashmasi. Bank tizimiga Markaziy bank va tijorat banklari kiradi. Iqtisodiy tizimning bir qismi bo'lgan bank tizimi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar va aloqalarni aks ettiradi. Bank tizimi kredit tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Kredit tizimiga banklardan tashqari ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari (moliya kompaniyalari, lizing firmalari, investitsiya kompaniyalari, fond birjalari, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, lombardlar, lizing kompaniyalari va boshqalar kiradi [6, 754–758-b.]. Fikrimizcha, kredit tizimi faqatgina kredit berish bilan shug'ullanuvchi subyektlar tizimini anglatadi va o'z navbatida bank tizimidan faqatgina kredit beruvchi nobank tashkilotlarini ham qamrab olishi bilan farqlanadi.

E. Xojiyevning fikricha, kredit va moliya operatsiyalarining asosiy qismini qamrab oladigan kredit tizimining hal qiluvchi bo'g'ini bank tizimidir. Bank bir bosqichli va ikki bosqichli bank tizimiga bo'linadi. Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham yagona bosqichda turadi. Shuningdek, mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishida bir xil vazifani bajaradi. Tuzilishning bunday tamoyili asosan iqtisodiy tuzilmalari sust rivojlangan mamlakatlarga, shuningdek, boshqaruvning totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tartiblari hukm surayotgan davlatlarga xos. Ikki bosqichli bank tizimida banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ikki yo'nalishda, ya'ni bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) tuzilishga asoslanadi. Bo'yiga (vertikal) – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo'g'inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi bo'ysunish munosabatlari, eniga (gorizontal) tuzilishda turli quyi bo'g'inlar o'rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi [7, 256-b.].

Fikrimizcha, banklar tizimi o'zida nafaqat banklardan iborat bo'lgan jamlanmani, balki

yagona maqsad va tashkiliy-bo'ysunuvga asoslangan tizimni ham ifodalaydi. Xususan, A. Hamidovning fikricha, jahon amaliyotida bank tizimining ikki asosiy modelidan foydalaniladi, birinchisi – segmentlangan bank, ikkinchisi – universal bank tizimlari. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi ko'rsatilgan ikkala model xususiyatlarini ham qamrab oladi. Bir tomondan, mamlakatimiz bank qonunchiligi bank faoliyati sohasini qat'iy belgilab, bank operatsiyalarining aniq turlarini belgilab beradi va ularning majmui bank faoliyati mazmunini tashkil etadi. Ikkinchi tomondan, banklarga operatsiyalarning boshqa turlarini ham amalga oshirish uchun ruxsat berilib, ularning ro'yxati qonunda belgilab qo'yiladi [8, 125-b.]. Bu olimning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, bank tizimi o'zida bankka oid markazlashgan qonunchilik tizimini ham ifodalaydi.

E. Xojiyev bank tizimi har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanishini ta'kidlaydi. Undan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya va to'lov balansini tartibga solish kabi joriy va ustuvor vazifalarni hal etishda foydalaniladi. Jahon amaliyotida moliya-kredit muassasalari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar xususiyati bo'yicha kredit tizimining uch muhim elementi ajratiladi; 1) Markaziy bank; 2) tijorat banklari; 3) ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari (sug'urta, jamg'arma va boshqa muassasalar [9, 17-b.]. Olim banklar tizimini kredit tizimining bir qismi sifatida baholaydi.

Shuningdek, A. Zulyarovning fikricha, O'zbekiston Respublikasining bank tizimiga Markaziy bank va unga tobe bo'lgan muassasalar, xususiyy banklar kiradi. Tijorat kooperativ va xususiyy banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarini shartnoma asosida quradi [10, 6-b.]. Olim bank tizimiga Markaziy bankka bo'ysunuvchi boshqa muassasalarni ham kiritadi.

Tamoyillar huquq shakllanishida yo'nalish beruvchi mo'ljal, mezon vazifasini o'taydi [7]. Shu bilan birga, “qonunda mustahkamlangan asosiy g'oyalar” sifatida nafaqat muayyan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinish darajasini belgilaydi, balki qonunchilikning yanada rivojlanishini ham ko'rsatadi [8].

Tahlil obyekti sifatida o'rganilgan yuqoridagi olimlarning fikrlari nazariy jihatdan tamoyillarning tuzilishi, mazmuni, huquqiy jihatlari yordamida amaldagi qonun normalariga ijobiy ta'sirni o'tkazgan deyish mumkin. Albatta, tamoyillar haqida bildirilgan ilmiy konsepsiyalar hamda ular zamin yaratgan maktablar qonun chiqaruvchiga qonunlar arxitekturasini belgilab bergan.

Yillar davomida shakllanib kelgan an'anaviy huquqiy qoidalar har doim jamiyatda paydo bo'lgan yangi munosabatlarga nisbatan ustqurma vazifasini o'tab kelgan. Ma'lumki, biror-bir davrda yillar davomida ishlab kelgan an'anaviy qoidalardan voz kechilmagan hamda ularning mavjud institutlariga asoslangan holda yangi g'oyalar shakllantirilgan. Shu sababli biz ushbu umumiy nazariy asoslarga tayanib xalqaro xususiy huquq tamoyillarini shakllantirishning asosiy yondashuvlarini ko'rib chiqishni maqsad qildik.

Tegishli sohaga oid bo'lgan huquq tamoyillari shu sohasini tashkil etuvchi huquq normalari va qonunchiligi uchun asosiy dastur hisoblanadi. Ya'ni qabul qilinayotgan norma va qonun hujjatlari dastlab tamoyillarga mos ekanligi ko'rib chiqilishi lozim.

Xalqaro xususiy huquq institutlari doirasidagi sohalarning maxsus tamoyillari ustida tadqiqotchilar tomonidan tahlillar amalga oshirilgan va bu borada ilmiy qarashlar bayon qilingan. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat mualliflar ushbu masalani talqin etishda xalqaro xususiy huquq tamoyillariga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish va yo'nalish berishdan qochadilar. Misol uchun, L.A. Luns xalqaro xususiy huquqning maxsus tamoyillari haqida to'g'ridan to'g'ri to'xtalmasdan, xalqaro xususiy huquq va xalqaro huquq tamoyillari o'rtasidagi nisbatga e'tibor qaratish bilan cheklangan [9]. Ba'zilar esa xalqaro xususiy huquq doktorinasi va uning nazariy asoslarining dastlabki tamoyillari haqida [10], ba'zilar xalqaro huquq tamoyillarining xalqaro xususiy huquq uchun ahamiyati haqida fikr yuritadi [11].

Xalqaro xususiy huquq tegishli munosabatlarga nisbatan huquqni qo'llash jaryonida tartibga solish yo'nalishiga qarab o'zining maxsus tamoyillariga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi xalqaro xususiy huquq normalari zahirida uning asosiy yoki maxsus tamoyillari mustahkamlanmagan. Fuqarolik kodeksidagi asosiy tarmoq tamoyillar kodeks tarkibida bo'lgan xalqaro xususiy huquq normalari tamoyillari bilan bir xil degan xulosaga kelmaslik lozim. Qonundagi tamoyillar ham o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda tegishli munosabatlarni tartibga solishda umumiy qoidalarni o'zida namoyon etadi. Shunday qilib, qonun tamoyillari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy konseptual g'oyalar va yondashuvlar majmuasidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Shu vaqtgacha yaratilgan huquqiy adabiyotlar hamda ishlab chiqilgan amaldagi qonunchilik mezonlarida xalqaro xususiy huquqning umumtan olingan va aniq shakllangan tamoyillarining mavjud emasligi ularning huquqiy voqelik sifatida umuman yo'qligini anglatmaydi. Chet el elementi bilan murakkablashgan mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qonunchilik bilan tartibga solish qat'iy mantiqiylik, umumiy qadriyatlar va fundamental g'oyalarga bo'ysunadi. Buni xalqaro xususiy huquq sohasidagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilganda yaqqol sezish mumkin. Shu orqali nazarda tutilgan tamoyillarni aniq ifodalash va aniq shakllantirish mumkin. Tahlil etilayotgan masalalar doirasida zamonaviy xalqaro xususiy huquq tamoyillari tizimi ushbu muammoni hal qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, xalqaro xususiy huquq tamoyillari tizimiga umuminsoniy manfaat va qadriyatlar ustuvorligi kabi ma'naviy-axloqiy qoidalarga asoslangan tamoyillarni kiritish hamda uni amalga joriy etish zarurati mavjud emas. Xususan, kollizion bog'lovchilar tomonidan yo'naltirilgan va te-

gishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarda aynan yuqorida ta'kidlangan tamoyillar majmui mavjud. Xalqaro xususiy huquq tamoyillari esa aynan shu sohaga mos bo'lgan hamda tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi kerak.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning yashin tezligida rivojlanib borishi huquqiy masalalarda ham kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni kun tartibiga qo'ymoqda. Ijtimoiy munosabatlarning raqamlashib borayotganligi, bu borada subyektlar huquqlarini himoya qilish mexanizmining mavhumligi, amal qilish doirasining chegara bilmasligi va nazoratga olib bo'lmaslik holatlari yuridik jihatdan muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Shunga qaramay kiber huquq sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy xalqaro xususiy huquq sohasida ham "lex informatica" tamoyili yangi konsepsiya sifatida ilgari surilmoqda. Huquqiy adabiyotlarda mazkur konsepsiyaning mazmun-mohiyati yuzasidan bir necha ilmiy-nazariy fikrlar bildirib o'tilgan. Uning huquqiy jihatdan yutuqlari va kamchiliklari tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilgan. Biz quyida yangi konsepsiya sifatida ilgari surilgan "lex informatica" tamoyili haqida o'zimizning ilmiy qarashlarimizni bayon qilmoqchimiz. Bu borada tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari bilan birma-bir o'rtoqlashamiz, muhokama qilamiz va o'zimizning subyektiv fikrlarimizni bildiramiz.

Raqamli davrda axborot va ma'lumotlarning to'g'ri boshqarilishi hamda himoya qilinishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarning noto'g'ri boshqarilishi subyektlar faoliyatining samaradorligini pasaytirishi, balki huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli "lex informatica" tamoyili axborot boshqaruvining muhim jihatlarini o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, mazkur yo'l orqali axborotning qonuniy va samarali boshqarilishini ta'minlashga qaratiladi.

“Lex informatica” – elektron ma’lumotlarga asoslangan muhitda amalga oshiriladigan savdo amaliyotini tartibga soluvchi normalar tizimi bo’lib, u “lex mercatoria”ning davomiy va tabiiy o’zgarishlardan hosil bo’lgan qismi hisoblanadi.

Yana bir tadqiqotchining fikricha, “lex informatica” – transchegaraviy elektron tijorat sohasidagi bitimlarga nisbatan qo’llanadigan transmilliy huquqiy normalar va elektron tijorat sohasidagi ishlarning hozirgi holatini hisobga olgan holda funksional qiyosiy-huquqiy tahlilga asoslangan savdo odatlari to’plami bo’lib, uning ishtirokchilari tomonidan ichki foydalanish uchun yaratilgan va ular o’z maqsadlari asosida nizolarni hal qilish uchun hakamlar tomonidan foydalanilishi nazarda tutilgan qoidalar yig’indisidir [12].

Har bir huquqni qo’llovchida “lex informatica” tamoyilining qo’llanishi amaliyot uchun nima beradi degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha, mazkur tamoyil tegishli shartnomalarga nisbatan milliy tartib-qoidalarini tatbiq etish yoki uni bir nechta davlat yurisdiksiyalariga moslashtirishning imkoni yo’qligi bois ko’p hollarda ushbu qoida asosan transchegaraviy elektron tijorat sohasida qo’llanishi maqsadga muvofiq deb talqin qilishadi. Bu orqali mavjud munosabatlarga nisbatan milliy tartib-qoidalarini qo’llash tartibga solish jarayonidan qochishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, xalqaro raqamli munosabatlar bilan bog’liq muammolarni bartaraf etuvchi qonun normalari ishlab chiqish ularni tartibga solish qoidalarini unifikatsiyalashga yo’l ochib beradi. Shu bilan bir qatorda qonunni qo’llash sohasida ijobiy yoki salbiy holatlar haqida oldindan ogohlantirish vazifasini o’taydi [13].

Tadqiqotchi Aron Mefford fikricha, “lex informatica” tamoyilining amal qilish doirasi kiber makondagi savdo amaliyotini va domen nomlaridan foydalanish bilan bog’liq munosabatlarni o’zida mujassamlashtirgan, kela-jakda kelib chiqishi mumkin bo’lgan nizolarni

onlayn hal etishga qaratilgan internet arbitrajlar tizimining joriy etilishi orqali milliy va xalqaro huquq normalarini hamda sud amaliyotining bir-biriga bo’lgan ta’sirini belgilab beruvchi qoidalar yig’indisidir [14].

Tadqiqotchi I.M. Rassolov virtual soha maxsus huquqiy makon emasligi, qonunning asosiy tamoyillarini bu sohaga erkin qo’llash mumkinligi, garchi global tarmoqda qonunni amalga oshirishning ba’zi jihatlari o’ziga xos xususiyatga ega bo’lsa-da, ushbu umumiy tamoyillar fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini teng himoya qilishni kafolatlashini hamda bunday himoya real va virtual makonda milliy hamda xalqaro darajada ham zarurligini ta’kidlaydi [15].

Xohlaymizmi, yo’qmi, “lex informatica” bugungi kunda zamonaviy axborot boshqaruvi hamda xavfsizlikning muhim jihatlari hisobga olgan holda o’ziga xos munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalar yig’indisini o’zida mujassam etib kelmoqda. Har doim ham yaratilgan har qanday yangilik, albatta, turli xil ziddiyatlarga va qarshiliklarga uchrashi zamonlar o’tib o’z isbotini topgan. Shuning uchun ilgari surilayotgan “lex informatica” o’zida axborot xavfsizligi, maxfiylik, foydalanish huquqi, axborotning to’g’riligi va qonuniylik kabi asosiy qoidalarga asoslanishi lozim.

Shu o’rinda nazariy va amaliy jihatdan “lex informatica”ning alohida tamoyil sifatida tan olinishi uchun ehtiyoj juda ham yuqoriligini tan olishimiz lozim. Amaliy jihatdan mazkur tamoyilga rioya qilish orqali yuridik shaxslar ma’lumotlarga asoslangan axborotni samarali va qonuniy boshqarishlari haqida taxmin qilishimiz uchun yetarli asoslar mavjud. Shu bilan birga, “lex informatica”ning tamoyil sifatida tan olinishi ma’lumotlar boshqaruvi sohasida ishonch va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilgan holda jamiyatning raqamli rivojlanishiga hissa qo’shishi mumkin. Kerakli ma’lumotlarning to’g’ri boshqarilishi hamda uning huquqiy jihatdan himo- yalanishi raqamli iqtisodiyotning barqaror

rivojlanishini ta'minlaydi. Biroq "lex informatica" tamoyil sifatida qanchalar nazariya va amaliyot uchun zarur bo'lmasin, an'anaviy tamoyillarga qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

Bugungi kunda "lex informatica" uchun manba sifatida huquqning umumiy tamoyillarini ifodalovchi huquqiy normalar, xalqaro-huquqiy hujjatlar, namunaviy qonunlar, xalqaro va milliy sudlar qarorlari, elektron shaklda amalga oshiriladigan savdo amaliyotini tartibga soluvchi milliy hamda millatlararo hujjatlar, shu bilan birga, odat huquqi normalari va qadriyatlari ham e'tirof etilishi mumkin [16], degan fikrlar ham mavjud.

Fikrimizcha, qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunlarda albatta global tarmoqda mavjud bo'lgan hamda foydalanuvchilar tomonidan yillar davomida ishlab chiqilgan asosiy tamoyillar va qadriyatlar hisobga olinishi kerak. Aks holda amaldagi dunyo qonunlari qanchalik aniq va tushunarli bo'lmasin virtual dunyoda samarali bo'lishi dargumondir.

"Lex mercatoria" tamoyilining cheklangan me'yorlari umumiy qoida sifatida elektron makondagi amaliyotlar bog'lanishidan ajralmagan holda to'g'ridan to'g'ri "lex informatica"ga qo'llanishi mumkin. Bu takomillashishi nazarda tutilgan qonunda va umumiy tamoyillarni o'zida mujassam etgan qoidalarga nisbatan qo'llanadi. Jumladan, ular qatorida shartnomaviy munosabatlarda insofililik, shartnomaning shartlarini vijdonan bajarish tamoyili (pacta sunt servanda), shartnoma yoki uning alohida qoidalarini keyinchalik bajarishni rad etishning qonuniyligi tamoyili (rebus sic stantibus), qonunga zid tarzda tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish tamoyillar va boshqalarni misol keltirish mumkin. Biroq yuqorida qayd etilgan ba'zi umumiy tamoyillar xalqaro ijtimoiy hamda savdo munosabatlarida elektron muhitda o'ziga xoslikka ega bo'lishi, shuning uchun alohida asoslashni talab qilishi mumkin.

Biz "lex informatica" tamoyilini ishlab chiqish, uning huquqiy mezonlari nimalarga asoslanishi hamda uni xalqaro shartnomalarga tatbiq etish masalalari, davlatlarning qonun normalariga singdirish va uyg'unlashtirishga doir norma ijodkorligida xalqaro tashkilotlar o'rni muhim ahamiyatga ega, degan fikrdamiz. Bunda raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi namunaviy qonunlarni ishlab chiqish, birinchi navbatda ma'lumotlar bazasini jamlash va uning huquqiy himoya vositalarini shakllantirish vazifasi turadi. Mavjud ma'lumotlar bazasining qonuniy asosini tan olish bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritish hamda normativ qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan konsepsiyalarni ishlab chiqish ham dolzarblik kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro shartnomalarda elektron kommunikatsiyalardan foydalanish to'g'risidagi konvensiyasi [17] ham keng doirada davlatlarning xohish-istaklarini muvofiqlashtirish natijasidir. U o'zida elektron xabarlarining huquqiy maqomini tan olish, elektron hujjatlar va elektron imzolarning funksional tenglik tamoyili va boshqa shaklga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi moddalarni mujassam etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ko'pgina davlatlar tomonidan imzolangan hamda xalqaro elektron tijoratda qo'llanishi mumkin bo'lgan ushbu konvensiya va "lex informatica" tamoyil onlayn tarzda tijorat nizolarini hal qilishda qo'llanuvchi muhim hujjatga aylanishi mumkin [18]. Ishlab chiqilgan qoidalar tegishli munosabatlar sohasiga taalluqli maxsus huquq normalari bo'lib, elektron muhitda tijorat faoliyatini amalga oshirishning umumiy tamoyillari bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

Hanuzgacha an'anaviy yurisdiksiya kollizion bog'lovchi yordamida nizoni bartaraf etish masalasini sud joylashgan davlat huquqiga yo'naltirish orqali maqsadga erishishning eng maqbuli deb biladi [19]. Mazkur yo'l orqali ushbu davlatda yashayotgan yoki asosiy mehnat faoliyatini olib borayot-

gan shaxslar faoliyatni ma'lum bir qonunlar to'plami orqali tartibga solish mumkinligi va unga nisbatan tegishli choralarni ko'rish imkoniyati mavjudligi haqida ma'lumotga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. O'z-o'zidan har qanday shaxs faoliyat olib borayotgan davlatning yurisdiksiyasini hisobga oladi. Xususan, u kelajakda o'zlarining xatti-harakatlari bilan bog'liq xavfdan oldindan xabardor bo'ladi va unga nisbatan qonunda javobgarlik muqarrar ekanligini biladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, chet el elementi bilan murakkablashgan raqamli munosabatlarni tartibga solish borasida kollizion bog'lovchilarni qo'llash bilan bog'liq masalada talqin qilinayotgan "lex informatica"ning o'ziga xos jihatlarini ham ochib berish lozim bo'ladi.

Global tarmoq foydalanuvchilari o'z maqsadlarini amalga oshirish jarayonida buziladigan huquq va majburiyatlarining kafolatlari bilan bog'liq masalalarda qiyin ahvolga tushib qolishadi. Bu esa tegishli munosabatlarga nisbatan qaysi davlat huquqini qo'llash masalasida mavhumlik kasb etadi. Amaliy jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, ya'ni:

- internet foydalanuvchilari tarmoqdagi faoliyati davomida qaysi davlat yurisdiksiyasi doirasida harakat qilayotganliklarini sezmaydilar. Jumladan, internet manzillari jismoniy shaxslar joylashgan joy manzillariga mos kelmaydi. Bunda shaxslar faqat o'zlari bo'lgan internet manzili bilan cheklanadi va qaysi mamlakat hududi yoki chegarasini bosib o'tayotganligi muhim emas. Fikrimizcha, global tarmoqdan foydalanayotgan shaxslardan hudud bilan bog'liq ehtiyot choralari ko'rish yoki undan himoyalaniшни kutish choralarni ko'rish mantiqsiz hisoblanadi;

- bu borada izlanishlar olib borgan olimlar global tarmoq foydalanuvchilari tomonidan tarmoqda joylashtirilgan ma'lumotlar faol ravishda zarar yetkazuvchi tomoni-

dan olinishi kerak, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi [20]. Global tarmoqda ma'lumot yuklayotgan shaxslarning auditoriya doirasi yurisdiksiya amalda bo'lgan davlatda faoliyat olib borayotgan shaxslardan ko'ra kengroq ekanligini aniqlash imkoni mavjud emas. Shu sababli ular global tarmoqdagi faoliyatlari davomida tegishli ehtiyot choralarni ko'rmaydilar. Misol uchun, O'zbekiston fuqarosi hisoblangan akkaunt egasi o'z davlatidagi kompyuterida joylashtirilgan ma'lumotlarni safarga borgan vaqtda, deylik Germaniya hududida ko'rib chiqishi yoki Germaniya qonunchiligiga muvofiq oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida o'ylamasligi mumkin. Bundan tashqari, agar u O'zbekistondan tashqarida ko'rish mumkinligini bilsa ham, u aniq qayerga kirishni bilmasligi mumkin. Agar u saytga qayerdan kirish mumkinligini bilsa ham, u bunday xatti-harakatlarini maqsad qilganmi yoki yo'qmi, ushbu faoliyatini tartibga solishni qaysi davlat yurisdiksiyasiga yo'naltirishi mumkin, degan jiddiy savollar tug'ilishiga olib keladi

- keng huquqiy resurslarga ega bo'lgan transmilliy korporatsiyalardan farqli o'laroq, global tarmoq foydalanuvchilari o'z faoliyatining transchegaraviy ta'siridan xabardor bo'lsalar ham, turli yurisdiksiyalar bilan bog'liq muammolar atrofida xatti-harakatlari yuzasidan kelib chiqadigan huquqlarining vujudga kelishi, o'zgartirishi va bekor bo'lishiga nisbatan huquqni qo'llash masalasi asosiy muammoli masalalaridan biri bo'ladi.

Raqamli munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda uning samaraliligini ta'minlashda huquqiy tizim ishlashi va talabga javob berishi, taklif etilayotgan tamoyil o'zining vazifasini bajarishi yoki oddiy qilib aytganda, ta'sir etish maydoniga ega bo'lishi talab etiladi. Aks holda, hozirgi raqamli munosabatlarda bo'lgani kabi, xususan, raqamli valyutalar bilan bog'liq masalalarda fuqarolarning qonunni chetlab o'tishlari yoki ularga nisbatan e'tibor bermaslik holatlari kuza-tiladi.

Tegishli munosabatlarga nisbatan qonunni qo'llash masalasida faoliyat olib borayotgan hudud yurisdiksiyasi haqida ma'lum bir fikrga ega bo'lish lozim. Global tarmoqda tegishli faoliyatni nazorat qilishni xohlovchi davlatlarni qonuniylikni ta'minlash muammosi sifatida quyidagi masalalar qiyinab keladi:

- barcha xalqaro raqamli operatsiyalarda huquqiy tartibga solishda umumiy bir muammo borki, bir mamlakatdagi ishtirokchi ikkinchi mamlakat qonunlariga bo'ysunib qolishi mumkin, garchi u ikkinchi mamlakat qonunlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan holatlarda ham kuzatiladi;

- global tarmoqning kunlik rivojlaniishi va butun dunyodagi odamlarni birlashtirish yo'lidagi misli ko'rilmagan qobiliyati tufayli davlat qonunchiligi uchun alohida muammolarni keltirib chiqaradi [21]. Bu kabi ta'sirning kuchayishi turli davlatlardagi odamlar o'rtasida ko'proq munosabatlar bo'layotganligini anglatadi;

- global tarmoq orqali bitimlar sonining ko'pligi, uning oqibatidan kelib chiqadigan nizolar hamda ularni qonuniy hal etish masalasida ishtirokchi davlatlar yurisdiksiyasining xilma-xilligi davlatlar uchun ko'proq muammolarni keltirib chiqaradi;

- global tarmoq foydalanuvchilari o'zlari-ning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatlar sababli qonuni qo'llanishi mumkin bo'lgan mamlakat sudiga chaqirilganidan no-rozi bo'lishlari mumkin;

- raqamli munosabatlarni o'zida mujassam qilgan "kibermakon aholisi"ning katta qismi kibermakon tashqarisidan kelayotgan qonuniy talablarni tan olmasdan, ularga virtual qarshilik ko'rsatishi mumkin va bu amaliyotda ham o'z isbotini topgan.

Bunga misol sifatida Jon Perri Barlouning "Kibermakon mustaqilligi deklaratsiyasi"ni keltirib o'tish mumkin. Mazkur deklaratsiyada muallif sanoat dunyosi magnatlariga murojaat qildi, unda "Aqlning yangi uyi bo'lgan kibermakondan sizlarga murojaat qilaman-

ki, bizni o'tmish va kelajak nomidan yolg'iz qoldirishingizni so'rayman. Sizlarni bizning safimizda bo'lishingizni xohlamaymiz va biz yashayotgan raqamli makonda mustaqillik yo'q" [21], degan iqtiboslar keltirildi. Mazkur bayonot 5 000 ortiq veb-saytlar orqali yoritildi va ular tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Ilgari surilayotgan "lex informatica" tamoyili zamonaviy axborot boshqaruvi va xavfsizlikning muhim komponenti sifatida e'tirof etilishi mumkin. Faqat mazkur tamoyil axborot xavfsizligi, maxfiylik, foydalanish huquqi, axborotning to'g'riligi va qonuniylik kabi asosiy mezonlarga qay tartibda amal qilishini isbotlab berish lozim. O'z navbatida, tadbirkorlik subyektlari amaliy jihatdan mazkur tamoyil doirasida ma'lumot yoki axborotdan samarali foydalanish hamda ularni qonuniy boshqarish uchun qaysi normalarga asoslanishini ko'rsatib berishi kerak bo'ladi.

Bugungi kunda "lex informatica" tamoyili tarafdorlari ushbu tamoyilning axborot boshqaruvi sohasida ishonch va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qila olishiga, shu bilan birga, jamiyatning raqamli rivojlanishiga hissa qo'sha olishiga ishonadilar. Ular o'zlarining qarashlarini isbotlash jarayonida ma'lumotlar bazasining to'g'ri boshqarilishi va qonuniy tartibda himoyalaniishi orqaligina raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlani- shini ta'minlaydi, degan fikrni ilgari suradi va shu sababli "lex informatica" tamoyili axborot boshqaruvi sohasida asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tiborga olinishi lozim, deb hisoblaydi [22].

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "lex informatica" huquqiy tamoyilining paydo bo'lishi o'zgaruvchan ehtiyojlarning mavjudligi hamda tadbirkorlik faoliyatining tadrijiy rivojlani- shi bilan bog'liqdir. Milliy qonunchilikning o'zgaruvchanligi, qonunlardagi qoidalarining o'zaro nomuvofiqligi va shu bilan bog'liq nizolarni hal etish amaliyotining beqarorligi kabi omillar elektron axborot muhitida xalqa-

ro savdo munosabatlarining jadal rivojlanishiga sezilarli darajada to'sqinlik qiladi.

Internet tarmog'i orqali savdo operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga "lex informatica"ni qo'llashning afzalliklari ham mavjud. Ya'ni qonunni qo'llash jarayonida kollizion holatlar kelib chiqishining oldini olish, tegishli munosabatlarga nisbatan milliy qonunchilik normalarini qo'llashni rad etish hamda hanuzgacha yaratilmagan yagona "utopik" huquqni qo'llash orqali kelib chiqadigan nizolarni hal

etish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishi kuzatiladi. Mazkur tamoyil "onlayn" arbitrajlarining rivojlanishi va qit'alararo moslashuvchan normalar orqali nizolarni hal qilishga qodir.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, "lex informatica"ning o'ziga xos xususiyati va yuridik tabiatiga ko'ra, u milliy xususiy-huquqiy tizimda mavjud bo'lgan onlayn faoliyat va ommaviy huquq tizimidagi mavjud taqiqlar o'rtasidagi bog'liqlik muammosini hal etish imkoniyatiga ega emas.

REFERENCES

1. Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari [Subject, method and principles of civil law]. Tashkent, TSIL, 2003, p. 33.
2. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi [Civil law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 'Justice' Publ., 1996, p. 12.
3. Bratus S.N. Predmet i metod sovetskogo grazhdanskogo prava [The subject and method of Soviet civil law]. Moscow, 'Yuridicheskaya literatura' Publ., 1963, p. 135.
4. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Moscow, 'Bek' Publ., 1998, p. 37.
5. Axmedshayeva M., Najimov M. Huquq nima? [What is law?]. Tashkent, TSIL Publ., 2003, p. 18.
6. Tanaga A.N. Printsip svobody dogovora v grazhdanskom prave Rossii [The principle of freedom of contract in the civil law of Russia.]. St. Petersburg, 'Yuridicheskoy Tsentr Press' Publ., 2003, p. 28.
7. Boboyev H.B. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSIL Publ., 2000, p. 215.
8. Zazhiskiy V.I. Pravovyye printsipy v zakonodatel'stve Rossiyskoy Federatsii [Legal principles in the legislation of the Russian Federation]. *State and Law*, 1996, no. 11, p. 92.
9. Luns L.A. Mezhdunarodnoye chastnoye pravo [International private law]. Moscow, 'Norma' Publ., 2004, p. 32.
10. Boguslavskiy M.M. Mezhdunarodnoye chastnoye pravo [International private law]. Moscow, 'Infara-M' Publ., 1994, p. 28.
11. Tikhini V.G. Mezhdunarodnoye chastnoye pravo [International private law]. Minsk, 'Amafeliya' Publ., 2002, p. 9.
12. Patrikios A. Resolution of Cross-border E-business Disputes by Arbitration Tribunals on the Basis of Transnational Substantive Rules of Law and E-business Usages. The Emergence of the Lex Informatica. *University of Toledo Law Review*, 2007, no. 38, p. 272.
13. Cohen J.E. From Lex Informatica to the Control Revolution. *Georgetown University Law Center Berkeley Technology Law Journal*, 2021, no. 3, p. 67.
14. Aron M. Lex Informatica: Foundations of Law on the Internet. *Indiana Journal of Global Legal Studies*, 2017, no. 5, 2017, p. 96.
15. Rassolov I.M. Pravo i kiberneticheskoye prostranstvo [Law and cyberspace]. Moscow, 'Moskovskoye byuro po pravam cheloveka' Publ., 2016, p. 67.
16. Carole M., David H., Daren T., Schmitthoff G.D. The Law and Practice of International Trade. UK. Sweet and Maxwell, 2012, p. 98.

17. United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts. New York, USA, 2005. Available at: <https://treaties.un.org>
18. Patrikios A. Resolution of Cross-border E-business Disputes by Arbitration Tribunals on the Basis of Transnational Substantive Rules of Law and E-business Usages. The Emergence of the Lex Informatica. *University of Toledo Law Review*, 2007, p. 305.
19. Johnson D.R., Post D. Law and Borders: The Rise of Law in Cyberspace. *Stanford Law Review*, 1996, vol. 48, no. 5, pp. 1367–402. JSTOR. DOI: 10.2307/1229390
20. Murray A.D. The Regulation of Cyberspace – Control in the Online Environment. New York, USA. Routledge-Cavendish, 2007, 274 p.
21. Patrikios A. The Role of Transnational Online Arbitration in Regulating Cross-Border E-Business. P. II. *Computer Law and Security Report*, 2008, no. 6, p. 138.
22. De Caria R. A digital revolution in international trade? The international legal framework for blockchain technologies, virtual currencies and smart contracts, challenges and opportunities. *Modernizing International Trade Law to Support*, 2017, p. 122.

Kelib tushgan / Получено / Received: 20.06.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./HIPA8940

UDC: 347.132.1(045)(575.1)

НЕДОБРОСОВЕСТНОСТЬ КАК ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВАЯ КАТЕГОРИЯ

Хосилов Эркин Дилмуротович,
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета
ORCID: 0009-0007-6319-1085
e-mail: erkin-uz@mail.ru

Аннотация. В статье исследуются вопросы истории возникновения добросовестности и недобросовестности как гражданско-правовых категорий, их актуальность и использование в действующем законодательстве в связи с возросшим количеством хозяйствующих субъектов и спорных правоотношений, в которые они вступают, а также с правовыми последствиями. В частности, выявляется сущность недобросовестности как гражданско-правовой категории путём исследования аспектов её применения в нормах гражданского и других видов национального законодательства. Изучены и критически проанализированы взгляды разных учёных на определение гражданско-правовых категорий «добросовестность» и «недобросовестность», приведена классификация различных видов недобросовестности. Дается авторское понимание гражданско-правовой категории «недобросовестность» на основе анализа теоретических взглядов, законодательной и правоприменительной практики. В ходе исследования использовались общенаучные и специальные методы научного познания, такие как исторический, системный, сравнительно-правовой, аналитический, логико-юридический и другие, исследованы зарубежные и национальные научно-теоретические взгляды, судебная и правоприменительная практика. По итогам исследования приводятся выводы касательно полученных основных результатов: систематизация подходов и взглядов учёных к описанию изучаемой гражданско-правовой категории, классификация видов недобросовестности, авторское определение данной категории.

Ключевые слова: недобросовестность, участники гражданских правоотношений, защита прав лица, виды недобросовестности, добросовестность.

INSOFSIZLIK FUQAROLIK-HUQUQIY KATEGORIYA SIFATIDA

Xosilov Erkin Dilmurotovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada insoflilik va insofsizlikning fuqarolik-huquqiy kategoriyalari sifatida paydo bo'lish tarixiga oid masalalar, ularning dolzarbligi, tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi va ular kirishadigan ziddiyatli huquqiy munosabatlar sababli amaldagi qonunchilikda qo'llanishi, shuningdek, huquqiy oqibatlari tadqiq etilgan. Xususan, mazkur fuqarolik-huquqiy kategoriya mohiyati uning fuqarolik va milliy qonunchilikning boshqa turlari normalarida qo'llanishini o'rganish orqali ochib berildi. Turli olimlarning insoflilik va insofsizlikning fuqarolik-huquqiy kategoriyalarini belgilash

borasidagi qarashlari o'rganilib, tanqidiy tahlil qilindi, insofsizlikning turlari tasniflandi. Insofsizlikning fuqarolik-huquqiy kategoriyasiga oid muallif nuqtayi nazari nazariy qarashlar, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida berilgan. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-huquqiy va boshqa umumilmiy hamda maxsus usullaridan foydalanildi, xorijiy, milliy ilmiy-nazariy qarashlar, sud hamda huquqni qo'llash amaliyoti o'rganildi. Pirovardida tadqiqotning asosiy natijalari – olimlarning o'rganilayotgan fuqarolik-huquqiy kategoriyani tavsiflashga oid yondashuvlari va qarashlarini tizimlashtirish, insofsizlik turlarini tasniflash, muallifning ushbu toifaga ta'rifi bo'yicha xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: insofsizlik, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari, shaxs huquqlari himoyasi, insofsizlik turlari, insoflilik.

BAD FAITH AS A CIVIL LAW CATEGORY

Khosilov Erkin Dilmurotovich,

Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. The article studies the history of the emergence of good faith and bad faith as civil law categories, their relevance and use in the current legislation in connection with the increased number of business entities and disputable legal relations in which they enter, as well as legal consequences. In particular, the essence of bad faith as a civil-law category is revealed by studying the aspects of its application in the norms of civil and other types of national legislation. The views of different scientists on the definition of civil law categories "good faith" and "bad faith" are studied and critically analyzed, and the classification of different types of bad faith is given. The author's understanding of the civil law category "bad faith" is given on the basis of analyzing theoretical views and legislative and law enforcement practice. In the course of the study, general scientific and special methods of scientific knowledge, such as historical, systematic, comparative-legal, analytical, logical-legal, and others, were used; foreign and national scientific and theoretical views; judicial and law enforcement practice were examined. As a result of the research, conclusions concerning the obtained main results are given: systematization of approaches and views of scientists to the description of the studied civil-law category, classification of types of bad faith, and the author's definition of this category.

Keywords: bad faith, participants in civil law relations, protection of the civil lights, protection of the person's rights, types of bad faith, good faith.

Введение

В настоящее время Республика Узбекистан переживает период экономического подъёма, наблюдается бурный рост количества субъектов предпринимательства. Например, если в 2016 году количество зарегистрированных субъектов предпринимательства составляло 212 070, то уже в 2021 году их количество увеличилось более чем двукратно и составило 476 750 [1].

В свою очередь, имеет место тенденция к увеличению числа споров между субъектами предпринимательства. Так, если в 2019 году общее количество эконо-

мических дел, рассмотренных экономическими судами, составило 197 288, то в 2023 году – уже 277 862 [2]. Следует отметить, что во многом причиной роста количества судебных споров являются неисполнение договорных обязательств в связи с недобросовестным поведением сторон.

Недобросовестные действия сторон как причина судебных разбирательств является характерным признаком не только национальной правоприменительной практики, данный факт является закономерностью и для зарубежной судебной практики. Зачастую громкие судебные дела по указанным мотивам выходят за

рамки зала судебных заседаний и становятся достоянием общественности. Так, широкую известность получил случай, когда Еврокомиссия за недобросовестные действия в сфере конкуренции оштрафовала компанию Microsoft в размере 613,0 млн долларов США [3].

Таким образом, недобросовестность участников гражданско-правовых отношений имеет важное значение как предмет научно-теоретического исследования и основание возникновения спорных правоотношений в правоприменительной практике.

В этой связи представляется актуальным с научной точки зрения изучение недобросовестности как гражданско-правовой категории с целью выяснения её причин, а также усовершенствование её правового регулирования, предупреждения и предотвращения, а также улучшения эффективности правоприменительной практики, в том числе в вопросах привлечения к ответственности за виновное несоблюдение гражданско-правовых обязательств.

Материалы и методы

В ходе исследования использовались общенаучные и специальные методы научного познания, такие как исторический, системный, сравнительно-правовой, аналитический, логико-юридический и другие, позволившие выявить приводимые ниже результаты исследования.

Результаты исследования

История. Происхождение данной категории уходит в глубь истории, она известна ещё со времён римского права. «Категория добросовестности – структурно сложная, многозначимая, едино-разноплановая субстанция, познание которой ведётся с тех незапамятных времён, когда это понятие человечеством ещё не озвучивалось, но имманентно воспринималось как нечто неразрывное с человеческим бытием, его отношением с себе подобными и всем остальным окружающим миром» [4].

«Исторически применение данной правовой категории восходит к римскому частному праву, где добросовестность (*bona fides*) рассматривалась как собственная честность и доверие к чужой честности, верность данному слову, нравственная обязанность всех людей выполнять свое обязательство, в чём бы оно не выражалось» [5].

Так, римские юристы под добросовестностью понимали «верность обещанию, клятве – точно следовать взятым на себя обязательствам». Позже принцип добросовестности в процессе рецепции римского права был имплементирован в средневековое право Западной Европы. При вступлении в договорные правоотношения продавец в сделке указывал формулу «честно и без дурного намерения» (*bona fide et sine solo*), принимая на себя ответственность [6]. В дальнейшем, как известно, эти и другие основные положения римского права оказали сильное влияние и перешли в источники права европейских феодальных государств, а через них, как метрополии, – и в другие регионы мира.

В нашем регионе в древнейшем источнике права «Авеста» – главной книге зороастризма – также уделено внимание вопросам добросовестного выполнения обязанностей во взаимоотношениях. «Такие договорные отношения, как выполнение договора в экономических отношениях между людьми, выполнение обещания быть верным клятве, действовать строго по договорам и выполнять обязанности в купле-продаже, возвращение вклада (долга), вовремя, играют важную роль в Авесте» [7].

В исламских традициях и законодательстве честность и верность слову также имеют огромное значение. Так, в Коране Всевышний говорит о том, что преуспели верующие, которые «оберегают вверенное им на хранение и соблюдают

договоры» [8]. В хадисах со слов Абу Хурайры приведено: «Пророк (с. а. в.) сказал: «Лицемера отличают собой три признака: когда он рассказывает – лжёт, когда обещает – нарушает (своё обещание), а когда ему доверяют – он предаёт» [9].

Законодательная база. В современном законодательстве Республики Узбекистан, в частности согласно части третьей статьи 9 Гражданского кодекса (далее – ГК), осуществление гражданских прав не должно нарушать прав и охраняемых законом интересов других лиц. Предполагаются *добросовестность, разумность и справедливость* действий участников гражданских правоотношений. Как видно из указанной нормы, добросовестность участников гражданских правоотношений является первичной, то есть такое поведение указанных субъектов должно восприниматься априори в качестве аксиомы.

В комментариях к ГК приводятся следующие выводы: «Законодатель установил, что осуществление гражданских прав не должно нарушать прав и охраняемых законом интересов других лиц. Вышеуказанный принцип аналогичен общеправовому принципу недопустимости злоупотребления правом – осуществление прав и свобод гражданином не должно нарушать законных интересов, прав и свобод других лиц, государства и общества (статья 20 Конституции Республики Узбекистан).

В основе действий участников гражданского оборота предполагается *добросовестность, разумность и справедливость*. Также при реализации своих прав субъекты гражданско-правовых отношений должны уважать моральные принципы и нравственные нормы общества, а предприниматели должны соблюдать также правила деловой этики.

В понятия «добросовестность», «разумность» и «справедливость» в данном случае закладывается не только юридически-правовой смысл, но и духовно-нрав-

ственный. Нормальная экономическая деятельность, да и вся жизнь общества, невозможна без наличия в основе своей деятельности моральных принципов и нравственных норм. Правила деловой этики, выработанные за всю многовековую историю нашего народа, также должны соблюдаться лицами, занимающимися предпринимательской деятельностью. Стоит добавить, что требование о добросовестности и разумности как основы действий обязательны для лица, которое в силу законодательства или учредительных документов юридического лица выступает от его имени (статья 45 ГК)» [10].

Далее в части четвёртой и пятой статьи 9 ГК раскрывается порядок осуществления прав участников гражданских правоотношений исходя из вышеуказанной категории. Так, «...при осуществлении своих прав граждане и юридические лица должны уважать моральные принципы и нравственные нормы общества, а предприниматели должны соблюдать также правила деловой этики. *Не допускаются действия граждан и юридических лиц, направленные на причинение вреда другому лицу*, на злоупотребление правом в иных формах, а также на осуществление права в противоречии с его назначением».

Кроме того, законодатель указывает правовые последствия несоблюдения вышеуказанных норм. Так, в случае несоблюдения требований, предусмотренных частями третьей, четвёртой и пятой статьи 9 ГК, суд может отказать лицу в защите принадлежащего ему права (часть шестая статьи 9 ГК).

Значение категории добросовестность в правоприменительной практике подчёркивает тот факт, что при определённых условиях она может являться источником для правоприменения. В частности, при отсутствии регулирующих норм законодательства или соглашения сторон, а также возможности использования ана-

логии закона для решения конкретного случая *права и обязанности сторон определяются исходя из общих начал и смысла гражданского законодательства (аналогии права) и требований добросовестности, разумности и справедливости* (часть вторая статьи 5 ГК).

В законодательстве категория «добросовестность» зачастую используется в контексте добросовестного исполнения полномочий, обязательств либо служебных обязанностей. Так, статья 45 ГК («Органы юридического лица») возлагает на лицо, которое в силу закона или учредительных документов юридического лица выступает от его имени, обязанность действовать в интересах представляемого им юридического лица добросовестно и разумно. Оно обязано по требованию учредителей (участников, членов) юридического лица, поскольку иное не предусмотрено законом или договором, возместить убытки, причинённые им юридическому лицу.

Несоблюдение этой нормы влечёт правовые последствия. Так, согласно статье 126 ГК («Последствия ограничения полномочий на совершение сделки»), если полномочия лица на совершение сделки ограничены договором либо полномочия органа юридического лица – его учредительными документами по сравнению с тем, как они определены в доверенности, в законе, либо могут считаться очевидными из обстановки, в которой совершается сделка, и если при её совершении такое лицо или орган вышли за пределы этих ограничений, сделка может быть признана судом недействительной по иску лица, в интересах которого установлены ограничения, лишь в случаях, когда будет доказано, что другая сторона в сделке знала или заведомо должна была знать об указанных ограничениях.

Или же, согласно статье 22 Трудового кодекса Республики Узбекистан (далее –

ТК), работник обязан добросовестно исполнять свои трудовые обязанности, а в случае проведения служебного расследования добросовестно пользоваться предоставленными ему правами (статья 306 ТК).

В свою очередь сложившаяся судебная практика свидетельствует, что доказанная недобросовестность при совершении юридически значимых действий, как правило, влечёт признание недействительности совершённых действий либо сделок. Так, постановлением апелляционной коллегии по экономическим делам Хорезмского областного суда от 6 сентября 2023 года по делу № 4-2202-2301/402 решение первой инстанции было отменено и принято новое решение о признании решения общего собрания ООО Shoxobod Savdo недействительным ввиду недобросовестных и неправомерных действий бывшего руководителя организации по подделке подписей участников общего собрания.

Далее, в сделках, совершённых под условием, недобросовестность стороны в виде воздействия на наступление/ненаступление условия по договору является основанием для признания данного условия наступившим и, соответственно, сделки – совершённой. Так, если наступлению условия недобросовестно воспрепятствовала сторона, которой наступление условия невыгодно, то условие признаётся наступившим (часть третья статьи 104 ГК). Если наступлению условия недобросовестности содействовала сторона, которой наступление условия выгодно, то условие признаётся ненаступившим (часть четвёртая статьи 104 ГК).

Добросовестность может явиться основанием для возникновения права собственности по приобретательской давности. В частности, лицо, не являющееся собственником имущества, но добросовестно, открыто и непрерывно владею-

щее как своим собственным недвижимым имуществом в течение пятнадцати лет либо иным имуществом в течение пяти лет, приобретает право собственности на это имущество (часть первая статьи 187 ГК).

Широко известны нормы гражданского законодательства, направленные на защиту права добросовестного приобретателя – лица, которое не знало и не должно было знать о том, что продавец не имел права отчуждать спорное имущество. Так, собственник вправе истребовать это имущество от добросовестного приобретателя только в случае, когда имущество утеряно собственником или лицом, которому имущество было передано собственником во владение либо похищено у того или другого, либо выбыло из их владения иным путём помимо их воли (статья 229 ГК).

В статье 230 Гражданского кодекса регламентируется – что может быть истребовано собственником из чужого незаконного владения, помимо имущества, и при этом даётся определение недобросовестного владельца: «Это лицо, которое знало или должно было знать, что его владение незаконно».

Анализ результатов исследования

Как справедливо отмечает А.Абросимов, хотя добросовестность является широко используемой в гражданском праве оценочной категорией, её характерная черта то, что она «может являться весьма размытым понятием, понимание которой восходит к этическим представлениям индивида или общества. Тем не менее правовые реалии обуславливают необходимость разработки более или менее чётких подходов к трактовке и применению данного принципа» [11].

В том же духе и с более конкретным обоснованием высказался А.Бибииков: «Трактовка принципа добросовестности как чисто нравственной категории не-

совместима с природой отношений, регулируемых гражданским правом. Такой механистический перенос данной этической категории на почву экономических отношений ничего не меняет в существе этих гражданско-правовых отношений и в характере их реализации. Материальные объекты, по поводу которых формируются эти отношения, и тот материальный интерес, который выступает движущей силой их развития, определяют доминирующее положение автономии воли как ведущего начала в возникновении, реализации и прекращении гражданских правоотношений. Такая свобода воли, сколько бы мы её не пытались идеологизировать призывами о честности и правдивости, вежливости и доброты, почтительности и справедливости, не может изменить своей эгоистической материальной ориентации. Следовательно, категория добросовестности для достижения целей социальной ориентации в реализации гражданских правоотношений должна приобрести ту же материальную окраску, какую имеют сами эти правоотношения» [12].

Итак, категория добросовестности, будучи правовой, вместе с тем неразрывно связана с моральной стороной человеческой психологии, и поэтому описание её юридической дефиниции в целях законодательного урегулирования является сложной задачей. Характерен тот факт, что в ГК и вообще в национальном законодательстве, равно как и в праве близких нам по правовой системе стран ближнего зарубежья (Российской Федерации, Республики Беларусь, Казахстана и т.д.), определение добросовестности не приведено.

Как справедливо отмечают исследователи, «...законодатель не раскрывает содержания принципа добросовестности (п. 3 ст. 1 ГК РФ, а также понятия “иное заведомо недобросовестное осуществле-

ние гражданских прав” (ст. 10 ГК РФ), что может привести к дополнительным трудностям в судебной правоприменительной практике» [13].

В связи с вышеуказанным следует отметить, что часть исследователей отрицает возможность или уходит от выработки определения добросовестности по различным причинам.

Так, по мнению И.Кабановой, суть принципа добросовестности состоит в том, что он представляет собой некую оценочную категорию, которая по-своему толкуется каждым субъектом ситуации, социума, правового порядка и в то же время – универсальна для правовых систем современности подобно иным принципам нравственности (добрых нравов), признанных на глобальном уровне в международных конвенциях, в частности: запрет принудительного и детского труда, предотвращение отмывания денег и т. д. [14].

И.Федин, подробно изучив мнения разных исследователей, приходит к выводу, что чётких критериев добросовестности выработать нельзя, так как такое понятие нельзя регламентировать применительно к неконкретным индивидуальным ситуациям [15]. Приведя несколько примеров различного толкования добросовестности из российской правоприменительной практики, он указывает, что выработка одного определения добросовестности на все правоприменительные ситуации невозможна.

Аналогично мнение В.В.Витрянского: «Ни в Кодексе, ни в каком-либо ином федеральном законе определить какие-то подходы, параметры, понятия добросовестности, справедливости, разумности в принципе невозможно» [16].

Таким образом, И.Федин считает, что добросовестность является качественной категорией, являющейся проводником моральных норм в формальное право. Ка-

тегорию «добросовестность» необходимо рассматривать с объективной и субъективной стороны. Объективная сторона включает требования правовых норм с учётом объективных обстоятельств, адресованных правоприменителю и определяющих границы правоприменения. Субъективная характеристика добросовестности предусматривает необходимость правоприменителю соотносить свои действия с признанным эталоном добра, в том числе охарактеризовать эти действия с точки зрения их честности, тщательности, усердности и т. д.

Вместе с тем вторая группа исследователей приводит различные определения добросовестности, причём с нескольких ракурсов – в качестве принципа, категории или понятия. Так, М.М.Агарков отмечал, что добросовестность, в первую очередь, это честность между людьми, гражданское право отрицает совершение сделок без доверия [17]. Стоит отметить, что во мнении учёного, указавшего только физических лиц, упущен вопрос юридических лиц.

Анализируя норму части третьей статьи 9 ГК («...добросовестность, разумность и справедливость действий участников гражданских правоотношений предполагается»), можно сделать вывод о том, что добросовестность касается всех участников гражданских правоотношений. А так как согласно части второй статьи 2 ГК участниками регулируемых гражданским законодательством отношений являются не только граждане, но и юридические лица и государство, то *предполагается добросовестность в том числе и юридических лиц.*

А.Невзоров считает: «Под добросовестностью необходимо понимать “добрую совесть”, которая обозначает позицию субъекта права, как правдивую, честную, точную и тщательную, основанную на его видении справедливости отношений. Ста-

ло быть, добросовестность субъекта – это честность, аккуратность и ответственность выполнения своих обязанностей». Нельзя не отметить, что в данном описании есть некая тавтология, но финальная часть достаточно точно характеризует мнение автора по предмету исследования.

По мнению Е. Овдиенко, добросовестность в объективном понимании – это стандарт поведения честного, разумного, заботливого участника договорных отношений, учитывающего интересы своего контрагента. Касательно данного определения возникает вопрос: насколько необходимо в добросовестность включать *учёт интересов контрагента*? Ведь гражданское законодательство изначально декларирует право граждан (физических лиц) и юридических лиц приобретать и осуществлять свои гражданские права своей волей и *в своём интересе* (часть вторая статьи 1 ГК). В связи с указанным считаем включение учёта интересов контрагента излишним, так как сторона в своих действиях в первую очередь должна соблюдать обязательства по договору и другим предусмотренным законом основаниям, а не субъективного мнения о том, какие же интересы контрагента должны быть соблюдены стороной в ходе своих действий.

Согласно К. Курбанову: «Добросовестность представляет собой совокупность субъективных и объективных элементов, субъективной стороны поведения лица (отсутствия умысла или неосторожности по отношению к совершаемым им действиям), которая проявляется объективно в том, что оно предприняло все надлежащие меры для установления управомоченности контрагента на совершение сделки при той степени заботливости и осмотрительности, которая от него требовалась по характеру правоотношения» [18]. Данное определение разделяет объективную и субъективную сторону доб-

росовестности. Субъективную сторону (вину), по аналогии с уголовным правом, разделяет на умысел или неосторожность, однако, по нашему мнению, совершенно необоснованно сводит объективную сторону добросовестности только лишь к «принятию мер для установления управомоченности контрагента на совершение сделки».

Отечественный учёный М. Таджибаева считает: «Добросовестность в гражданском праве – это понятие, определяющее субъективную сторону действий участников гражданских правоотношений. В случаях, установленных законом, оно даёт субъекту возможность свободной реализации своих прав и требовать выполнения обязательств» [19].

Теперь перейдём к описанию категории недобросовестность. Необходимо отметить, что попытки описания данной категории можно разделить на две группы: часть учёных самостоятельно даёт понятие, другая – описывает её как противоположность добросовестности. В частности, к первой группе можно отнести мнение А. Бибикова, который считает недобросовестным поведением явное пренебрежение ценностями прав и законных интересов своего контрагента ради ценностей исключительно своих прав и законных интересов. Т. Дроздова считает, что недобросовестность означает «осознание субъектом неправомерности своего поведения» [20]. Согласно Е. Богданову: «Понятие недобросовестности является составным, включающим в себя оценку поведения участника правоотношения как с объективной, так и с субъективной стороны. Недобросовестными могут быть признаны лишь граждане и организации, которые, совершая противоправные действия или бездействие, знали или должны были знать о характере этих действий и их последствиях» [21].

В свою очередь И. Пустомолотов считает, что «анализ статей Гражданского кодекса РФ, в которых упоминается о недобросовестности участников гражданских правоотношений, приводит к выводу, что поведение лица следует считать недобросовестным тогда, когда оно (лицо) действует с умыслом причинить вред другому лицу, а также допускает возможность причинения такого вреда по причине самонадеянности или небрежности. Такое определение недобросовестности вытекает, например, из содержания статьи 302 ГК РФ «Истребование имущества у добросовестного приобретателя». В данной статье добросовестному приобретателю приписывается свойство: он «не знал и не мог знать о незаконности своего владения вещью». Соответственно, «знание или обязанность знания» того, что своими действиями лицо способствует причинению вреда другому лицу, характеризует его как недобросовестного» [22].

М.Новиков отождествляет недобросовестность с виной, по его мнению, они различаются только сферой применения. В итоге он определяет недобросовестность как психическое отношение к своим действиям (бездействиям), базирующееся на формуле «знал и должен был знать». Поэтому недобросовестность, так же как и виновность, включает в себя интеллектуальные (осознание своих действий и предвидение возможного результата) и волевые элементы (желание или нежелание наступления этого результата). При этом интеллектуальная сторона подчиняет себе волевою сторону.

Данное определение недобросовестности, по нашему мнению, является наиболее удачным, с одним уточнением (как справедливо указывает предыдущий автор И. Пустомолотов): при недобросовестности должно быть либо знание о незаконности своего владения, либо обязанность такого знания.

Таким образом, *недобросовестность можно определить как психическое отношение лица к своим действиям (бездействиям), состоящее в осознании либо в необходимости осознания их неправомерного характера.*

Ко второй группе исследователей относится, например, А.Невзоров, который определяет недобросовестность как понятие, являющееся антонимом (антагонизмом) понятию «добросовестность», а недобросовестное поведение – это поступок(ки), образом действия которых участник отношений отрицает определение, данное в истолковании дефиниции добросовестность [23].

Т. Замотаева и М. Синявская также считают, что нет необходимости выведения определения недобросовестности, так как «это понятие, противоположное добросовестности, используется в законодательстве для обозначения случаев виновного отступления от модели добросовестного поведения» [24].

В научной литературе имеются следующие виды классификации недобросовестности.

Так, А.Невзоров по форме вины различает три вида недобросовестности: 1) недобросовестность умышленная – это осознанные в сущности своего деяния умышленные противоправные действия участника отношений, направленные на получение незаконной выгоды в отношениях с другими субъектами права; 2) недобросовестность халатная – это неосознанные надлежащим образом противоправные действия участника отношений, в силу его невнимательности и безразличия к другим участникам отношений; 3) недобросовестность ошибочная (недобросовестность заблуждения) – это противоправные действия участника отношений относительно других участников отношений, когда субъект права, осмысливая поступки и стараясь действовать

по доброй совести в отношении другого субъекта права, заблуждался в правомерности своих деяний, не предполагая их незаконность, и причинил второму в силу своего заблуждения вред (ущерб). Он считает, что такая дифференциация тройственного понятия недобросовестности в совокупности с обозначенными ранее в научных исследованиях видах категории «недобросовестность» вносит новые положения в теорию права и даёт судам законодательную возможность более уверенной квалификации отношений контрагентов и вынесения правосудных решений.

На наш взгляд, так как первый вид недобросовестности А. Невзоров определяет как «умышленная», то, по аналогии с уголовным или административным правом, второй и третий виды недобросовестности можно объединить в один – неосторожная недобросовестность.

Е. Богданова различает два вида недобросовестности: 1) особо злостное для общества поведение есть неизвинительная недобросовестность; 2) поведение, не характеризующееся особой злостностью, представляет собой извинительную недобросовестность. Проведена дифференциация недобросовестного поведения участников договорных отношений, в результате которой сделан вывод, что особо злостная недобросовестность – неизвинительная недобросовестность должна учитываться законодателем при квалификации поведения субъекта в качестве гражданского правонарушения, то есть основания гражданско-правовой ответственности. Поведение субъекта, не представляющее для общества особой злостности, – извинительная недобросовестность, её законодателю следует квалифицировать в качестве нарушения права – основания защиты субъективного гражданского права [25].

Выводы

Таким образом, в национальном законодательстве Республики Узбекистан, так же как и в праве близких нам по правовой системе стран ближнего зарубежья (Российской Федерации, Республики Беларусь, Казахстана и т.д.), определения добросовестности и недобросовестности не приводится.

Далее, имеются различные подходы к определению категории добросовестности и недобросовестности. Касательно добросовестности одна группа исследователей считает невозможным приведение юридического понятия добросовестности ввиду морально-этического характера данного понятия либо иных причин. Другая же группа даёт различные авторские трактовки исходя из собственных взглядов и теоретического обоснования.

Относительно описания категории «недобросовестность» часть учёных даёт самостоятельно понятие, другая – описывает её как противоположность добросовестности.

Приведём наше авторское понимание недобросовестности:

Недобросовестность – это психическое отношение лица к своим действиям (бездействиям), состоящее в осознании либо в необходимости осознания их неправомерного характера.

Основные классификации недобросовестности, разработанные в юридической теории, состоят в следующем: 1) по форме вины (субъективного отношения к содеянному) – недобросовестность умышленная, недобросовестность халатная, недобросовестность ошибочная (заблуждения); 2) по необходимости оценки со стороны – неизвинительная недобросовестность (особо злостная) и извинительная недобросовестность (не представляющая для общества особой злостности).

REFERENCES

1. Statistical data. Website of the Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://www.stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/15263-sdsgsdgrger435345-2>
2. Statistical data. Website of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2024/31.01/pdf>
3. Evropeyskaya komissiya oshtrafovala Microsoft na \$613 mln po antimonopol'nomu delu [European Commission fines Microsoft \$613 million in antitrust case]. Available at: <https://www.computerworld.com/article/1703727/european-commission-fines-microsoft-613m-in-antitrust-case.html>
4. Nevzorov A. Printsip dobrosovestnosti kak novoye yavleniye v sovremennom rossiyskom grazhdanskom prave v epokhu antropotsena [The principle of good faith as a new phenomenon in modern Russian civil law in the era of the anthropocene]. *Domestic Jurisprudence*, 2017, p. 17.
5. Pechenkina N. Printsip dobrosovestnosti v rossiyskom grazhdanskom prave [The principle of good faith in Russian civil law]. *Adam Mickiewicz University Law Review*, 2015, pp. 230-236. DOI: 10.14746/ppuam.2014.4.25
6. Novikov M. Printsip nezlopotrebleniya svobodoy dogovora [The principle of non-abuse of freedom of contract]. *Bulletin of the Magistracy*, 2011, p. 59.
7. Imamov N. Avesta – istochnik grazhdanskogo prava [Avesta – a source of civil law]. *Young Scientist*, 2014, no. 5.
8. Abdulaziz M. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimas. Mo'minun surasi, 8-oyat [Translation of the meanings of the Holy Quran. Surah Mominun, verse 8].
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al Buxoriy, Al-Joim As-Sahih. [Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail Al Bukhari, Al-Jaim Al-Sahih], 1992.
10. Rakhmankulova Kh.R., Asyanova Sh.M. Kommentariy k Grazhdanskomu kodeksu Respubliki Uzbekistan [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, vol. 1, pp. 28–29.
11. Abrosimov A.V. Printsip dobrosovestnosti v rossiyskom grazhdanskom prave i zarubezhnykh pravovykh sistemakh [The principle of good faith in Russian civil law and foreign legal systems]. *Legal Regulation of Economic Activity*, 2022, vol. 7 (4), p. 91.
12. Bibikov A. O ponyatii dobrosovestnosti v grazhdanskom prave [On the concept of good faith in civil law]. *Eurasian Union of Scientists*, 2014, no. 8, p. 10.
13. Ovdiyenko O. Sootnosheniye kategoriy dobrosovestnosti i nedorosovestnosti v dogovornom prave [On the concept of good faith in civil law]. Moscow, UNITI-DANA, *Legal and Law*, 2017, p. 47.
14. Kabanova I. Nekotoryye aspekty realizatsii printsiipa dobrosovestnosti i nedopustimosti zloupotrebleniya pravom v pravootnosheniyakh s uchastiyem organov publichnoy vlasti i ikh dolzhnostnykh lits [Some aspects of the implementation of the principle of good faith and inadmissibility of abuse of rights in legal relations involving public authorities and their officials]. *Civil Law*, 2014, no. 5, p. 25.
15. Fedin I. Dobrosovestnost' kak pravovaya kategoriya [Good faith as a legal category]. *Current Issues of Russian Law*, 2018, no. 4, p. 25.
16. Vitryanskiy V.V. Grazhdanskiy kodeks i sud [Civil Code and the Court]. *Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation*, 1997, no. 7, p. 132.
17. Agarkov M.M. Problema zloupotrebleniya pravom v sovetskom grazhdanskom prave [The problem of abuse of rights in Soviet civil law]. *News of the USSR Academy of Sciences. Department of Economics and Law*, 1946, no. 6, pp. 424–436.
18. Kurbanov K. Institut dobrosovestnogo priobretatelya v grazhdanskom prave [The Institute of a bona fide purchaser in civil law]. Abstract of the PhD thesis. Dushanbe, 2010, p. 7.

19. Tadzhibayeva M. Grazhdansko-pravovyye sredstva i posledstviya bor'by s nedobrosovestnoy konkurentsией [Civil law remedies and consequences of combating unfair competition]. Tashkent, 2023, p. 28.

20. Drozdova T. Dobrosovestnost' v rossiyskom grazhdanskom prave [Good faith in Russian civil law]. Irkutsk, 2004, p. 3.

21. Bogdanov Ye. Kategoriya dobrosovestnosti v grazhdanskom prave [The category of good faith in civil law]. Russian Justice, 1999, no. 9, pp. 13–15.

22. Pustomolotov I. Kategoriya nedobrosovestnosti v grazhdanskom zakonodatel'stve [The category of bad faith in civil law]. *News of TSU. Economic and Legal Sciences*, 2012, p. 121.

23. Novikov M. Ponyatiye dobrosovestnosti v grazhdanskom prave: teoreticheskiy analiz [The concept of good faith in civil law theoretical analysis]. *Young Scientist*, 2012, vol. 2 (1/36), p. 42.

24. Zamotayeva T., Vereschak S. Proyavleniye printsipa dobrosovestnosti v dogovornykh obyazatelstvakh [Manifestation of the principle of good faith in contractual obligations]. *Laws of Russia Experience, Analysis, Practice*, 2010, no. 9.

25. Bogdanova Ye. Dobrosovestnost' uchastnikov dogovornykh otnosheniy i problemy zaschity ikh sub'yektivnykh prav [Good faith of participants in contractual relations and problems of protecting their subjective rights]. Moscow, 2010, pp. 12–13.

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 08.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./LEIP4186
UDC: 347.93(045)(575.1)

SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISH INSTITUTI: TAFTISH INSTANSIYASI FAOLIYATI TAHLILI

Esanova Zamira Normurotovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-2140-8067
e-mail: zamira.esanova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqoladan Fuqarolik protsessual kodeksining “Sud hujjatlarini qayta ko'rish” nomli IV bo'limiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, islohotlar mazmun-mohiyati, ushbu yangiliklarning fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi hamda amaliyotidagi ahamiyati, fuqarolik sudlov faoliyatida tutgan o'rni haqidagi nazariy qoidalar, tushunchalar va fikr-mulohazalar o'rin olgan. Shu bilan birga, fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko'rish instansiyalarining o'zaro nisbati, ushbu tartib-taomillarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, ushbu yangiliklarning vujudga kelish sabablari, sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish instansiyasining zarurati haqidagi fikr-mulohazalar va mualliflik taklif-tavsiyalari bayon qilingan. Maqolada Fuqarolik protsessual kodeksining 46-bobidagi “Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish”ga oid dolzarb normalarning yangi institut sifatida vujudga kelishi, asoslari, zarurati va xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Ushbu institut (qayta ko'rish bosqichi) nafaqat qonunchilik tajribasi, balki amaliyotdagi protsessual muammolarni ham bartaraf etishga yordam beradi. Mavzuning dolzarbligini ochib berish maqsadida muallif fuqarolik protsessual huquqi fani hamda sohasiga doir qator o'quv va ilmiy adabiyotlardagi protsessualist olimlarning fikrlari, qarashlari, oxirgi yillarda yuzaga kelgan holat – sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqish zarurati, bu boradagi sud amaliyotidagi sudyalarning vakolatlari va yuklamalari tahliliga alohida e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessual huquqi, sud hujjatlari, qayta ko'rish, sudlov faoliyati, yangi protsessual institut, sudya, sudlov hay'ati, apellyatsiya, kassatsiya, taftish, instansiya, rayosat, hal qiluv qarori, ajrim, qaror, shikoyat, protest.

ИНСТИТУТ ПЕРЕСМОТРА СУДЕБНЫХ АКТОВ: АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕВИЗИОННОЙ ИНСТАНЦИИ

Эсанова Замира Нормуротовна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Гражданское процессуальное и
экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье содержатся теоретические положения, понятия и мнения о внесённых изменениях и дополнениях в раздел IV «Пересмотр судебных актов» Гражданского

процессуального кодекса Республики Узбекистан, содержании реформ, значении этих нововведений в теории и практике гражданского процессуального права, их роли в гражданском судопроизводстве. При этом приводится соотношение инстанций пересмотра гражданских судебных актов, сравнительный анализ этих процедур. Также содержатся суждения о причинах появления этих нововведений, необходимости производства по пересмотру судебных актов в ревизионном порядке по судебным инстанциям, авторские предложения и рекомендации. В статье указаны основания, необходимость, особенности возникновения новых и актуальных норм в главе 46 «Производство по пересмотру судебных актов в ревизионном порядке» Гражданского процессуального кодекса, касающихся введения нового института. Данный институт (этап пересмотра) способствует не только укреплению законодательного опыта, но и устранению процессуальных проблем на практике. С целью обоснования актуальности темы автор уделил особое внимание мнениям и взглядам учёных-процессуалистов, приведённым в ряде учебной и научной литературы по гражданскому процессуальному праву как науки и отрасли, возникшей в последние годы, необходимости пересмотра судебных актов, анализу полномочий и нагрузки судей в судебной практике по данному вопросу.

Ключевые слова: гражданское процессуальное право, судебные акты, пересмотр, судебная деятельность, новый процессуальный институт, судья, судебная коллегия, апелляция, кассация, ревизия, инстанция, президиум, решение, определение, постановление, жалоба, протест.

INSTITUTE FOR REVIEW OF JUDICIAL DOCUMENTS: AN ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF THE INSPECTION INSTANCE

Esanova Zamira Normurotovna,

Professor of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. The article discusses the amendments and additions made to Section IV, “Review of Judicial Acts” of the Civil Procedure Code, the essence and significance of these reforms in the theory and practice of civil procedural law, and their role in civil judicial activities. It also provides a comparative analysis of the relative positions of the instances of review of civil judicial acts and the procedures involved. Also, the reasons behind these new developments, the necessity for an instance to review judicial acts through scrutiny, and the author’s proposals and recommendations are discussed. The article shows the emergence, grounds, necessity, and characteristics of the current norms in Chapter 46 of the Civil Procedure Code on “Proceedings for the Review of Judicial Acts through Scrutiny” as a new institution. This institution (the review stage) helps address not only legislative experience but also practical procedural issues. To reveal the relevance of the topic, the author pays special attention to the views and opinions of procedural law scholars in various educational and scientific literature, the need for reviewing judicial acts in recent years, and the analysis of the powers and workloads of judges in judicial practice.

Keywords: civil procedural law, judicial documents, review, judicial activities, new procedural institution, judge, judicial board, appeal, cassation, inspection, instance, presidium, ruling, decision, complaint, protest.

Kirish

Keyingi vaqtlarda sud-huquq tizimida, xususan, odil sudlovni amalga oshirish va protsessual huquq sohasida katta islohotlar

amalga oshirilmoqda. FPKning “Sud hujjatlarini qayta ko‘rish” deb nomlangan 6-bobiga O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–887-sonli qonuni tahririga [1]

asosan, o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalariga oid normalarga o'zgartirishlar kiritildi, taftish instansiyasi (FPK, 46-bob. "Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish") esa yangi institut (bosqich) sifatida vujudga keldi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 6-moddasida sud hujjatlari toifasi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, sud ko'rilayotgan va hal etilayotgan masala bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq chiqaradi.

Mazkur sud hujjatlarining o'ziga xos protsessual xususiyatlari borki, ular ustidan shikoyat berish va protest keltirish tartibi, usullari va muddatlari belgilangan. Shikoyat berish va protest keltirish mumkin bo'lmagan sud hujjatlari haqida Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli normalari hamda Oliy Sudning Plenum qarorida [2] tushuntirish berilgan. Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichlari (instansiyalari) sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- apellyatsiya;
- kassatsiya;
- taftish instansiyasi sudi;
- yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi keyingi vaqtlarda qonun hujjatlari, xususan, protsessual qonunchilik va sud amaliyotiga kiritilgan sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish institutining mazmun-mohiyatini ochib berish, Fuqarolik protsessual kodeksining shu mazmundagi 46-bobi normalarini sharhlash, taftish instansiyasiga doir normalarni amaliyotda qo'llash borasida uchrayotgan muammolar (masalalar)ga yechim topish, tadqiqotlar, o'rganishlar, tahlillar natijasida olingan takliflarni asoslantirishga qaratilgan. Jumladan, ular quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- taftish instansiyasining vujudga kelish zaruratini asoslash hamda sud hujjatlarini qayta ko'rish vakolatiga ega boshqa instansi-

yalardan farqli va o'xshash jihatlarini ochib berish;

- taftish tartibida ish ko'rish xususiyatlarini tahlil qilish;

- tadqiqotlar va tahlillar asosida qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilmiy xulosalar berish.

Maqolaning dolzarbligi sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish mexanizmini yanada takomillashtirish, ularni qayta ko'rishning yangi tartibini joriy etish orqali odil sudlov sifati hamda odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish, fuqarolarning buzilgan huquqlari hamda erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlarini sharhlash, bu boradagi normalarni tushuntirishdan iborat.

Taftish instansiyasi sudi faoliyat boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ammo ushbu davr mobaynida quyidagi natijalarga erishildi:

birinchidan, 2024-yil 25-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 20-sonli qarori ilk marotaba qabul qilindi.

Ikkinchidan, Oliy Sud tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atlari tomonidan apellyatsiya tartibida 6 400 ta ish ko'rib chiqildi. Birinchi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan 1 161 ta qaror bekor qilinib, 465 ta sud qarori o'zgartirildi. Kassatsiya tartibida 2 244 ta ish ko'rib chiqildi. Birinchi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan 343 ta qaror bekor qilinib, 148 ta sud qarori o'zgartirildi. Taftish tartibida 2 099 ta ish ko'rib chiqildi. Quyi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan 178 ta qaror bekor qilinib, 61 ta sud qarori o'zgartirildi.

Oliy Sudning Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan taftish tartibida

83 ta ish ko'rib chiqildi. Quyi sudlar tomonidan chiqarilgan 28 ta qaror bekor qilinib, 5 ta sud qarori o'zgartirildi.

Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rindiki, qisqa davr mobaynida taftish instansiyasi sudlari tomonidan salmoqli ishlar qayta ko'rilgan va belgilangan talablarga javob bermagan sud hujjatlari taftish tartibida ko'rib chiqilib, bekor qilingan.

Uchinchi, Oliy Sud va o'rta bo'g'in sudlari yuklamasi deyarli kamaydi, instansiyalar bo'yicha ish taqsimoti adolatli va vakolatli taqsimlandi.

To'rtinchidan, fuqarolarning huquq va manfaatlarini sudda himoya qilish, sud hujjatlarini qayta tekshirishning yana bir kafolatli bosqichi vujudga keldi.

O'zbekistonda milliy huquq tizimi islohotlari tarixiga nazar solsak, sud hujjatlarini qayta ko'rish institutlari borasidagi yirik islohotlarni olti bosqichga [3] ajratib tahlil qilish o'rinli.

Birinchi islohot: O'zbekiston Respublikasining Grajdanklik protsessual kodeksida sud qarorlarini qayta ko'rish instansiyasi sifatida nazorat instansiyasining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi;

ikkinchi islohot: O'zbekiston Respublikasining Grajdanklik protsessual kodeksida sud qarorlarini qayta ko'rish instansiyasi sifatida kassatsiya instansiyasining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi;

uchinchi islohot: O'zbekiston Respublikasining Grajdanklik protsessual kodeksida sud qarorlarini qayta ko'rish instansiyasi sifatida yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rish instansiyasining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi;

to'rtinchi islohot: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sud qarorlarini qayta tekshirish hamda ko'rish instansiyasi sifatida apellyatsiya instansiyasining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi;

beshinchi islohot: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksidan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yan-

vardagi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan, sud hujjatlarini qayta ko'rish instansiyasi sifatida "Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari-ni nazorat tartibida qayta ko'rish" instansiyasi olib tashlanishi;

oltinchi islohot: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabr-dagi O'RQ-887-sonli Qonuni tahririda "Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish" nomli yangi 46-bobning yuzaga kelishi va qo'llana boshlashi bilan izohlanadi.

Jahon miqyosida protsessual huquq tizimini sud hujjatlarini qayta tekshirish va ko'rish institutlari sudlarda turli davrlarda amalda bo'lgan va faoliyat olib borgan. Prot-sessual-huquqiy institut uzoq tarixga ega. Dunyo olimlari sud qarorlarini qayta ko'rish instituti sifatida barcha qayta tekshirish bos-qichlarini umumiy tarzda hamda apellyatsiya, kassatsiya, nazorat bosqichlarini esa alo-hida shaklda o'rganishgan. Masalan, sud huj-jatlarini qayta tekshirish institutining komplek-s tahlili Y.A. Borisova ilmiy tadqiqotlarida (xususan, asarlarida) keltirilgan. Muallif qat-tor ilmiy asarlarida, o'quv va ilmiy adabiyot-larida bu borada doktrinal ta'rifni ilgari sur-gan. Uning aytishicha, "sud hujjatlarini qayta tekshirish va qayta ko'rish – shaxslarning sud himoyasiga bo'lgan huquqining kafolati" sanaladi [4].

Fransiya qonunchilik tajribasini o'rganish nuqtayi nazaridan M.D. Dzagurovaning "Fran-siya fuqarolik qonunchiligi bo'yicha shikoyat qilishning ekstraordinar usullari" nomli ilmiy tadqiqotida [5] "... fransuz protsessual huquq doktrinasida shikoyatning ordinar va ekstra-ordinar turlari..." borligi qayd etilgan. Aynan Fransiya protsessual qonunida uch zvenoli (uch bo'g'inli) qayta ko'rish bosqichlari mav-jud bo'lib, sud hujjatini qayta ko'rishda ham-ma bosqichdan ketma-ket o'tiladi. E'tiborlisi shundaki, hozirda sof taftish instansiyasi (sof taftish atamasi mavjud bo'lgan) faoliya-tini qamrab olgan qonunchilik hujjatlari yoki o'rganilgan ilmiy manbalarni kam uchra-

tish mumkin. Buning sababi milliy va xalqaro manbalar hamda amaliyotga kiritilgan va yuzaga kelgan yangi ish tartibi, qayta ko'rish bosqichidir. Shunga qaramay, Fransiya qonun hujjatlarida taftish (reviziya) atamasi ish yuritish obyekti, yirik protsessual institut sifatida alohida tadqiq etilgan. Ba'zi tadqiqotlarda keltirilishicha, nazorat instansiyasi ishlashda, uning faoliyati taftish (reviziya) funksiyasiga qaratilgan, ya'ni taftish vazifasini bajar-gan.

Shikoyat berishning “fransuzcha usuli” ordinar – *ordinary* (oddiy, odatiy) va ekstraordinar – *extraordinary* (favqulodda, noodatiy) turlarga ajratilgan. Birinchi – ordinar usuliga apellyatsiya, oppozitsiya turlari mansub. Ikkinchi – ekstraordinar turiga kassatsiya, reviziya turlari kiradi [4].

S.V.Zaysev “Sud protsessida qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini bekor qilish uchun asoslar” deb nomlangan o'z tadqiqotida [3] sud hujjatlarini qayta ko'rish mezonlarini ishlab chiqqan va ularning ahamiyatini ochib bergan. Tadqiqotda tekshiruvning ikki turi ko'rsatilgan: to'liq va cheklangan. Muallif apellyatsiya ish yurituv to'liq tekshiruv turiga, kassatsiya va nazorat shaklidagi ish yurituv cheklangan tekshiruv turiga xosligini isbotlaydi. Ushbu tavsiyalar, qarashlar, tasniflar mohiyati sud hujjatlarini bekor qilish asoslari va ishni ko'rish doirasiga bog'liq.

Milliy protsessualist olimlar (M. Mamasiddiqov [7], D. Xabibullayev [8] va boshq.) shu kunga qadar fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasi doirasida “Fuqarolik protsessual huquqi” darsligida sud hujjatlarini qayta ko'rish instansiyasi sifatida apellyatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyasi hamda yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishga oid masalalarni ilmiy tahlil qilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot olib borishda foydalanilgan matnlar va tezislar, fikrlar va tushunchalar rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy ishlanmalardan foydalanilganligi va ular-ga havolalar berilganligi, olingan natijalar

soha mutaxassislari, sudyalari (respondentlar: sudyalari, sud xodimlari va Sudyalari oliy maktabi tinglovchilari) o'rtasida ma'ruzalar hamda amaliy mashg'ulotlar jarayonida tahlil qilinganligi, so'rovnomalar shaklida sinovdan o'tkazilganligi, Oliy Sud Plenumining mavzuga oid qarorlari (barcha protsessual huquq sohalarida) loyihalarini tayyorlash jarayonlarida qiyosiy tahlil qilinganligi hamda joriy etilganligi, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda imzolangan “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi (O'RQ-887-sonli Qonun) 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan qonunni keltirish joiz.

Qolaversa, keyingi yillarda sud-huquq islohotlari faoliyatining bosh o'zagini tashkil etayotgan “Yangi O'zbekiston – yangi sud” prinsipi doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, insonning qadr-qimmatini ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan muhim islohotlar mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi g'oyalarni keltirish o'rinni.

Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy tahlil, so'rovnomalar o'tkazish, o'quv va ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, empirik materiallar hamda statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyoti, xususan, sud amaliyoti materiallarini tahliliy o'rganish, moddiy, protsessual huquq sohasidagi muammolarni ochib berish, yangi va dolzarb taklif-tavsiyalar ishlab chiqish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning empirik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2024-yil 25-iyundagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko'rishning ayrim

masalalari to'g'risida"gi 20-sonli Plenum qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi rasmiy "Telegram" kanalida e'lon qilingan Oliy Sud faoliyatiga doir umumlashtirilgan statistik materiallardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Fuqarolik protsessual kodeksida sud hujjatining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi yuzasidan tekshiruv qo'zg'atish asoslari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra:

1) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati yoki apellyatsiya protesti bo'yicha;

2) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

3) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protesti bo'yicha;

4) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;

5) birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori, shuningdek, mazkur sud hujjatlarini ko'rib chiqqan apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi, tegishli taftish instansiyasi sudining ajrimi, qarori ustidan berilgan taftish shikoyati yoki taftish protesti bo'yicha qo'zg'atiladi.

Har bir instansiya faoliyatini o'rganish va tahlil qilish uch elementdan iborat:

- subyekt;
- obyekt;
- mazmun.

Huquqiy adabiyotlarda [9] subyektlar uch toifaga ajratilgan:

- sudga murojaat qiluvchi subyektlar;
- sudda ishtirok etuvchi subyektlar;
- sudda ish ko'ruvchi subyektlar.

Ushbu tasniflash fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida mavzuni batafsil o'rganish hamda mavzuga doir protsessual

xususiyatlarni ochib berishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritishda shikoyat (protest) beruvchi subyektlar doirasi o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga:

– ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, bundan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan nizolar mustasno;

– prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o'rinbosarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjatlari, shuningdek, ushbu sudlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining birinchi instansiyasi bo'yicha qabul qilingan hamda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjatlari ustidan taftish tartibida murojaat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatiga:

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek, ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlariga asosan, protest keltirishi mumkin;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raiisi ko'rsatilgan shaxslarning murojaatiga ko'ra, protest keltirishi mumkin.

Taftish tartibida shikoyatlarni (protestlarni) ko'radigan sudlar:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati – tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi – hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rilgan tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan taftish tartibidagi shikoyatlarni (protestlarni) ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida taftish tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan keltirilgan protesti O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosati tomonidan ko'riladi.

Taftish tartibida shikoyat (protest) berish tartibi va muddati

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida ko'rilishi lozim bo'lgan shikoyat (protest) mazkur sudlar nomiga yo'llanadi, biroq hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga beriladi.

Hal qiluv qarorini qabul qilgan sud shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda shikoyatni (protestni) ishni taftish tartibida ko'radigan sudga ish bilan birga yuborishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida taftish tartibida ko'rilishi lozim bo'lgan shikoyat (protest) bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatiga taftish tartibidagi protesti bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga beriladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir yil ichida beriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ajrim chiqarilguniga qadar o'tgan taqdirda, shikoyat (protest) kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ajrim qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibida ajrim chiqarilguniga qadar o'tgan taqdirda, shikoyat (protest) ushbu sudlar tomonidan ishni taftish tartibida

ko'rish natijalari bo'yicha ajrim qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ning protesti ko'rsatilgan shaxslar murojaat qilgan kundan e'tiboran uch oy ichida, lekin O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ishni taftish tartibida ko'rish natijalari bo'yicha ajrim qabul qilingan kundan e'tiboran olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatiga kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisi va uning o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi sudyasi taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ishni tegishli suddan talab qilib olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokuror hamda ularning o'rinbosarlari ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha taftish tartibida protest keltirish to'g'risidagi masalani hal etish uchun tegishli suddan o'z vakolatlari doirasida ishni talab qilib olishga haqli.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) o'rganish natijalari bo'yicha quyidagi ajrimlardan biri chiqariladi:

1) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qaytarish to'g'risida;

2) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risida;

3) sud hujjatlarini taftish tartibida tekshirish asoslari mavjud bo'lmasa, taftish tartibidagi shikoyatni sudlov hay'atida ko'rib chiqish uchun o'tkazishni rad etish to'g'risida;

4) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqish uchun sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risida.

Protsessual kodeksda mavjud bo'lgan va 46-bobda ko'rsatilgan maxsus asoslar

bo'lganda, taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rmasdan qoldirish, ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holat bartaraf etilgandan keyin shikoyat (protest) kodeksda belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

Huquqiy adabiyotlar va protsessual qonunda [10] shikoyat (protest) keltiruvchi subyektlarga quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqi berilgan:

a) taftish tartibidagi shikoyat (protest) bo'yicha ish yuritishni tugatish;

b) taftish tartibidagi shikoyatga (protestga) qo'shilish;

d) taftish tartibidagi shikoyat (protest) yuzasidan tushuntirishlar berish (e'tirozlar bildirish);

e) taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) to'ldirish, o'zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish;

f) da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi;

g) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bo'yicha murojaatlarni amalga oshirish va boshqalar.

Taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rish muddatlari

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan u ko'rib chiqish uchun o'tkazilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Alohida hollarda taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rib chiqish muddati ishni ko'rayotgan sudlov hay'ati tomonidan

ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin. Taftish tartibidagi protest O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Rayosati tomonidan u O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatiga kelib tushgan kundan e'tiboran ikki oydan oshmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Taftish instansiyasi sudida ishni ko'rish tartibi

Ishni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatida taftish tartibida ko'rishda FPK da nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlari ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatining qarori yakuniy hisoblanadi va uning ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi).

Taftish instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi ishni taftish tartibida ko'rayotganda, sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Aksariyat huquqiy adabiyotlarda [11] "Sud hujjatlarini qayta ko'rishda sudga murojaat qiluvchilarning tashabbusi va murojaat (shikoyat) predmeti doirasida ish qayta ko'riladimi yoki protsessual qonun doirasida qayta ko'riladimi?" degan bahsli holatlar mavjud.

Tahlillar va qonunchilik normalari shuni ko'rsatadiki, taftish instansiyasi sudi sud hujjatini to'liq hajmda tekshirib chiqishi shart. Biroq sud hujjatini qabul qilgan sud taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) protsessual qonunning biror-bir talablariga mos emasligi asosi bilan qaytarish yoki uni qabul qilishni rad qilishga haqli emas. Mazmunan to'g'ri bo'lgan sud hujjatining faqat rasmiy asoslarga ko'ra bekor qilinishiga yo'l qo'yilmasligi zarurligi Oliy Sud Plenumi qarorida ko'rsatilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksida shikoyatni (protestni) taftish tartibida ko'radigan sudning vakolatlari qat'iy belgilangan. Unga ko'ra, ushbu sud hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirish; hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni to'liq yoxud qisman bekor qilish va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilish; hal qiluv qarori, ajrim, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirish; ayrim asoslarga ko'ra (istisnolik mavjud) hal qiluv qarori, ajrim, qarorni bekor qilish va ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga yuborish; hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni to'liq yoki qisman bekor qilish va ushbu kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, arizani ko'rmasdan qoldirish yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatish; ayrim sud hujjatlarini bekor qilish va ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o'z kuchida qoldirishga haqli.

Xulosalar

Taftish instansiyasi sudiga oid materiallarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish o'rinli:

1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish" nomli 46-bobida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Plenum qarorida taftish tartibida shikoyat va protest keltirish mumkin bo'lmagan sud hujjatlari doirasi (masalan, sud buyrug'i, shikoyat (protest) keltirilishi mumkin bo'lmagan, qonunda ko'rsatilgan ajrimlar) ko'rsatilishi lozim;

2) Fuqarolik protsessual kodeksida hamda Plenum qarorida belgilanganidek, taftish tartibidagi shikoyat (protest) viloyat yoki unga tenglashtirilgan sud nomiga yo'llanadi, lekin sud hujjatini qabul qilgan sudga beriladi. Viloyat va unga tenglashtirilgan sud tomonidan taftish tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjati ustidan berilgan taftish tartibidagi shikoyat (protest) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha

sudlov hay'ati nomiga yo'llanadi va bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga beriladi. Sud hujjatini qabul qilgan sud shikoyatni (protestni) u kelib tushgan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda taftish instansiyasi sudiga ish bilan birga yuborishi shart.

Shundan kelib chiqqan holda, shikoyat va protestlarni sud hujjatini qabul qilgan sudga berish amaliyotini tugatish taklif qilinadi va quyidagi asoslar keltiriladi: sud hujjatini qabul qilgan sud taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) protsessual qonunning biror-bir talabiga mos emasligi asosi bilan qaytarish yoki uni qabul qilishni rad etishga haqli emas. Bu, o'z navbatida, sudlarda hech qanday vakolat yo'qligi, faqat ishlar bilan birga shikoyat, protestlarni yuqori sudga yuborish vazifasi yuklatilganini bildiradi.

Ushbu amaliyot bir necha yillardan buyon qo'llanib kelmoqda. Biroq sud instansiyala-

rida ish yuklamasining ko'pligi hamda ayrim chalkashliklarning oldini olish (ishlarning quyi va yuqori sud instansiyalarida bir necha bosqichlarda ko'rilishi), shu bilan birga, apellyatsiya, kassatsiya, taftish, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rish yuzasidan kelib tushadigan shikoyat (ariza), protestlarni qabul qilish hamda rasmiylashtirish tartib-taomillarini to'g'ri, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida viloyat yoki unga tenglashtirilgan sudlarda, shuningdek, Oliy Sud instansiyalarida alohida (maxsus) shikoyat (ariza) va protestlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish amaliyotini joriy etish, alohida yangi shtatlar ochish, ularga sudya katta yordamchilarini biriktirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ushbu vazifalarni doimiy yoki vaqtinchalik bajarishga sud apparati xodimlari va konsultantlarni jalb qilish yaxshi samara beradi.

REFERENCES

1. Borisova E.A. Teoreticheskiye problemy proverki sudebnykh aktov v rossiyskom grazhdanskom, arbitrazhnom protsessakh [Theoretical problems of verification of judicial acts in Russian civil and arbitration proceedings]. Doctoral Dissertation. Moscow, 2005.
2. Dzagurova M.D. Ekstraordinarnyye sposoby obzhalovaniya po grazhdanskomu zakonodatel'stvu Frantsii [Extraordinary methods of appeal under French civil law]. PhD thesis. Moscow, 2011.
3. Zaytsev S.B. Osnovaniya dlya otmeny vstupivshikh v zakonnyu silu sudebnykh aktov v grazhdanskom sudoproizvodstve [Grounds for the cancellation of judicial acts that have entered into legal force in civil proceedings]. 2014.
4. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural right]. Tashkent, 2010.
5. Esanova Z.N., Xabibullaev D.Yu., Salimova I.M. Sud ishlarini qayta tekshirish institutlari [Institutions for review of court decisions]. Tashkent, 2016, TSUL Publ., p. 119.
6. Zharkova V.V., Pleshanova A.G. Grazhdanskiy protsess [Civil procedure]. Moscow, 'Statut' Publ., 2017.
7. Krashennnikova P.V. Grazhdanskoye protsessualnoye pravo [Civil procedural law]. Vol. 1. Moscow, 'Statut' Publ., 2022.
8. Mokhov A.A., Vorontsova I.V., Semyonova S.Yu. Grazhdanskiy protsess, grazhdanskoye protsessualnoye pravo Rossii [Civil procedure, civil procedural law of Russia]. Moscow, 'Yuridicheskaya Firma Kontrakt' Publ., 2017.
9. Borisova E.A. Apellyatsiya, kassatsiya, nadzor po grazhdanskim delam [Appeal, cassation, supervision in civil cases]. Moscow, 'Norma INFRA-M' Publ., 2016.
10. Maleshin D.Ya. Sravnitel'nyy grazhdanskiy protsess [Comparative Civil Procedure]. Moscow, 'Statut' Publ., 2017.

11. Holovko L.V., Matyo B. Sud i gosudarstvo [The Court and the State]. Moscow, 'Statut' Publ., 2018.
12. Gadzhaliyeva N.Sh., Kurbanova G.M. Suschnost', tseli i zadachi nadzornogo proizvodstva v grazhdanskom protsesse [The nature, goals and objectives of supervisory proceedings in civil proceedings]. *Bulletin of Dagestan State University Social Sciences*, 2018, vol. 33 (3/4).
13. Knyazkin S.I. Ekstraordinarnyy kharakter deyatel'nosti nadzornoy sudebnoy instantsii v grazhdanskom i arbitrazhnom protsesse Rossii [The extraordinary nature of the activities of the supervisory court in the civil and arbitration process of Russia]. Moscow, 'Infotropic Media' Publ., 2015, p. 224.
14. Sakhnova T.V. Kurs grazhdanskogo protsessa. Teoreticheskiye nachala i osnovnyye instituty [Course of civil procedure. Theoretical principles and basic institutions]. Moscow, 2008, pp. 653–654.
15. Civil Procedure Law art. 73w, 2017.

Kelib tushgan / Получено / Received: 04.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 08.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI:10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./NUCI1185
UDC: 347.9(045)(575.1)

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROTSESSUAL ADOLAT VA PROTSESSUAL QONUNIYLIKNING O'ZARO TAHLILI

Habibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va
iqtisodiy protsessual huquqi
kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8355-3983
e-mail: davlat.xabibullayev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylik doktrinalari tahlil etilgan. Fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish tushunchalari huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida o'rganilgan. BMT rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" hamda sudlar tomonidan hal qiluv qarorlarining aniq, to'liq, asosli, adolatli, tushunarli qilib chiqarilishida huquqiy aniqlik prinsipi tahlil etilib, bu boradagi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilgan. Shuningdek, stare decisis (bir qarorda turish) doktrinasi huquqiy aniqlik prinsipini qo'llashda muhim hisoblanishi, ushbu doktrina gorizont va vertikal ravishda ishlashi tahlil etilib, huquqiy aniqlik prinsipi tushunchasiga ilmiy ta'rif hamda ushbu prinsipni amalga oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy qilish to'g'risida asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Xulosa qismida fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat protsessual qonuniylikdan ustun bo'lishi, o'z navbatida, adolatli sud qarorlarini qabul qilishda sudyaning chinakam mustaqilligini ta'minlash sudga kelgan har bir shaxsning odil sudlovga bo'lgan ishonchi ortishiga olib kelishi hamda kelgusida FPKning 2-bobiga yangi prinsip sifatida "Huquqiy aniqlik prinsipi" kiritilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik sudi, odil sudlov, sudya, protsessual adolat, protsessual qonuniylik, huquqiy aniqlik prinsipi, stare decisis (bir qarorda turish), fuqarolik protsessi, sud hal qiluv qarori, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari.

АНАЛИЗ ПРОЦЕССУАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ПРОЦЕССУАЛЬНОЙ ЗАКОННОСТИ В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются доктрины процессуальной справедливости и процессуальной законности в гражданском судопроизводстве. Концепции правильного, своевременного рассмотрения и разрешения гражданских дел изучались на основе научно-теоретических взглядов учёных-правоведов. Проанализированы «Основные принципы независимости судебных органов», утверждённые резолюцией ООН, а также принцип правовой определённости при вынесении судами решений в ясной, полной, обоснованной, справедливой и понятной форме, исследованы научно-теоретические взгляды учёных-правоведов на этот вопрос. Также проанализировано, является ли доктрина *stare decisis* (стоять на решённом) важной в применении принципа правовой определённости, каким образом эта доктрина работает по горизонтали и по вертикали. Разработаны научные определения понятия принципа правовой определённости, а также обоснованные предложения по поэтапному внедрению механизма реализации этого принципа. В заключительной части выдвигаются предложения и рекомендации о том, что процессуальное правосудие в гражданском судопроизводстве должно превалировать над процессуальной законностью, что, в свою очередь, обеспечит подлинную независимость судьи в принятии справедливых судебных решений, приведёт к повышению доверия к правосудию каждого лица, явившегося в суд, и что необходимо ввести в главу 2 Гражданского процессуального кодекса Республики Узбекистан в качестве нового принципа принцип правовой определённости.

Ключевые слова: гражданский суд, правосудие, судья, процессуальная справедливость, процессуальная законность, принцип правовой определённости, *stare decisis* (стоять на решённом), гражданский процесс, судебный акт, задачи гражданского судопроизводства.

MUTUAL ANALYSIS OF PROCEDURAL FAIRNESS AND PROCEDURAL LEGALITY IN THE CONDUCT OF CIVIL COURT CASES

Khabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich,
Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law (DSc), Professor

Abstract. This article analyzes the doctrines of procedural fairness and procedural legality in the conduct of civil court cases. The concepts of correct and timely consideration and resolution of civil cases were studied on the basis of the scientific and theoretical views of legal scholars. The “Basic Principles of Independence of Judges” approved by the UN resolution, as well as the principle of legal certainty in clear, complete, reasonable, fair, and understandable adjudication by courts, as well as the scientific-theoretical views of legal scholars on this subject, were analyzed, and the significance of the doctrine of *stare decisis* (standing in one decision) in the application of the principle of legal certainty, the horizontal and vertical functioning of this doctrine, the scientific definition of the concept of the principle of legal certainty, and reasonable proposals for the gradual introduction of the mechanism of implementation of this principle have also been analyzed. In conclusion, it should be noted that procedural fairness is superior to procedural legality in the conduct of civil court cases, in turn ensuring the true independence of the judge in making fair judgments, increasing the confidence of each person applying to the court in the justice system, and in the future “the principle of legal certainty” will be added to Chapter 2 of the Code of Civil Procedure as a new principle.

Keywords: civil court, justice, judge, procedural fairness, procedural justice, principle of legal certainty, *stare decisis*, civil process, court decision, tasks of civil proceedings.

Kirish

Dunyoda World Justice Project xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan mamlakatlarining Huquq ustuvorligi indeksida (Rule of law) fuqarolik odil sudlov “fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasining yuqoriligi, fuqarolik odil sudlovning diskriminatsiyadan xoliligi, korrupsiyasiz fuqarolik odil sudlov, fuqarolik odil sudlovning bepulligi va hukumatning nomuvofiq ta'siridan xoliligi, fuqarolik odil sudlovning asossiz kechiktirishlarsiz amalga oshirilishi, fuqarolik odil sudlovning samarali olib borilishi, nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlarning ishlash samaradorligi va xolisligi kabi muhim indikatorlar orqali aniqlanmoqda” [1].

Bugungi kunda dunyoda sud ishlari yuritishni kechiktirish va xarajatlarini kamaytirish, sud qarorlarining jamiyatga ijobiy ta'siri, sud qarorlarida huquqiy aniqlik prinsipini qo'llash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida fuqarolik protsessida klassik turg'unlik nazariyasi modelidan zamonaviy argumentatsiya nazariyasi modeliga o'tish, sud tizimidagi turli xil tashqi, strategik ta'sirlarning oldini olish, fuqarolik sud ishlari yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish davr talabidir.

Jahonda turli huquqiy tizimlar va doktrinalar protsessual muammolarni ko'pincha sud jarayonlarini tartibga soluvchi tegishli jarayonlar hamda qoidalarni takomillashtirish va rivojlantirish orqali hal etmoqda. Bunda fuqarolik sud ishlari yuritish va odil sudlov samaradorligini oshirishda Due process [2] (qonunga muvofiq, shaxslarga adolatli va xolis munosabatda bo'lish), Res Judicata [3] (hal qilingan ish), Procedural fairness [4] (protsessual adolat), Procedural-justice [5] (protsessual odil sudlov) huquqiy doktrinolari hamda Open justice (ochiq odil sudlov) va Open court principle [6] (ochiq sud tamoyili) prinsiplarini tatbiq qilishga doir tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. Fuqarolik sud ishlari yuritishga oid protsessual muammolar

muayyan ilmiy metodologik yondashuvlarni o'rganish va tahlil etishni taqozo etadi.

Material va metodlar

Tadqiqotda tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Respublikamizda mazkur huquqiy doktrina va prinsiplar mazmun-mohiyatini fuqarolik protsessual qonunchilikka singdirish, sud hujjatlarini qabul qilishda adolatni ta'minlash, fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi ortishi bo'yicha sohada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmonlarida ham fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, suda bir guruh shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ishlarini ko'rishning protsessual tartib-taomillarini belgilash, da'vo, buyruq va alohida tartibda ish yuritishda sud amaliyotida kelib chiqayotgan muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Sud statistik ma'lumotlariga ko'ra, “fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar (sud buyruqlari bilan birga) soni respublika bo'yicha 2020-yilda 291 132 ta, 2021-yilda 518 087 ta, 2022-yilda 863 883 ta, 2023-yilda 943 892 tani tashkil etgan” [7]. Yildan yilga fuqarolik ishlari soni ortib borishi esa, o'z navbatida, sudyalarning ish hajmi va yuklamalari ortishi, pirovardida odil sudlovning samarali amalga oshirishiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu fuqarolik sud

ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 2-moddasiga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlarini, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish;

- qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, demokratiya, ijtimoiy adolat, fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlashga ko'maklashish;

- qonun va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish.

Yuqorida ko'rsatilgan fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy vazifalari, maqsadlari umumlashtirilgan shaklda fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishning zarur va kutilgan natijasi to'g'risidagi butun jamiyat g'oyalarini ifodalaydi. Fuqarolik protsessual huquqning barcha boshqa normalari hamda protsess subyektlari faoliyati fuqarolik sud ishlarini yuritishning qayd etilgan umumiy vazifalari va maqsadlariga zid bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari ham odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirishni kafolatlaydi.

Huquqshunos olim Sh.Sh. Shoraxmetov: "Fuqarolik sud ishlarini yuritish (fuqarolik protsessi) vazifalari fuqarolarning shaxsiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlarini, qonun bilan

qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdan iboratdir", deb ta'kidlaydi [8].

M.M.Mamasiddiqovning fikricha, "fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalari fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish va bu bilan fuqarolarni qonunlar, huquq normalarini bajarishga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi" [9].

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, fuqarolik sud ishlarini yuritishning asosiy vazifasi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdir. Sud va fuqarolik protsessi boshqa ishtirokchilarining protsessual faoliyatini maqsadli yo'naltirishning bunday ketma-ketligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-, 19-, 20-, 24-moddalarida belgilangan inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarining ustuvor ahamiyati to'g'risidagi qoidalariga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 2-moddasida keltirilgan ishlarni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda hal qilish bo'yicha umumiy vazifalar barcha fuqarolik sud ishlarini yuritishning yakuniy maqsadlariga erishish vositasidir. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichidagi vazifalarning o'zi ham protsessual qonunda belgilangan aniq vazifalarni bajarish orqali erishiladigan yakuniy maqsadlar sifatida tushuniladi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan asosiy va fakultativ maqsadlar yakuniy bo'lib, butun fuqarolik protsessi davomida o'zgarishsiz qoladi. Ularga umumiy vazifalarni amalga

oshirish orqali erishiladi, shuningdek, har bir protsessual harakatning to'g'ri, o'z vaqtida bajarilishi talabi sifatida fuqarolik ishi qo'zg'atilgandan boshlab va u tugagunga qadar amal qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi FPKning 2-moddasiga muvofiq, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalaridan biri fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdir.

O.P. Chudayevaning fikricha, "fuqarolik protsessining umumiy vazifasi sifatida fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqish, hal qilish talablari bilan bir qatorda, fuqarolik ishlarini adolatli ko'rib chiqish hamda hal qilishni ham mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq. Sud tomonidan ishni adolatli ko'rib chiqish va hal qilish talabi fuqarolik ishini to'g'ri ko'rib chiqish va hal qilish vazifasining ajralmas qismi emas. Chunki ishni mohiyatan ko'rib chiqish, hal qilish va qaror qabul qilishda sud o'z diskretion vakolatlarini (ixtiyoriy) qo'llashi mumkin" [10].

M. Tojiboyev esa "Yangi FPKda sud hujjatining adolatli ekanligini tekshirish bilan bog'liq atama sakkiz marotaba qo'llangan bo'lib, ular FPKning "Sud hujjatlarini qayta ko'rish" deb nomlangan IV bo'limidagi normalarda o'z ifodasini topgan. Bu esa 2018-yil 1-apreldan boshlab amal qilib kelayotgan O'zbekiston Respublikasining yangi FPKga sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozimligini belgilovchi alohida norma kiritilishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi 12-sonli qarorida sud hujjatlarining qonuniy va asosli bo'lishi bilan birgalikda adolatli bo'lishi mezonlari nimalarda namoyon bo'lishi yuzasidan tushuntirish berilishini taqozo etadi", – deydi [11].

Bu borada O.P. Chudayeva va M.M. Tojiboyevlarning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish kerakki, fuqarolik ishlarini adolatli ko'rib chiqish odil sudlovni amalga oshirish-

da fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi ortishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sud tomonidan ishlarni ko'rib chiqishda protsessual adolatni ta'minlash bo'yicha ilmiy doktrinalar mavjud. Bu borada turli huquqiy tizim va doktrinalar protsessual muammolarni har xil yo'l bilan hal qiladi. Masalan, Due process (tegishli jarayon) huquqiy doktrinasiga qonunga muvofiq, shaxslarga adolatli va xolis munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu doktrinaning fuqarolik protsessida qo'llanishida taraflarni ogohlantirish va tinglash imkoniyati yaratiladi, odil sudlovga bo'lgan huquq (tomonlar xolis sudda ishtirok etish huquqiga ega va ular dalillarni taqdim etish, guvohlarni so'roq qilish va agar xohlasalar, advokat tomonidan himoyalaniş huquqiga ega), dalillar taqdim etish, yuridik vakillik huquqi, shikoyat qilish huquqi, adekvat himoya vositalari (fuqarolarning fuqarolik ishlari bo'yicha tegishli himoya vositalaridan foydalanish imkoniyati)ni ta'minlaydi [12].

Procedural-justice (protsessual odil sudlov) doktrinasiga protsessual qonuniylik deb ham ataladi. Ushbu doktrina quyidagi to'rtta asosiy ustunni qamrab oladi: voice (ovoz) – hammaga voqeaning o'ziga tegishli tomonini aytib berish imkoniyati beriladi; respect (hurmat) – barcha shaxslarga hurmat ko'rsatiladi; neutrality (neytrallik) – qarorlar xolis, izchil va shaffof mulohazalar asosida qabul qilinadi; trustworthiness (ishonchlilik) – ishonchli dalillar va fikrlar ta'siri asosida qaror qabul qilishni bildiradi [13].

Procedural fairness (protsessual adolat) huquqiy doktrinasiga ko'ra, sud fuqarolik ishini ko'rayotganda, sudya o'zining ichki ishonchiga tayanib qaror qabul qilishi, qarorlar xolis va adolatli bo'lishi kerak. Mazkur doktrinada protsessual adolat protsessual qonuniylikdan ustun turadi hamda ushbu doktrina sudyaga qaror qabul qilishda juda katta mustaqillik va erkinlik beradi.

Qolaversa, BMT rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari"da ham "Sud organlari mus-

taqilligi prinsipi sud organlariga sud muhokamasining adolatli o'tkazilishi hamda taraflarning huquqlari hurmat qilinishini ta'minlash huquqini beradi va talab qiladi" [14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning: "Sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak. Bu Prezident talabi!" – deya ta'kidlab o'tgani ham bejiz emas [15].

Protsessual adolat to'g'risida huquqshunos olimlar ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Xususan, S.V. Kornakovaning fikricha, "odillik ham ma'naviy, ham huquqiy ong kategoriyasi hisoblanadi, shu sababli mazkur ijtimoiy faoliyat majburiyat nuqtayi nazaridan ham ifodalanadi. Adolat huquq fenomeni, ya'ni huquqning asosiy negizini belgilovchi tushunchadir. Adolatli bo'lmas ekan, har qanday huquq tizimi yoki qonun hujjati qachondir yo'qlikka mahkumdur. Chunki jamiyat bunday huquq tizimini yo'q qilib yuborish kuchiga ega. Shu sababli huquqning barcha sohalarida adolat mavjud bo'lishiga alohida ahamiyat qaratilgan" [16].

Adolat to'g'risidagi mazkur fikrlar aslida, huquq, qonun va boshqa umummajburiy qoida va boshqa tuzilmalar faqatgina adolat o'rnatish, unga amal qilish, buzilganda tiklash kabi jamiyat va undagi shaxslar uchun zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlar uchun ishlab chiqilganligini ifodalaydi. Har qanday huquqiy o'zgarish, yangilik zahirida faqat adolatga intilish yotadi. "Fuqarolik sudlarida adolat tamoyiliga amal qilish boshqa sud protsesslari kabi majburiy hamda o'ta darajada ahamiyatlidir. Negaki o'zi himoya qilayotgan ijtimoiy munosabatlar farqiga ko'ra, fuqarolik sudlari mulkiy va tadbirkorlik bilan bog'liq ishlarni ko'radi shu sababli moddiy hayotni harakatlantiruvchi kuch bo'lgan mulkka nisbatan shaxslarning e'tibori va muhtojligi har doim yuqori bo'lib keladi. Jamiyatda mulkka nisbatan o'z egasining qadrigimmi, obro'si va hattoki sog'lig'idan ham ba'zi hollarda ustun bo'lib borgan dunyo-

qarash yoki muhtojlik mavjud bo'lar ekan, unga tegishli muammo, nizo yoki bahs har qachongidan ham adolatli bo'lishi nihoyatda zarur" [17].

"Odillik bilan ish ko'rish davlat hokimiyati va jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim omildir. Bu omil sud organi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bevosita fuqarolar bilan ishlovchi sudlar – fuqarolik sudlarida ham muhim ahamiyat va rolga ega. Negaki fuqarolarning sudga murojaat qilishdan yagona maqsadi adolatni o'rnatish yoki tiklash hisoblanadi. Agar avvaldan ular o'rtasida adolat bilan ish ko'rilganda, muammo sudgacha yetib kelmagan bo'lardi. Sud organi haqida gap ketganda, barcha shaxslar ko'z oldiga adolatni tiklovchi, qonunlar bilan ishlovchi, muammoning barcha tafsilotlarini o'rganib, xolis qaror qabul qiluvchi hakamlik organi keladi" [18].

Yuqoridagi Procedural fairness (protsessual adolat) huquqiy doktrinasi xususiyatlari, xalqaro huquqiy hujjat hamda huquqshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, odil sudlovni amalga oshirishda milliy protsessual qonunchiligimizda ham fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, sudyalarning ma'naviy yuksak, halol, adolatli, ishonchga loyiq deb qabul qilinishi uchun protsessual adolatni fuqarolik sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalaridan biri sifatida mustahkamlash vaqti keldi.

Hozirgi kunda sudlar tomonidan sud hal qiluv qarorlarining aniq, to'liq, asosli, adolatli, tushunarli qilib chiqarilishida huquqiy aniqlik prinsipi yetishmaydi. Chunki ushbu prinsip mazmun-mohiyati, tushunchasi to'g'risida FPKda hech qanday qoida belgilanmagan.

S. Lewisning fikricha, "Butun dunyoda huquqiy aniqlik prinsipini qo'llash dolzarb bo'lib qolmoqda (huquqiy aniqlik prinsipi barcha uchun aniq va adolatli o'yin qoidalarini belgilash va ta'minlashni nazarda tutadi)" [19].

S. Solanki "Huquqiy aniqlik, avvalo, sudlar tomonidan normalarni aniq qo'llashda namo-

yon bo'ladi. Bunday aniqlikka erishish uchun quyi sudlar xatolarini kamaytirish va sud amaliyotining bir maromdaligini ta'minlash uchun stare decisis doktrinasini qo'llash zarur", – deb ta'kidlaydi [20].

K.T. Lashning fikricha esa "qonun normalari mavhumligi, xilma-xilligi, tez o'zgarishi, qonun chiqarish faoliyatining kengligi hamda unda professionallikni ta'minlash qiyinligi (populizm va lobbizm kuchliligi) turli noaniqliklar, normalar ziddiyati, shuningdek, sud amaliyotida ham chalkashliklarga olib kelmoqda" [21].

Bu borada B. Xodjayev quyidagi fikrni ilgari suradi: "O'zbekistonda normalarning tez o'zgarishi, turlicha talqin qilinishi, ularni qo'llashdagi ziddiyatlar huquqiy aniqlikni qaror toptirishni eng muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Huquqiy aniqlik va barqarorlik-siz esa islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Huquqiy aniqlik esa stare decisis doktrinasida hamda sudlar mustaqilligi, qonuniylik prinsiplari uyg'unligini taqozo etadi" [22].

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, stare decisis (bir qarorda turish) doktrinasida huquqiy aniqlik prinsipini qo'llashda muhimdir. Ushbu doktrina sudlar o'z qarorlarini qabul qilishda sud pretsedentiga amal qiladigan doktrina hisoblanadi. "Stare decisis" lotin tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganda, "to stand by things decided", ya'ni "bir qarorda turish" degan ma'noni anglatadi.

Mazkur doktrina gorizontal va vertikal ravishda ishlaydi. Gorizontal qarash qarori o'z pretsedentiga rioya qilgan sudni anglatadi. Sud yuqori suddan pretsedentni qo'llaganda vertikal qarash qarorini qabul qiladi [23].

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar asosida huquqiy aniqlik prinsipi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Huquqiy aniqlik prinsipi deganda sudlarning sud hal qiluv qarorini protsessual huquq va moddiy huquq normalarini aniq, to'g'ri, adolatli qo'llagan holda, nizoning kelib chiqish sa-

bablariga huquqiy baho berish va ularning oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha huquqiy choralar qo'llash yuzasidan chiqarishi tushuniladi".

O'zbekistonda ham huquqiy aniqlik prinsipini fuqarolik protsessual qonunchilikda mustahkamlash vaqti keldi. Chunki sud hal qiluv qarorlarining aniq, adolatli hamda taraflarga tushunarli bo'lishida ushbu prinsipning ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarorida tushuntirish berilishicha, "FPK 253-moddasining to'rtinchi qismiga asosan, hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida sud tomonidan aniqlangan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar ko'rsatilishi lozim. Hal qiluv qarorida sud foydasiga hal qiluv qarori qabul qilgan tarafning vajlari va dalillarining bir tomonlama bayon etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sud qaysi asoslarga ko'ra boshqa tarafning vajlari sud tomonidan qabul qilinmaganligini ko'rsatishi shart. Sud hal qiluv qarorida ish uchun ahamiyatga ega u yoki bu holatlar tasdiqlanadigan dalillar ko'rsatib o'tilishi bilan chegaralanmasdan, balki bu dalillarning mazmuni bayon etilishi shart. Agar sud dalillarga baho berib, taraflar o'zlarining talab va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlar u yoki bu faktik ma'lumotlar bilan tasdiqlanmaganligini aniqlasa, hal qiluv qarorida bu haqdagi xulosasini asoslantirishi lozim". Ushbu Plenum qarorida ham sud hal qiluv qarorini asoslantirish qismi bo'yicha tushuntirish berilsa-da, sud hal qiluv qarorida ko'rilayotgan ishning (nizoning) kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish bo'yicha aniq profilaktik choralar ko'rilishi to'g'risida, ya'ni huquqiy aniqlik prinsipi bo'yicha tushuntirish berilmagan. Bizningcha, ushbu prinsipni amalga oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy qilish, ya'ni "Oliy Sud Plenumi qarori – umumlashma – hal qiluv qarori" asosida joriy etish maqsadga muvofiq. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorida dastlab fuqarolik ishi (nizo)ning kelib chiqish sabablari (masalan, nikohdan ajra-

tishda asosiy sabab sifatida ijtimoiy tarmoq yoki boshqa sabab bo'lishi mumkin), nima maqsadida sud amaliyotida ushbu ishlar keskin ko'payib borayotganligi va ularning oldini olish bo'yicha rahbariy tushuntirishlar berilishi kerak. Undan keyin ushbu turdagi ishlar bo'yicha umumlashmalar o'rganib chiqilishi lozim. Sudlar mazkur turdagi ishlar bo'yicha hal qiluv qarori chiqarayotganda bu masalani huquqiy aniqlik prinsipi asosida bayon etishi, asoslantirishi zarur. Shuningdek, bizningcha, kelgusida FPKning 2-bobiga yangi "Huquqiy

aniqlik prinsipi"ning kiritilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qildigan bo'lsak, fuqarolik protsessida protsessual adolat protsessual qonuniylikdan ustun bo'lishi, o'z navbatida, sudyaning adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishishda chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudga kelgan har bir shaxsning odil sudlovga bo'lgan ishonchining ortishi, har bir shaxs sud va sudyalari siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishiladi.

REFERENCES

1. Siyosiy-huquqiy sohadagi xalqaro reyting va indeksning sharhi [Review of international rankings and indices in the political and legal sphere]. Tashkent, 'Akadem' Publ., 2023, p. 32.
2. Due process. Available at: https://www.law.cornell.edu/wex/due_process
3. Huquq olami [The world of law]. Tashkent, 'Yuridik adabiyotlar' Publ., 2023, pp. 150–165.
4. Galligan D.J. Due Process and Fair Procedures. A Study of Administrative Procedures. *Oxford Journal of Legal Studies*, 1998, vol. 18 (3), pp. 497–515.
5. Procedural Justice. Available at: <https://law.yale.edu/justice-collaboratory/procedural-justice>
6. Cunliffe E. Open Justice: Concepts and Judicial Approaches. *Allard School of Law at the University of British Columbia*, 2012, vol. 40, pp. 386–411.
7. Statistical information of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan on the number of cases, including court orders heard in the first instance by the civil courts in the Republic. Available at: <https://stat.sud.uz/fib.html>
8. Shoraxmetov Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSUL Publ., 2016, p. 13.
9. Fuqarolik protsessual huquq [Civil procedural law]. Tashkent, Academy of the Prosecutor General's Office, 2020, p. 13.
10. Chudayeva O.P. Realizatsiya zadach grazhdanskogo sudoproizvodstva v stadii sudebnogo razbiratel'stva [Implementation of civil litigation tasks at the trial stage]. Moscow, 2009, p. 8.
11. Tojiboyev M.M. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarining nazariy va amaliy masalalari [Theoretical and practical issues of court decisions on civil cases]. Tashkent, 2020, p. 17.
12. Cornell law school due process. Available at: https://www.law.cornell.edu/wex/due_process
13. Community-Oriented Trust and Justice Briefs. Procedural Justice. Available at: <https://portal.cops.usdoj.gov/resourcecenter/ric/publications/cops-w0795-pub.pdf>
14. The main principles of the UN regarding the independence of judicial bodies. On crime prevention and dealing with criminals. 1985. Available at: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-independence-judiciary>
15. Prezident – adolat, korruptsiya, xususiy mulkni himoya qilish [President on justice, corruption, protection of private property]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/30/justice/>
16. Kornakova S.V. K voprosu o printsipe spravedlivosti [To the question of the imprint of justice]. *Siberian Criminal-procedural and Criminalistic Litigations*, 2014, p. 64.

17. Nekrasov S.Yu. Kalinovskaya D. S. Spravedlivost' kak printsip grazhdanskogo sudoproizvodstva [Justice as a principle of civil proceedings]. *The Verb of Justice*, 2016, no. 2/12, p. 14.
18. Theophilopoulos C. Van Heerden C.M., Boraine A., Rovan A.W.T. Fundamental principles of civil procedure. LexisNexis. Durban, 2020, p. 62.
19. Lewis S. Precedent and the Rule of Law Author Notes. *Oxford Journal of Legal Studies*, 2021, vol. 41 (4), pp. 873–898.
20. Solanki S. What is stare decisis in simple terms? Available at: <https://legal.thomsonreuters.com/blog/the-doctrine-of-stare-decisis>
21. Lash K.T. Originalism, Popular Sovereignty and Reverse Stare Decisis. *University of Richmond*, 2007, vol. 93/1437, pp. 1438–1471.
22. Xodjayev B.K. O'zbekistonda sud pretsedenti: huquqiy aniqlik va stare decisis doktrinasi. [Judicial precedent in Uzbekistan: legal certainty and the doctrine of stare decisis]. *Jurisprudence*, 2023, no. 3, p. 22.
23. Stare decisis. Available at: https://www.law.cornell.edu/wex/stare_decisis/

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./JLGD4872

UDC: 346.1+004.9(045)(575.1)

IQTISODIY PROTSESSDA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHGA KO'MAKLASHUVCHI SHAXSLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

Xudoynazarov Dadaxon Avaz o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-1571-1839
e-mail: dadaxon.xudoynazarov92@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud eksperti, mutaxassis, tarjimon faoliyati va guvohlar ko'rsatmalarini raqamlashtirish, axborot texnologiyalarining ular faoliyatida tutgan o'rni, raqamlashtirishga oid muammolar hamda yechimlar o'rganildi. Iqtisodiy jarayondagi odil sudlovni ta'minlashda raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari, dasturlar, ilovalar, elektron (masofaviy) platformalar hamda aloqa vositalarini qo'llash orqali ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatini isloh qilish masalalari bo'yicha xalqaro doktrinalar, olimlarning fikr va mulohazalari ko'rib chiqildi. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan o'tkazilayotgan ekspertiza tadqiqotlarida ularni qo'llash, sud majlisida videokonferensaloqa rejimida ishtirok etish huquqini amalga oshirish, kar-soqovlar uchun surdo va subtitrlar xizmatlari, tarjimonning tarjima xizmatini taqdim etish, guvoh ko'rsatuvini aniqlash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etishda ekspert xulosasi olish hamda elektron hujjatlarning xavfsiz aylanishini ta'minlash tadqiq qilindi. Amaliy jihatlari, qonunchilikdagi o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek, sudlov jarayoniga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash hamda raqamlashtirish sohasida xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil etildi. Maqola yakunida esa amaldagi protsessual qonunchilik hamda sud amaliyotini takomillashtirish yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: ekspert, tarjimon, guvoh, raqamlashtirish, elektron, videokonferensaloqa, sun'iy intellekt, masofaviy, platforma, ilova, dastur.

ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ, СОДЕЙСТВУЮЩИХ ОСУЩЕСТВЛЕНИЮ ПРАВОСУДИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Худойназаров Дадахон Аваз угли,
преподаватель кафедры «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы цифровизации деятельности судебных экспертов, специалистов и переводчиков, а также показаний свидетелей, роль информационных технологий в этом направлении, проблемы и решения, связанные с цифровизацией. Рассмотрены мировые доктрины, мнения учёных по вопросам реформирования

деятельности лиц, содействующих осуществлению правосудия в экономическом процессе, посредством цифровизации и использования технологий искусственного интеллекта, программ, приложений, электронных (дистанционных) платформ и средств связи, в том числе их применения при экспертных исследованиях, проводимых Республиканским центром судебных экспертиз имени Х. Сулеймановой, реализации права на участие в судебном заседании в режиме видеоконференцсвязи, предоставлении услуг сурдоперевода и субтитров для глухонемых, определении свидетельских показаний, установлении свидетелей, осуществлении перевода переводчиком, получении экспертного заключения, удалённом участии в судебных заседаниях и обеспечении безопасного обращения электронных документов. Проведён сравнительный анализ практических аспектов, последних изменений и дополнений в законодательстве, а также опыта зарубежных стран в области цифровизации и применения современных информационных технологий в деятельности лиц, содействующих судебному процессу. В заключении статьи были даны выводы, предложения и рекомендации по совершенствованию существующего процессуального законодательства и судебной практики.

Ключевые слова: эксперт, переводчик, свидетель, цифровизация, электронный, видеоконференцсвязь, искусственный интеллект, удалённый, платформа, приложение, программа.

ISSUES OF DIGITALIZATION OF THE ACTIVITIES OF PERSONS ASSISTING IN THE IMPLEMENTATION OF JUSTICE IN THE ECONOMIC PROCESS

Khudoynazarov Dadakhon Avaz ugli,
Teacher of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the activities of court experts, specialists, interpreters, and the digitization of witness testimonies, the role of information technology in their activities, the problems related to digitization, and solutions. It discusses international doctrines, opinions, and observations of scholars on the reform of the activities of assisting persons in ensuring fair justice in economic processes through the application of digitization and artificial intelligence technologies, programs, applications, electronic (remote) platforms, and communication tools. The application of these technologies in expert investigations conducted by the Republican Forensic Examination Center named after X. Sulaymanova, the exercise of the right to participate in court hearings in videoconference mode, the provision of sign language and subtitle services for the hearing-impaired, the translation services of interpreters, the identification of witness statements, obtaining expert opinions remotely, and ensuring the secure circulation of electronic documents were studied. Practical aspects, legislative changes and additions, as well as the use of modern information technologies in the activities of assisting persons in the judicial process, and the comparative analysis of the experience of foreign countries in the field of digitization were examined. The article concludes with conclusions, suggestions, and recommendations on improving the current procedural legislation and judicial practice.

Keywords: expert, interpreter, witness, digitization, electronic, videoconference, artificial intelligence, remote, platform, application, program.

Kirish

Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi ishtirokini raqamlashtirish bugun zaruratga aylandi. Sudda ekspertlar

faoliyatini zamon talablariga mos ravishda raqamlashtirish, iqtisodiy sudda guvoh ko'rsatuvini aniqlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, tarjimon tarjima xizmatini amalga oshirayotganda,

dasturlar va ilovalarni qo'llash kabi masalalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Huquqshunos olimlarning (S.S. Gulyamov va A.S. Sidiqov, O. Pirmatov, Emiy Seylzy, K.L. Brano-vitskiy) tadqiqot ishlarida ham aynan shu masalaga urg'u berilgan.

Sudlar faoliyati va jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, elektron texnologiyalar yordamida odil sudlovga erishish, shu orqali sudlar samaradorligini oshirish va elektron sud jarayonlari tobora kengayib bormoqda. Hozirgi paytda odil sudlovni raqamlashtirish jarayoni ikki asosiy shaklda amalga oshirilmoqda: birinchisi – elektron sudlov tizimi yaratish; ikkinchisi – sud qarorlari (hujjatlari)ni qabul qilishda sun'iy intellektdan foydalanish. Bu borada huquqiy asoslar yaratilgan va jarayonni takomillashtirish davom etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni (2022), "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-sonli Farmoni (2023), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni (2020), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2017)ga asosan, sud tizimini to'liq raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish hamda elektron hujjatlarning xavfsiz aylanishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Material va metodlar

Raqamlashtirish bilan bog'liq ushbu muammolarni yoritishda tarixiy, tahliliy, qi-

yosiy, analogiya, tizimli-funksional, model-lashtirish metodlaridan foydalanildi. Maqola-ning tadqiqot obyekti sifatida iqtisodiy protsessda ekspert ishtirokiga oid barcha jarayonlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda Adliya vazirligi huzurida-gi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan ekspertiza tadqiqotlarida "EnCase forensic", "Belkasoft Evidence Centre X" va "ACElab PC-3000 portable II" maxsus dasturiy ta'minotlaridan foydalanib kelinmoqda [1]. Tadqiqot o'tkazish jarayonida sud ekspertlarining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib xulosa berishi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli chiqishiga olib keladi.

Ko'plab xorijiy davlatlarda ham sud ekspertlari faoliyatida bir qancha dasturlar, platforma (ilova)lardan foydalanilishi dalillarni isbotlash imkonini bermoqda. Xususan, sud ekspertlari uchun mo'ljallangan "EnCaseForensic" dasturidan foydalanish muhim hisoblanadi [2]. Ushbu dastur qattiq disklardagi dalillarni tiklash uchun ishlatiladi, bu esa sud ekspertiga hujjatlar, rasmlar va boshqa ma'lumot (dalillar)larni to'plash uchun foydalanuvchi fayllarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Dastur yordamida sud ekspertlari tadqiqot o'tkazish bilan birga yangi mutaxassislarni tayyorlashi va sertifikat berishi mumkin.

"Belkasoft Evidence Center X" barcha turdagi raqamli media qurilmalari va ma'lumotlar manbalari, jumladan, kompyuterlar, mobil qurilmalar hamda bulutlarda chuqur tekshiruvlar o'tkazish, shifrlangan qurilmalarga kirish uchun qo'llanadi. "ACElab PC-3000 portable II" HDD formatda ma'lumotlarni tiklash va qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi. Mazkur dasturiy ta'minot 129 ta mamlakatga sotilgan va ular bundan foydalanib kelmoqda.

"Forensic Toolkit" – sud ekspertlari uchun mo'ljallangan yana bir dastur. U har xil ma'lumotlarni qidirib, qattiq diskni skaner-

laydi hamda o'chirilgan elektron pochta manzillarini aniqlashi mumkin, shuningdek, shifrlashni buzish imkoniga ega [3].

Elektron ma'lumot o'zining nomoddiy shakli, hajmi va doimiyliги bilan qog'oz axborotdan farq qiladi. Elektron ma'lumotlar, odatda, qog'oz hujjatlarda uchramaydigan ma'lumotlar bilan birga keladi va ular dalil sifatida muhim rol o'ynashi mumkin. Shu o'rinda sud jarayoni uchun muhim ma'lumotlarni oldindan tekshirish maqsadida "eDiscovery" elektron platformasidan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Elektron shaklda saqlanadigan har qanday ma'lumotlar umumiy "eDiscovery" qoidalariga muvofiq ishlab chiqarilishi mumkin [4]. Ushbu turdagi ma'lumotlar elektron pochta va ofis hujjatlari (elektron jadvallar, taqdimotlar, hujjatlar, PDF-fayllar va boshqalar) fotosuratlar, videolar, tezkor xabarlar, hamkorlik vositalari, matn, xabar (SMS) almashish ilovalari, ijtimoiy media vaqtinchalik xabarlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Bir nechta dasturlar sud ekspertlarining tadqiqot olib borishida foydali hisoblanadi. Yuzni tanib olishga mo'ljallangan "OpenFace", "FaceID", "NEC" va "Cognitec" texnologiyasi suratlar yoki videolardagi yuz qiyofalarini aniqlash va taqqoslash uchun qo'llanadi. Sud ekspertlari asl nusxada ko'rinmaydigan ma'lumotlar va tafsilotlarni ochish uchun tasvir sifatini oshirish, kontrast va yorqinlikni kuchaytirish, aniqlashtirish yoki sozlash uchun tasvirni yaxshilash usullaridan foydalanadi. Jumladan, "Adobe Photoshop", "Amped FIVE" va "ImageJ" kabi dasturlar, odatda, tasvirni yaxshilash uchun ishlatiladi. Aniqlikni oshirish va tahlil uchun qulayroq qilish yoki beqaror videotasvirlarni barqarorlashtirish maqsadida "Adobe Premiere Pro", "Final Cut Pro" va "Mercalli" kabi maxsus videostabilizatsiya vositalari qo'llanadi. Rasmlar yoki videolardagi aniq obyektlar yoki naqshlarni aniqlash va kuzatish, har bir obyektни nomma-nom aytib o'tishi uchun vizual "TensorFlow" va "Yolo" (faqat bir marta qaraladi) ilo-

valari kabi ochiq manbali kutubxonalardan foydalaniladi [5].

Sud ekspertlarining sud organlari bilan hamkorligini ta'minlash, ularning birgalikda ishlashi, ma'lumotlar, o'quv materiallari, resurslar va ilg'or tajribalarni almashishishi va sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishda xavfsiz, samarali vositalarni taqdim etish uchun hamkorlik platformalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Platformalar xavfsiz muhitda aloqa va hamkorlikni soddalashtirishga yordam beradi. Sud ekspertlari foydalanishi mumkin bo'lgan mashhur hamkorlik platformalariga (ilovalari) quyidagilar kiradi: "Microsoft Teams", "Slack, Zoom", "Google Workspace" (formerly G Suite), "SharePoint", "Jira", "Confluence". Mazkur platformalar sud ekspertlariga sud jarayonida masofaviy ishtirok etish va unda qasamyod qabul qilish yoki tasdiqlash bayonnomalari tuzish imkonini beradi. Bunda sudlar qasamyod qilish yoki tasdiqlashdan oldin masofaviy ekspertning shaxsini tekshirish tartib-qoidalarini amalga oshirishi mumkin. "Verification of Identity" platformasi (ilova) shaxsni tasdiqlashda video orqali pasport yoki haydovchilik guvohnomasi kabi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, dalillarni taqdim etishda 3D formatdagi fotografiya vositalaridan foydalanish va ma'lumotlarning shu orqali ekspertiza tekshiruvi uchun berilishi maqsadga muvofiq. Sudga olib kelish imkoniyati bo'lmagan yoki olib kelinishi qiyin bo'lgan dalillar, shuningdek, tez buziladigan ashyoviy dalillarni sud ular turgan joyda ko'zdan kechirishi va tekshirish joyi, vaqtini 3D formatda fotosurat ko'rinishida aks ettirishi lozim [6]. 3D modellash tirish xorijiy davlatlar, jumladan, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Belarus, Xitoy, Germaniya, Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSHda qo'llanib kelmoqda.

Sudga olib kelish imkoniyati bo'lmagan yoki olib kelinishi qiyin bo'lgan dalillarni tekshirishda mutaxassis, ekspert faoliyatida dronlardan (uchuvchisiz boshqariladigan

moslamalardan) foydalanish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Ushbu holat dallalarni obrazli rasmga olish va ular ketma-ketligini anglash imkoniyati hamda tasvirni ob-havo sharoitiga moslashgan holda olish imkonini beradi. 3D modellash tizimida bevosita joydagi sahna va undagi obyektlarni rekonstruksiya hamda vizualizatsiya qilish bo'yicha ekspert vazifalarini avtomatlashtirish mumkin. Natijada esa ekspertiza sifati, muddati va butun tadqiqot jarayoni sezilarli darajada osonlashadi. Mazkur jarayonda "Agisoft Metashape" va "RealityCapture" kabi fotogrammetriya dasturlari bir nechta tasvirlar yordamida sahnalarni tahlil qilish va qayta qurish uchun ishlatiladi.

Shuningdek, "e-filing" tizimi orqali taraf-lar nizoli masala bo'yicha ekspertiza o'tkazish yoki mutaxassisni jalb qilish yuzasidan iltimosnoma bilan murojaat qilgan bo'lsa, ekspertiza tayinlash va mutaxassisni iqtisodiy ishga jalb etish masalani hal qiladi. Bugungi kunda ekspertiza markazlari faoliyatini elektronlashtirish izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarda "Electronic Court Case Management System" tizimining faoliyat unumdorligini oshiradi.

K.L. Branovitskiy va boshqalar sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning quyidagi muammolariga to'xtalib o'tgan:

a) sud tizimidagi katta ma'lumotlar manbayini sun'iy intellektdan foydalangan holda tartibga solish;

b) sudda sun'iy intellekt orqali ekspert xizmatidan foydalanish muammosi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson tajribasini talab qiluvchi qator funksiyalarni bajarish imkonini beradi. Bunday funksiyalar jarayon ishtirokchilariga ekspert xulosasi va tegishli baho berishi mumkin [7]. Demak, yuqorida keltirilgan sun'iy intellekt texnologiyalari sud ekspertizasi xulosasini yanada asoslash va oydinlashtirish hamda sudlarda ishonchli isbotlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi arbitraj (iqtisodiy) sudlari tizimida ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun "My Arbiter" tizimi orqali ishning elektron materiallaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspert xulosasi mazmuni bilan sud majlisi oldidan tanishish huquqlarini ta'minlash maqsadida bunday shaxslarga ekspert xulosasining nusxasini yuborish tartibini belgilashni nazarda tutadi.

Soha mutaxassislari sudlarda odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatini raqamlashtirish borasida ham fikr bildirishgan. S.S. Gulyamov va A.S. Sidikovning fikricha, virtual xona tashkil etish va u orqali mutaxassis, guvoh, ekspert yoki tarjimon, shuningdek, adolatli hamda qonuniy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi muhim hisoblangan boshqa shaxslarni taklif qilish zarurati vujudga kelsa, sudya virtual sudga kirish uchun bir martalik parol taqdim etadi. Ushbu kirish paroli yig'ilish vaqti va joyi, shuningdek, sudning virtual majlisida ishtirok etish to'g'risida ko'rsatma bilan birgalikda sud qatnashuvchisining elektron manzili yoki shaxsiy kabinetiga yuborilishi mumkin [8]. Sudyalarning tajribasi va malakasi, ma'lum toifadagi iqtisodiy ishlarni ko'rish amaliyoti, ekspert xulosasini boshqa dalillar bilan solishtirish imkoniyati sudga nafaqat ekspert xulosasi mantiqiyli, balki tekshirish usullari ilmiyligi, xulosalar to'liqligi, ularning asoslilikini har tomonlama tekshirish imkonini beradi.

M. Bazorov, S. Hamroqulovlarning fikricha, vakolatli organlar bilan birgalikda sud ekspertlik faoliyatiga oid ma'lumotlarni yetkazish hamda axborot hamkorligi, turlarini ta'minlashda zarur bo'lgan elektron tizim joriy etish kerak. Sud ekspertizasiga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi jarayonga sarflanadigan vaqtning qisqarishi va qog'ozbozlikning kamayishiga olib keladi [9]. "Efficiency and expeditiousness" [10] doktrinasiga asosan, nizolarni tezkorlik va samaradorlik bilan o'z vaqtida hal etish, suddagi jarayonni soddalashtirish, ishlarni samarali

boshqarish va kechikishlarga yo'l qo'ymaslik zarur.

Ekspert faoliyatining barcha jabhalari ni qamrab olgan holda, ekspertlarni sud jarayoniga qisqa muddatlarda jalb etish va ularning xulosasini belgilangan muddatlarda olish; ekspertlarni tezda qidirib topish, ularning maxsus bilim darajasini aniqlash hamda qisqa vaqtlarda ularni ishga jalb etish; sud ekspertlari va ekspertizaga aloqador ma'lumotlarni to'plash, ekspertizaga oid harakatlarni bajarishga doir tashkilotlar bilan barcha turdagi axborot hamkorligini ta'minlashga mo'ljallangan "E-ekspertiza" yagona axborot tizimi joriy qilish taklif etiladi.

Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslardan biri – tarjimon faoliyatini raqamlashtirish masalasi sun'iy intellekt davrida muhim hisoblanadi. Tegishli kodeks, qonunlar va hattoki Plenum qarorida ham iqtisodiy sud ishini yuritishda til bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan.

Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganda ham suddagi ish yuritish tilini bilmagan protsess ishtirokchilarining tarjimon yordamidan foydalanishi hamda o'z ona tilida gapirish huquqi ta'minlanadi. Tarjimonga huquq va majburiyatlari tushuntiriladi hamda tilxat olinib, ishni ko'rayotgan sudga yuboriladi. Tarjimon kelmasa yoki qo'shimcha dalillar taqdim etmoqchi bo'lsa yoxud videokonferensaloqa o'rnatish imkoni bo'lmaganda (ishni ko'rish jarayonida texnik nosozliklar, shuningdek, elektr energiyasi yetkazib berilishidagi uzilishlar yuzaga kelinganda), ishlarni ko'rish keyinga qoldiriladi. Shu sabablar bilan sud majlisi qoldirilganda, ishni ko'rayotgan sud boshqa aloqa vositasi orqali videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazishga ko'maklashadigan sudning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha xodimini, bu xodim esa, o'z navbatida, sud majlisiga kelgan protsess ishtirokchilari (tarjimon, guvoh, mutaxassis va ekspert)ni yangi sud majlisining kuni va vaqti

haqida tilxat orqali xabardor qilishi belgilangan.

Tarjimonlarning sudda masofaviy ishtirokini ta'minlashda xorijiy davlatlarda bir qancha platformalar, ilovalar va boshqa dasturlardan ham foydalanilmoqda. Jumladan, "Kudo" ko'p tili uchrashuvlar va tadbirlar uchun mo'ljallangan bulutga asoslangan platformadir. U tarjimonlarga dunyoning istalgan nuqtasidan ishlash imkonini beruvchi masofaviy sinxron tarjimoni amalga oshiradi. U, odatda, sud jarayonlari, konferensiyalar, vebinarlar va virtual tadbirlar uchun ishlatiladi [11]. Mazkur platforma orqali tarjimonlar real vaqt rejimida inson tilidagi tarjimoni ishtirokchilarning smartfonlari va kompyuterlariga uzatadi hamda unga har bir kishi istalgan joydan o'zi xohlagan tilda qo'shila oladi. Har bir uchrashuvda 32 tagacha tilni qo'llab-quvvatlash mumkin. "Kudo" mijozlarga platformaga o'z tarjimonlarini olib kelish yoki "Kudo Interpreter Marketplace" orqali professional tarjimonlarni bron qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, "ZipDX" va "Boostlingo" masofaviy platformalari ham tarjimonlar va sudlar uchun muhimdir. Ularda tarjimonlar virtual uchrashuvlarga qo'shiladi va real vaqtda tarjima xizmatlarini ko'rsata oladi [12]. "Boostlingo" platformasida tarjimonlarni boshqarish, virtual sinxron yoki ketma-ket tarjimoni ta'minlash, bir vaqtni o'zida ham tarjima, ham imo-ishora tarjimasidan foydalanish mumkin.

AQShdagi yana bir tarjimonlar uchun zarur bo'lgan platforma (ilova) "Languageline"dir [13]. Bundan maqsad telefon yoki kompyuter orqali tarjimonlik qilish uchun malakali tarjimonni topish va telefon aloqasi o'rnatish, tarjimonga xizmat uchun haq to'lashni tartibga solishdir. Mazkur "Languageline" platformasida tarjimonlarning sertifikati yoki boshqa malakaga ega ekanligi aniqlanadi va unda aks ettiriladi. Sudlarda telefon orqali tarjimonlik xizmatlari rasmiy sud va bir necha daqiqadan bir

necha soatgacha davom etadigan suddan tashqari suhbatlar uchun taqdim etilgan. “Languageline” Services (LLS) 140 dan ortiq tillarda mijozlarga tarjimonlik xizmatlari ko'rsatadi. Xizmat har kuni 24 soat davomida ishlaydi. Aksariyat hollarda (taxminan 98 foiz) ulanish xizmat so'rovini olgandan keyin bir daqiqa ichida o'rnatiladi. Tarjimon uchun dasturga birinchi ulanayotganda to'lov qilinadi va oylik minimal to'lov belgilanadi. Tarjimon xizmatini oluvchiga ID raqami va shaxsiy kirish kodi taqdim etiladi. Shu bilan bir qatorda, “Closed Captioning and Transcription”ga asosan, onlayn shaklda tarjima amalga oshirilayotgan vaqtda kar va eshitish qobiliyati past bo'lganlar, yozma transkripsiyani afzal ko'rganlar uchun audio yozma matnga aylantiriladi. Real vaqt rejimida matn ekranning pastki qismida va har qanday tovush, ovoz va boshqa ko'rinishda paydo bo'ladi. Mazkur dastur va ilovalarning tarjimon hamda uning faoliyati uchun foydali tomoni ko'p. Unda aynan tarjimoni amalga oshirish, tarjimaning aniq va tiniq bo'lishi, tarjimonlarni topish va sudga jalb etish, ularning masofadan ishtirok etishini ta'minlash, real vaqt rejimida tarjima qilish hamda kar-soqovlar uchun surdo va subtitrl xizmatlari ko'rsatish yuqori baholangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “e-translator.uz” sayti va ilovasini yaratish maqsadga muvofiq. Unga tarjimonlar ro'yxati, ism-familiyasi, tarjima qiladigan tillari, staji, surdo tarjimonlar haqida ma'lumotlar joylanadi. Ushbu sayt orqali onlayn tilxat yordamida jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirish mumkin bo'ladi. Sayt orqali sertifikat tekshiriladi, tilni tarjima qilish darajasi aniqlanadi, tarjima narxлари keltirib o'tiladi, xavfsizlik darajasi belgilanadi. Ilovasi orqali real vaqt rejimida onlayn tarjima amalga oshiriladi.

Odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslardan biri bo'lgan guvoh va uning ko'rsatuvlarida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi

shaxslar videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga haqliligi belgilangan. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida shaxslarning ishtirok etish huquqi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrimda ko'rsatilib [14], ajrim odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar hamda ularning bunday majlisda ishtirok etishiga ko'maklashadigan tegishli sudga yuboriladi. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazishda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning vakillari vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnomalar, shuningdek, sud majlisida taqdim etilgan dalillar ishni ko'rayotgan sudga yuboriladi.

Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish huquqi birinchi apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari sudlarining sud majlisida amalga oshirilishi mumkin. Videokonferensaloqa (VC) sud jarayonlaridan manfaatdor bo'lgan har qanday shaxsga sud majlisida masofadan turib ishtirok etish imkonini beradi. Eng oddiy shaklda uzoqda joylashgan guvoh o'z ko'rsatmasini sud zalida bitta ekran va bitta kameraga ega bo'lgan sudga videohavola orqali berishi mumkin [15].

Bugungi kunda onlayn sud majlislarida guvohlar shaxsini aniqlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Bu guvohlarning yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olishda ham qo'l keldi. Jumladan, “lie detector” qurilmasi, asosan, shaxslarga bir qator savollar berilganda, ularning fiziologik holatiga qarab, gapi haqiqat yoki yolg'on ekanini aniqlash uchun ishlatiladi [16]. “Lie detector”ning asosiy vazifasi yolg'on gapirayotganda, inson tanasidagi fiziologik o'zgarishlarni qayd etishdir. “Lie detector” yordamida bir nechta holatlar aniqlanishi mumkin. Birinchisi – guvohlik ko'rsatuvini berayotgan shaxsning yolg'on gapirayotganini yurak urishini (*Heart Rate (Cardiovascular Acti-*

vity)) eshitish orqali aniqlash. Ya'ni bunda uning ko'kragiga o'rnatilgan elektrodlar yoki sensorlar yordamida yurak urish tezligi o'lchanadi. Shaxs yolg'on guvohlik ko'rsatuvi berayotgan bo'lsa, asabiylashish yoki stress tufayli yurak urishi tezlashishi mumkin. Ikkinchisi – shaxsning nafas olish (*Respiration (Breathing)*) tezligini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bu moslama shaxsning ko'krak va qorin bo'shlig'iga datchiklar o'rnatish orqali uning nafas olish tezligini nazorat qiladi. Agar shaxsda sayoz yoki tartibsiz nafas olish holati kuzatilsa, u yolg'on ko'rsatuv berayotgan bo'lishi mumkin. Uchinchisi – terining elektr o'tkazuvchanligini o'lchaydigan galvanik teri reaksiyasi (*Galvanic Skin Response*). Unda shaxs yolg'on guvohlik ko'rsatuvi berayotganda, tashvishlanishi yoki asabiylashishi natijasida tez-tez uchraydigan terlash teri o'tkazuvchanligiga ta'sir qilishi mumkin. To'rtinchisi, qon bosimi (*Blood Pressure*) orqali guvohlik ko'rsatuvining haqiqat yoki yolg'on ekanligini aniqlash. Ya'ni qon bosimining oshishi asabiylashish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Emiy Seylzyinning fikriga ko'ra, sud ishlarini yuritishni raqamlashtirishning quyidagi jihatlari inobatga olish kerak [17]:

- telefon yoki videokonferensiya aloqa rejimida guvoh ko'rsatuvlarining ta'sirini aniqlash;
- guvohning xulq-atvorini kuzatish zarurati;
- guvohlarning kasallik yoki boshqa biron-bir sabab tufayli sud majlislarida ishtirok eta olmasligi.

O. Pirmatov onlayn sud majlislarida hali so'roq qilinmagan guvohlarning onlayn sud majlislarini kuzatishiga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlaydi. Ularni so'roq qilish vaqti kelganda, raislik qiluvchi tomonidan onlayn sud majlislariga kirishiga ruxsat beriladi [18].

XXR qonunchiligiga binoan, guvohlar sud majlisida shaxsan ko'rsatma berishlari shart. Biroq guvohning betoblighi, tabiiy ofatlar ham-

da boshqa fors-major holatlarida sudning ruxsati bilan guvoh videokonferensaloqa rejimida ko'rsatmalar berishi mumkin [19]. Ukraina Respublikasida ishda ishtirokchilarning e'tirozlari bo'lmasa, guvoh sud majlisida videokonferensaloqa orqali ishtirok etishi mumkin. Sud guvoh kasalligi, keksaligi, nogironligi yoxud uzrli sabablar bo'lganda, sudga kelmasa, ishda ishtirok etadiganlarning e'tirozlaridan qat'i nazar, videokonferensaloqa orqali sudda ishtirok etishga ruxsat berishi mumkin (XPK 66-moddasi).

Qozog'iston Respublikasida guvohning kasalligi, keksaligi, nogironligi, turgan joyining uzoqligi yoki boshqa uzrli sabablar bo'lganda, sudga kelmaganligi oqibatida o'zi joylashgan hududdagi sud tomonidan yoki texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda so'roq qilinishi mumkin (FPK 81-moddasi). Bolgariya Respublikasida guvoh chaqiruv bo'yicha kelmasa, sud unga jarima soladi.

Ushbu davlatlar qonunchiligida "guvoh kasalligi, keksaligi, nogironligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, chaqiruv yuzasidan sudga kela olmasa, u turgan joyda sud yoki videokonferensaloqa vositasi orqali so'roq qilinadi" deb keltirilgan (FPK 85-moddasi). Onlayn sud majlislarida ham so'roq qilinmagan guvohlarga sud platformasidagi onlayn sud majlislariga kirishiga ruxsat berilmasligi, shu orqali o'zidan oldingi guvohlar qanday ko'rsatma berganini bilib olmasligi ta'minlanadi. Shu orqali ularning ko'rsatmasini o'zgartirishga yo'l qo'yilmasligi mumkin.

Qozog'iston Respublikasida quyidagi dastur nizo taraflariga videoaloqa orqali sud jarayoniga to'g'ridan to'g'ri bog'lanish va sudga dalillar taqdim etish imkonini beradi. Buning uchun smartfonga "TrueSonf" dasturini o'rnatish kifoya qiladi.

"Virtual sud" mobil ilovasining afzalliklaridan biri – bu tezkorlikdir [20]. Ushbu mobil dasturdan uyda, ofisda va hatto sayohat paytida ham foydalanish mumkin. Qurilmani har qanday mobil telefon, smartfon, planshet,

kompyuter orqali qo'llasa bo'ladi. Unga maxsus "TrueSonf" ilovasini o'rnatish kifoya. Buning asosiy mezonlari Internetdan foydalanish imkoniyati mavjudligidir.

Sud organlari, sud protsessi ishtirokchilari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol va zudlik bilan joriy etish odil sudlovning ochiqqligi hamda shaffofligini ta'minlaydi. Ishlar hamda nizolarni ko'rib chiqish vaqtini maqbullashtirish, ularni sudga cha va sudda onlayn hal qilish, shuningdek, ma'lumotlardan qulay, tezkor ravishda foydalanish uchun yuqoridagi sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar xizmatidan foydalanish o'rinnidir.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatini raqamlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va xorijiy tajribani o'rganish muhimdir. Mamlakatimizda bu sohada muayyan masalalar o'z yechimini kutmoqda. Jumladan:

– Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi ekspertiza tadqiqotlarida bir nechta maxsus dasturiy ta'minot turlaridan foydalanib kelinmoqda, lekin bu tadqiqotlarni to'la ochish uchun yetarli emas;

– real vaqt rejimida inson tilidagi tarjima ishtirokchilarning smartfonlari va kompyuterlariga uzatish hamda jarayonga har bir kishiga istalgan joyidan o'zi xohlagan tilda qo'shila olish imkonini beruvchi dasturlar, ilova va platformalarni sudda qo'llash, ularni protsessga keng jalb qilish lozim;

– guvohning yolg'on ko'rsatuvini aniqlash imkonini beruvchi elektron vositalarni qo'llash usulidan samarali foydalanish zarur. Bu esa guvohning haqiqatni aytishi hamda odil sudlovni ta'minlash tomon qo'yilgan yana bir qadam bo'ladi.

REFERENCES

1. Republican Center of Forensic Expertise named after H. Sulaimanova under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://sudexpert.uz/>
2. Shaweta S., Bansi L.R., Avinash Sh Analysis of Digital Forensic Tools. *Journal of Computational and theoretical Nanoscience*, 2020, Vol. 17/6, 2459–2467 pp. Available at: https://www.researchgate.net/publication/346809308_Analysis_of_Digital_Forensic_Tools
3. Forensic's Blog. Available at: https://forensicfield.blog/forensic-toolkit-ftk/?expand_article=1
4. Michel N., Flavio E.D., Helvio P.P., Rafael T.S.Jr., E-discovery as a mean to improve information security. Available at: www.researchgate.net/publication/3224376099_Ediscovery_as_a_mean_to_improve_information_security
5. Upulie H., Lakshini K. Real-Time Object Detection Using YOLO. A Review. *ResearchGate*, 2021. Available at: https://www.researchgate.net/publication/351411017_Real-Time_Object_Detection_Using_YOLO_A_Review
6. Materials of the international scientific and practical conference on the current problems of forensic expertise in Uzbekistan and their scientific and innovative solutions. Tashkent, 2022, p. 402.
7. Branovitskiy K.L., Rents I., Yarkov V., Neznamov A. Tsifrovyye tekhnologii v tsivilisticheskoy protsesse, nekotoryye problemy i perspektivy [Digital technologies in the civilistic process, some problems and prospects]. *ResearchGate*, 2019. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/336408856>
8. Gulyamov S.S., Sidikov A.S. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida iqtisodiy sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish va virtuallashtirish [Digitization and virtualization of economic

court proceedings in the context of the development of the digital economy of Uzbekistan]. *Uzbek Law Review*, 2020, no. 1, p. 138.

9. Bazorov M., Hamroqulov S. O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimi yanada takomillashtirilmoqda [The system of forensic expertise is being further improved in the Republic of Uzbekistan]. *Lawyer Herald*, 2020, no. 1, pp. 148–154.

10. Efficient and expeditious Norwegian ad hoc arbitral process, a case for adopting elements of international arbitration practices. Available at: <https://schjodt.com/news/efficient-and-expeditious-norwegian-ad-hoc-arbitral-process-a-case-for-adopting-elements-of-international-arbitration-practices>

11. Fantinuoli C., Marchesini G., Landan D., Horak L. KUDO Interpreter Assist: Automated Real-time Support for Remote Interpretation. Available at: https://www.researchgate.net/publication/357646449_KUDO_Interpreter_Assist_Automated_Real-time_Support_for_Remote_Interpreter_Assist

12. Boostlingo. Available at: <https://boostlingo.com/>

13. Hewitt W.E. Court Interpretation: Model Guides for Policy and Practice in the State Courts. National Center for State Courts Publication Number, 1995.

14. Kushalnagar R.S., Lasecki W.S., Bigham J.P. *Captions Versus Transcripts for Online Video Content Conference Paper*. 2013.

15. A New Lens. Reframing the Conversation about the Use of Video Conferencing in Civil Trials. *Ontario Osgoode Hall Law Journal*, 2012, Vol. 50/2/431, p. 5.

16. Farwell L. Lie Detection. Encyclopedia of Forensic Sciences. *ResearchGate*, 2013, pp. 144–149. DOI: 10.1016/B978-0-12-382165-2.00025-8. Available at: https://www.researchgate.net/publication/284796541_Lie_Detection

17. Amy S. A New lens: Reframing the conversation about the use of videoconferencing in civil trials. *Ontario. Osgoode Hall Law Journal*, 2012, vol. 50/2.

18. Pirmatov O. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish [Digitization and virtualization of civil litigation]. 2023.

19. Civil Procedure Law art. 2017.

20. Dobrota L. Virtualniy sud [Virtual court]. *Kazakhstan Pravda*. Available at: www.zakon.kz.

Kelib tushgan / Получено / Received: 09.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./VJWH1097
UDC: 347.963(045)(575.1)

YER QONUNCHILIGI IJROSINI NAZORAT QILISH JARAYONIDA PROKURATURANING BOSHQA DAVLAT ORGANLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI

Abduxakimov Murodullo Tog'ayevich,

O'zbekiston Respublikasi Bosh
prokuraturasi boshqarma boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-9544-4637
e-mail: murodill@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada prokuratura organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, nazorat qiluvchi tashkilotlar, boshqa muassasalar va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari yoritildi. Ular o'rtasida ma'lumotlar va hujjatlar almashinuvi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashmaslik tamoyilini amalga oshirish masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, prokuraturaning yer maydonlarini ajratish, ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga vakolatli organlar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorligiga zarurat borligi ko'rsatib o'tildi. Muallif prokuraturaning mahalliy davlat hokimiyati organlari va sektorlar bo'yicha hududlarda maxsus vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi muhimligini ta'kidlaydi. Yer haqidagi qonunchilik buzilishini erta aniqlash va buning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashining ishi ilmiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiq qilinayotgan masala bo'yicha statistik ma'lumotlar, xorijiy mamlakatlar prokuratura organlarining boshqa idoralar bilan hamkorligidagi ijobiy tajribadan misollar, olimlar hamda tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari hamda soha mutaxassislarning fikrlari bayon etildi. Xulosa sifatida qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar hamda muallifning ushbu mavzuga oid xulosalari taqdim etildi.

Kalit so'zlar: prokuratura, davlat hokimiyati, davlat boshqaruvi, nazorat qiluvchi idoralar, hamkorlik munosabati, yer, qishloq xo'jaligi yerlari, sug'oriladigan yer, xorijiy mamlakatlar, ma'lumot almashish, yerlardan noqonuniy va o'zboshimchalik bilan foydalanish, javobgarlik.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ С ДРУГИМИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ В ПРОЦЕССЕ НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗЕМЕЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Абдухакимов Муродулло Тогаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель Правоохранительной
академии Республики Узбекистан,
начальник управления Генеральной
прокуратуры Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящей статье рассматриваются вопросы налаживания взаимодействия органов прокуратуры с органами государственной власти и управления, контролирующими органами, иными ведомствами, органами местного самоуправления. Анализируются вопросы обмена между ними информацией и документами, реализации принципа невмешательства в финансово-хозяйственную деятельность хозяйствующих субъектов, а также указывается на необходимость прямого сотрудничества между прокуратурой и органами, уполномоченными осуществлять государственный контроль за выделением, использованием и охраной земельных участков. Автором особо отмечается значение взаимодействия прокуратуры с органами государственной власти на местах и специально уполномоченными государственными органами в регионах по секторам. С научной и критической точки зрения проанализирована работа Республиканского совета по раннему выявлению нарушений законодательства о земле и координации деятельности, направленной на их предотвращение. Кроме того, были приведены статистические данные по исследуемому вопросу, примеры положительного опыта взаимодействия органов прокуратуры с другими ведомствами в зарубежных странах, научные взгляды учёных и исследователей, мнения экспертов в этой области. В заключении представлены предложения, связанные с совершенствованием законодательства, а также собственные выводы автора касательно данной темы.

Ключевые слова: прокуратура, государственная власть, государственное управление, надзорный орган, взаимодействие, земля, сельскохозяйственные земли, орошаемые земли, зарубежные страны, обмен информацией, незаконное и самовольное использование земли, ответственность.

INTERACTION OF PROSECUTOR'S OFFICES WITH OTHER STATE BODIES IN THE PROCESS OF SUPERVISING THE IMPLEMENTATION OF LAND LEGISLATION

Abduxakimov Murodullo Togaeovich,

Head of the Department of the Prosecutor General's Office

Republic of Uzbekistan,

Independent researcher of Law Enforcement Academy,

Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. This article highlights the issues of establishing interaction between the prosecutor's office and public authorities and management bodies, supervisory organizations, other institutions, and local self-government bodies. The exchange of information and documents, implementation of the principle of non-interference in the financial and economic activities of economic entities were analyzed. It was also noted that there is a need for direct interaction between the prosecutor's office and the bodies authorized to exercise state control over the allocation, use, and protection of land. The author emphasizes the importance of mutual cooperation of the prosecutor's office with local public authorities and specially authorized state bodies in the regions by sectors. From a scientific and critical point of view, the work of the Republican Council on early detection of violations of land legislation and coordination of measures aimed at their prevention was analyzed. In addition, statistical data on the issue under study, examples of positive experience of cooperation of prosecutor's offices of foreign countries with other agencies, scientific views of scientists and researchers, and opinions of experts in the field were presented. As a conclusion, proposals for improving the legislation and the author's conclusions on this topic were presented.

Keywords: prosecutor's office, public authority, public administration, supervisory bodies, cooperative relations, land, agricultural land, irrigated land, foreign countries, information exchange, illegal and unauthorized use of land, liability.

Kirish

Bugungi kunda ekin yerlari respublika umumiy yer maydonining (44,8 mln gektar) atigi 9,7 foizini (4,3 mln gektar) tashkil etib [1, 6-b.], shundan faqatgina 3,2 mln gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi.

Aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifalarga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi oqibatida so'nggi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydoni 23 sotixdan 16 sotixga yoki 24 foizga kamaygan [1, 21-b.].

Ana shunday sharoitda yerdan foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash hamda bu boradagi prokuror nazoratining samaradorligini oshirish prokuratura organlarining davlat boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning to'liq va samarali yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqdir.

Biroq so'nggi yillarda prokuratura organlarining boshqa organlar bilan o'zaro hamkorligini yaxshilashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilganiga qaramay, prokuratura organlarining nazorat organlari, xususan, yerdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta'minlashga mas'ul bo'lgan organlar bilan munosabatlari yo'lga qo'yishda bir qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Bu esa o'z navbatida, yer maydonlarini talon-toraj qilish holatlarini o'z vaqtida fosh etilishini qiyinlashtirmoqda.

Bunday sharoitda, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilish holatlarini aniqlash va bartaraf etishning yangi samarali usullarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelib, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo qilmoqda.

Yuridik adabiyotlarda prokuratura organlarining vazifa va yo'nalishlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-nazariy fikrlar yuritilgan bo'lsa-da, biroq prokuratura organlarining yer munosabatlari ishtirokchilari bo'lgan davlat organlari bilan

o'zaro munosabatlari masalalari ilmiy jihatdan kompleks tadqiq qilinmagan.

Mamlakatimizda prokuror nazorati sohasida yetakchi huquqshunos olimlardan B.X. Po'latov, F.X. Raximov, O.M. Madaliyev, T.A. Umarov, I.B. Djurayev, A.A. Maxmudov va boshqalarning tadqiqot ishlarida ushbu mavzu prokurorlarning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda umumiy yoritilgan xolos.

Bundan tashqari, MDHga a'zo davlatlarda yer to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining ayrim jihatlari Y.G. Chervyakova, T.B. Ashitkova va O.V. Kalluginalar prokurorlarning yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish borasidagi faoliyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lsa-da, biroq ular tomonidan Rossiya Federatsiyasi subyektlari doirasidagi hamkorlikning ba'zi bir masalalari yoritilgan xolos.

Shu sababli, biz quyida O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining yer to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat faoliyatini amalga oshirish jaryonida davlat organlari bilan munosabatlardagi ba'zi bir jihatlarni ilmiy jihatdan tadqiq qildik.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, prokuraturani tom ma'nodagi "Xalq prokuraturasi"ga aylantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar samarasi o'laroq, uzoq yillar davomida odamlarda jazolovchi organ sifatida tasavvur uyg'otib kelgan tizim endi ularning haq-huquqlari, o'z navbatida, davlatning manfaatlarini himoya qiluvchi, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tantanasini ta'minlashga hissa qo'shuvchi tuzilmaga aylanayotgan bir sharoitda, prokurorlar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish muhim hisoblanadi [2, 1-b.].

Shuningdek, barcha hokimiyat organlarining umumiy maqsadlarga erishish uchun sa'y-harakatlarini birlashtirish, ya'ni "mamlakatda qonun ustuvorligini mustahkamlash,

inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish” [3, 23-26-b.] davlat boshqaruvi-ning asosiy prinsiplaridan biridir.

Material va metodlar

Qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda prokurorlar faoliyati samaradorligining oshishi, hech shubhasiz, prokuratura organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o’zaro hamkorligining qanchalik yo’lga qo’yilganligi va uning takomillashtirilishi bilan bevosita bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko’ra:

- Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari (*Yer kodeksining 4-moddasi*);

- viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari (*5-modda*);

- tumanlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari (*6-modda*) batafsil sanab o’tilgan.

Yer kodeksining 83¹-moddasida esa yer uchastkalarini ajratish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Biroq Yer kodeksida qaysi organlar maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanishi, ularning vakolatlari bilan bog’liq normalar ko’rsatib o’tilmagan.

Bugungi kunda o’z kuchini yo’qotgan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 15-oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasini tashkil qilish to’g’risida”gi PF-3502-sonli Farmoniga asosan, O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo’mitasi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri

Bosh boshqarmasi negizida tashkil etilgan O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasi – yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo’yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, joylarda davlat boshqaruvi organlari va davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishga mas’ul bo’lgan vakolatli organ hisoblangan.

Biroq O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-5006-sonli qaroriga asosan, yerlarni muhofaza qilishda va yerga oid munosabatlarni tartibga solishda yuqorida ko’rsatilgan Qo’mitaning vakolatlari ikkiga ajratilib, Qishloq xo’jaligi vazirligi va Kadastr agentligi yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish bo’yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli maxsus idoralar ekanligi belgilab berilgan.

Bundan tashqari, Yer kodeksining 84-moddasiga ko’ra, fuqarolar, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlari yer uchastkalarini ajratish, ulardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini o’z vakolatlari doirasida amalga oshirishga haqli ekanligi belgilab qo’yilgan.

Shuningdek, qonunchilikka ko’ra, tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, ilmiy jamiyatlar va boshqa jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolar yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat organlariga va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlariga ko’maklashadilar.

Prokuratura organlari yer munosabatlarini tartibga soluvchi hamda yerlarni muho-

faza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar sirasiga kirmasa-da, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-son qaroriga asosan, prokuratura organlariga bir qator vazifalar yuklanib, Bosh prokuratura tarkibida Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda uning bo'limlari tashkil etilgan.

Prokuratura organlari o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan davlat organlari bilan o'zaro munosabatga kirishsa-da, hech qanday holatda prokurorlarning faoliyatini davlat hokimiyati organlarining yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati bilan almashtirishga ruxsat berilmaydi. Prokurorlar ushbu sohada fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga sabab bo'luvchi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar kelib tushgan taqdirda prokuror olingan ma'lumotlarni vakolatli nazorat organiga yuborishi shart hisoblanadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, mazkur tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishni huquqiy tartibga solish bo'yicha prokuraturaning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga oid nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratildi.

Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Qonunlar ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish – eng avvalo axborot to'plash va tahlil qilish, ishlarni rejalashtirish

va nazorat qilishni tashkil qiladi. Biroq yuqoridagi ishlarni to'liq va samarali amalga oshirishda prokurorlarning davlat idoralari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda ayrim huquqshunos olimlarning prokuraturaning boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan qarashlariga to'xtalib o'tish joizdir.

Xususan, huquqshunos olim B.X. Po'latovning fikriga ko'ra, "qonunlar ijrosi ustidan nazoratning tashkil etilishi prokuror nazorati faoliyatining o'ziga xos uslublaridan biri bo'lib, ushbu faoliyatning muvaffaqiyati uning markazda va joylarda qay darajada tashkil qilinganligi bilan belgilanadi" [4, 169-b.].

Rossiyalik olim A. Vayngardning qarashlariga ko'ra, "prokuror nazoratining amalga oshirilishi vakillik va ijro hokimiyati organlari faoliyatida huquq-tartibotning mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liqdir" [5, 3-4-b.]. Haqiqatdan ham, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining amalga oshirilishi qonunlarning ijro etilishiga va unga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning o'z vazifalarini to'liq va lozim darajada bajarishga undaydi.

Y. Vinokurov o'z ilmiy asarlarida prokuratura nazorat organlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlarning bajari-lishini, shuningdek, ular tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligiga rioya etilishini nazorat qilibgina qolmasdan, balki ular bilan turli shakllarda o'zaro hamkorlik qilishini ham alohida ko'rsatib o'tadi [6, 24-b.]. Y.Y. Vinokurov esa prokurorlarning huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, deputatlar bilan har taraflama aloqalari qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorat bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qilishini bayon qilgan [7, 83-b.].

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati bo'yicha birinchi-lardan bo'lib tadqiqot olib borgan Y.G. Chervyakova ham Yer to'g'risidagi qonun hujjatla-

rini tekshirish metodologiyasini tavsiflashda ushbu sohada qo'shma faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan tekshirishlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida o'zaro hamkorlikni tashkil etish muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratgan [8, 115-b.].

Huquqshunos Sh.J. Raximov o'z ilmiy ishlarida prokuratura organlari o'zlarining ijtimoiy maqsadi, huquqiy maqomi va davlat hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra nafaqat muvofiqlashtirishni, balki ushbu o'zaro hamkorlikni tashkil etishni ham amalga oshirishlari hamda qoida tariqasida, bu sohada yetakchi mavqega ham ega hisoblanishini ta'kidlab o'tgan [9, 96-b.].

Yuqoridagilardan hamda yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan prokuror nazoratini rivojlantirish tendensiyalaridan (O.M. Madaliyev [10, 631-b.], B.X. Po'latov, Y.Y. Vinokurova [11, 433-436-b.], O.S. Kapinus [12, 169-b.]) kelib chiqqan holda qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi o'zaro hamkorlikni nafaqat prokuratura faoliyatini tashkil etishning elementlaridan biri sifatida, balki prokuratura organlarining tashqi funksional faoliyatining mustaqil yo'nalishi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin, degan xulosani ilgari surish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 7-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 160-sonli buyrug'ida asosiy e'tibor qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish bilan bog'liq qismining og'ishmay ijro etilishini ta'minlash, islohotlarning amalga oshirilishiga to'siq bo'layotgan omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan [13, 63-78-b.].

Shunday ekan, prokuratura organlarining yerdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta'minlashga mas'ul bo'lgan va bu sohada davlat nazoratini amalga oshiradigan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga maxsus vakolatli bo'lgan davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishi, ushbu organlar bilan o'zaro amaliy hamkorlikni ta'minlash borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishi talab etiladi.

Prokuratura organlari bilan davlat yer nazoratini amalga oshirishga vakolatli organlar o'rtasidagi bevosita hamkorlik bir qancha shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda prokuratura va yer sohasidagi davlat nazorati organlari o'zaro hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1) O'zbekiston Respublikasining yer to'g'risidagi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

2) amalga oshirilgan ijobiy ish tajribalarini birgalikda o'rganish, umumlashtirish va tarqatish;

3) bir-biriga uslubiy, huquqiy va amaliy yordamlar ko'rsatish;

4) qo'shma yig'ilishlar o'tkazilish (*masalan, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilish holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi-ning yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish*), ishchi guruhlar shakllantirish va ularda birgalikda ishtirok etishni ta'minlash;

5) xodimlarning malakasini oshirish, huquqiy normalarning bir xilda qo'llanishini ta'minlash maqsadida ilmiy-amaliy anjumanlar, davra suhbatlari va seminarlarda ishtirok etish;

6) aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha profilaktik tadbirlarda birgalikda ishtirok etish (*ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilish*);

7) o'zaro hamkorlik qiluvchi tomonlar asosida ishlab chiqilgan qo'shma uslubiy hujjatlar, tavsiyalar, uslubiy qo'llanmalar almashinuvini tayyorlash va nashr etish;

8) prokuror nazorati hujjatlari muhokamasida (taqdimnomalar ko'rib chiqilishida, protest va sudga berilgan da'vo arizalari muhokamalari) birgalikda qatnashish;

9) prokuratura tomonidan tekshirishlar o'tkazish, maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uchun mutaxassislarni jalb qilish;

10) yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan rejali tekshirishlar bo'yicha yillik rejalarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

11) qo'shma tekshiruvlar o'tkazish, shu jumladan, ishchi guruh tarkibida hamda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish jarayonida tekshiruvlar o'tkazish;

12) qonuniylik holati, o'zaro axborot almashishda olib borilayotgan tekshirishlar va yer to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini aniqlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishda statistik ma'lumotlarni o'zaro taqdim etishi sohasida o'zaro hamkorlikni amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimiz qonunchiligida yer sohasida davlat nazoratini amalga oshirish tizimi va uni amalga oshiruvchi organlar doirasi aniq shakllantirilgan.

Xususan, Yer kodeksining 12-bobi yer uchastkalarini ajratish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazorat masalalari yoritilgan. Kodeksning 83¹-moddasiga ko'ra, yer uchastkalarini ajratish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Shu o'rinda mahalliy davlat hokimiyati organlari – davlat hokimiyatining vakillik organi bo'lgan viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari kengashlari hamda viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi ijroiya hokimi-

yati ekanligini yana bir bora esga olmoqchimiz.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli qaroriga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlarga bo'lingan.

Sektorlarning asosiy vazifalaridan biri – dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo'jaliklariga ko'maklashish bo'yicha choralar ko'rishdan iboratdir.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda prokuror yerlardan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlash bo'yicha davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda, o'z hududlarda tenglik asosida javob beradi.

Biroq bizning fikrimizcha, ushbu holat noto'g'ri bo'lib, prokurorning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshirilishi lozimligi haqidagi qoidalarga ziddir.

Umuman olganda, prokuratura organlariga qonunchilik ijrosi ustidan nazorat vazifasi yuklangan Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa MDH davlatlari qonunchiligida bunday yondashuvlar mavjud emas.

Yer qonunchiligiga ko'ra, yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat

nazoratini amalga oshiradigan maxsus vakolatli idoralar haqida doirasi aniq belgilab berilmagan. Biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vazifalari yuklangan idoralar sanab o'tilgan.

Ushbu qonunosti hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, bunday vazifalarni amalga oshiruvchi asosiy organlar doirasiga Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligini kiritish mumkin.

Yerlardan maqsadli foydalanish va davlat kadastrlarini yuritish sohasida qonuniyligni ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorligini huquqiy tartibga solish g'oyat muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6061-sonli Farmonining 3-bandida, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Farmonda yuklangan hamda yuqorida belgilangan vazifalarini amalga oshirishda prokuratura organlari bilan hamkorlikni qanday tartibda va shakllarda amalga oshirishi, respublikada amalga oshirilgan yer islohotlari, qonunchilikka kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirishda hamkorlikning o'ziga xos jihatlari qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yilmagan.

Bugungi kunda prokuratura organlari va kadastr idoralari o'rtasida hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshirilmoqda:

- hamkorlikda nazorat tadbirlari o'tkazilmoqda;

- prokuratura tomonidan o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarga agentlik xodimlari mutaxassis sifatida jalb qilinmoqda;

- hamkorlikda targ'ibot va profilaktik tadbirlari tashkil etilmoqda;

- axborot almashinuvini tizimli ravishda yo'lga qo'yish va qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa shakllarda ham amalga oshirilayotganligi, bugungi kunda amaliyotda o'z aksini topmoqda.

Agentlik va uning hududiy tashkilotlari xodimlari tomonidan quyidagi holatlarda jinoyat alomatlarini aniqlash mezonlariga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir:

- og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan yerdan foydalanish shartlarini buzish;

- ma'muriy jazo qo'llangandan so'ng sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha, shu jumladan, yer uchastkasi o'zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to'g'risida vakolatli organlarni xabardor etish bo'yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko'rmaslik;

- ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan, ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo'lmagan holda ulardan foydalanish;

- sug'oriladigan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirilgan holda ularni o'zboshimchalik bilan egallab olish yoki qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarish;

- sug'oriladigan yer uchastkasini yoki uning bir qismiga bo'lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o'zga shaxsga berish;

- ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni, shu jumladan, yer uchastkalarini berish va olib qo'yish bilan bog'liq hujjatlarni qalbakilash-tirish yoki ulardan foydalanish;

- geodezik punktlarni yo'q qilish yoki shikastlantirish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga yoxud boshqacha og'ir oqibatlariga olib kelish va boshqa holatlar aniqlanganda albatta bunday hujjatlarni ko'rib chiqish uchun prokuratura organlariga yuboriladi.

Agentlik va uning hududiy tashkilotlari tomonidan prokuratura organlariga yuboriladigan huquqiy hujjatlar doirasi bo'yicha turli xil muammolar uchrab turadi. Aksariyat holatlarda prokuratura organlariga aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma yuborish bilan cheklaniladi xolos. Yoki ayrim kadastr idoralari tomonidan prokuratura organlariga yuborilayotgan xatda aniqlangan jiddiy qonun buzilishi holatlari haqida bayon qilishsa-da, biroq ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni yubormasdan, kelgusida ushbu hujjatlarni prokuratura organlaridan kadastr idoralariga qaytishiga sabab bo'ladi. Bu esa aniqlangan qonun buzilishi holatlariga nisbatan o'z vaqtida qat'iy ta'sir choralar ko'rilmaligiga hamda qonun buzilishi holati bo'yicha kelgusida jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Masalan, sug'oriladigan yer maydonlarida qurilishlar amalga oshirilayotganligi, uy-joy qurish uchun fundamentlar qurilayotganligi haqida ma'lumot berilgan bo'lsa-da, hujjatlarining to'liq yuborilmasligi, ushbu hujjatlarning qaytarilishiga sabab bo'ladi. Bu esa hujjatlar to'liq yuborilgunga qadar ushbu yerlarda uy-joylar qurilishi va kelgusida uni bartaraf qilishda jiddiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli, kadastr idoralari tomonidan jinoyatlar sodir qilinganligi haqida ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, quyidagi hujjatlarni prokuratura organlariga yuborishlari maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Dalolatnoma, oraliq dalolatnoma, bayonnoma yoki ma'lumotnoma. Ushbu hujjatlarda, nazorat obyektining to'liq nomi, nazorat tadbiri bilan qamrab olingan davr uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi; qonun hujjatlarining buzilgan normalarini aniq ko'rsatgan holda monitoring qilish, tekshirish va o'rganish paytida aniqlangan qoidabuzarlik va kamchiliklar faktlari; qonun buzilish holati sodir etilgan yer uchastkasi-

ning fotosurati, internet tarmog'i orqali olingan kosmik surat va hududning qishloq xo'jaligi xaritasi.

2. Ko'rsatilgan mansabdor (mas'ul) shaxslarning lavozimga tayinlash haqidagi tegishli tarzda tasdiqlangan buyruqlarning (farmoyish, qaror) nusxalari.

3. Qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarning xizmat vazifalarini belgilovchi yo'riqnoma, buyruq, mehnat shartnomasi yoki boshqa hujjatlarning tegishli tarzda tasdiqlangan nusxalari.

4. Korxona faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lgan hujjatlar (nizomi va boshqalar) nusxasi.

5. Qonun hujjatlari buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning (buyruq, qaror, bayonnomalari, reyestrda ko'chirma, to'lov varaqasi, aloqa xati va boshqalar) asli yoki tegishli tarzda tasdiqlangan nusxasi yoxud ko'chirmasi.

6. Qonun buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning yozma tushuntirishlari yoki e'tirozlarining asl nusxalari, tushuntirish berishdan bosh tortgan hollarda bu haqda tuzilgan dalolatnoma.

7. Nazorat obyektining mansabdor shaxsi tomonidan keltirilgan vajlari (yozma e'tirozlari), qonun buzilishlar fakti bo'yicha agentlik xodimi tomonidan tuzilgan xulosa.

8. Nazorat obyektining mansabdor shaxsi yig'ma dalolatnoma (dalolatnoma, oraliq dalolatnoma) yoki ma'lumotnomani imzolashdan yoxud qabul qilishdan bosh tortgan hollarda ularning nusxalari nazorat obyektiga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat va boshqa aniqlangan qonun buzilishi faktini tasdiqlash maqsadida boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

Prokuratura organlari va kadastr idoralari o'rtasidagi hamkorlik haqida so'z yuritilganda, axborot almashinuvi shakllari haqida bevosita to'xtalmasdan imkoni yo'q. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 7-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi

160-sonli buyrug'i talablariga ko'ra, prokuratura organlari tomonidan agentlik va uning hududiy boshqarma hamda bo'limlari tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlari, jumladan, mehnat huquqlari va asosiy faoliyatga oid buyruqlar, farmoyishlar va qarorlar, shuningdek, huquqbuzarlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash haqidagi qarorlarni har chorakda, qonuniylik holati bo'yicha esa har olti oyda tekshirish o'tkazishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi o'rtasida, "Yerlardan maqsadli foydalanish va davlat kadastrlarini yuritish sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida"gi tartib qabul qilingan.

Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi o'rtasida yerlardan maqsadli foydalanish, yer toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, oborotdan chiqarish, talon-toraj qilish hamda davlat kadastrlarini yuritish sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorlik tartibi belgilangan.

Bizga ma'lumki, kadastr idoralari xodimlari jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini ko'rib chiqish vakolatiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasi talablariga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atishga faqatgina surishtiruvchi, tergovchi va prokuror haqli hisoblanadi. Ushbu kodeksning 322-moddasiga ko'ra esa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar asosida ham jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin [15, 207-208-b.]

Agentlik xodimlari yuqorida ko'rsatilgan talablarga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atish vakolatiga ega emasligi sababli, ular tomonidan o'tkaziladigan nazorat tadbirlarida jinoyat alomatlari aniqlangan holatlar bo'yicha,

tegishli yig'ma hujjatlarni (*ma'lumotnoma, dalolatnoma, oraliq dalolatnoma va h.k*) rasmiylashtirilgandan so'ng huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yuborishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrda "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6061-sonli Farmonining 1-bandida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish, tuproq bonitirovkasini o'tkazish, qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatini aniqlash, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishga doir vazifalari, funksiyalari hamda vakolatlari Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazilganligi ko'rsatilgan.

Mazkur Farmon talablaridan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-sonli qaroriga ko'ra, "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi.

Ushbu qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, shuni ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringining O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari va tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limlari, shuningdek, "O'zdavloyiha" instituti va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan qaror bilan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi

hamda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yer tuzish ishlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlar ham qabul qilingan.

Umuman olganda, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning hududiy organlari tomonidan yuqoridagi qonun hujjatlari bilan belgilangan vakolatlarini amalga oshirish jarayonida albatta prokuratura organlari bilan hamkorlik qilinadi. Mazkur hamkorlik hududiy Kadastr agentligi bilan amalga oshiriladi, bu hamkorlikning shakli va tartibi esa yuqorida biz ko‘rib o‘tgan holatlar bilan bir xilda desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Biroq hozirgi kunga qadar ushbu o‘zaro hamkorlik tartibi, shakli va amalga oshiriladigan tadbirlar doirasi bo‘yicha biror-bir huquqiy hujjat mavjud emas. Bunda ham Qishloq xo‘jaligi vazirligi va prokuratura organlarining huquqiy munosabatlari va o‘zaro hamkorligini belgilovchi biror-bir qoidalar amaldagi qonun hujjatlarida aniq ko‘rsatib o‘tilmagan.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi o‘rtasida “Qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli foydalanish va davlat kadastrlarini yuritish sohasida qonuniylikni ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida”gi tartib qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-apreldagi “O‘rmon to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi O‘RQ–475-sonli Qonunining 13-moddasiga ko‘ra, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi o‘rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko‘paytirish, takroriy ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish sohasida, o‘rmon fondi yerlarida idoraviy nazoratni amalga oshirishi ham belgilab qo‘yilgan.

Bosh prokuratura va O‘rmon davlat qo‘mitasi tomonidan imzolangan 2021-yil 14-yanvardagi “O‘rmon fondini muhofaza qilish, yerdan oqilona foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish sohasida

qonuniylikni ta‘minlash bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida”gi tartibda prokuratura organlari va o‘rmon xo‘jaliklari o‘rtasidagi hamkorlik shakllari va amalga oshirilish tartibi haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Umuman olganda, qonunchilikka ko‘ra, Suv xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sport vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi, “Hududgazta‘minot”, “O‘ztransgaz”, “O‘zbekiston temir yo‘llari”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” va “Hududiy elektr tarmoqlari” Ajlar va ularning tizimidagi tashkilotlarga doimiy va vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan yer uchastkalaridan samarali foydalanilishini o‘rganib borishlari borasida vazifalar yuklangan bo‘lib, ushbu vazirlik va idoralar rahbarlariga birlashtirilgan yer uchastkalaridan maqsadli va oqilona foydalanilishi hamda ular talon-to‘roj qilinishining oldini olish bo‘yicha shaxsiy mas‘uliyat belgilangan.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Prokurorlar o‘z faoliyatlarida jamoatchilik bilan hamkorlikning o‘z maqsad va vazifalariga javob beradigan, prokuratura organlarida shakllangan, shuningdek, boshqa davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan eng samarali shakllardan foydalanishlari muhim hisoblanadi.

Yer kodeksining 84-moddasi talablari-ga ko‘ra, fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlariga yer uchastkalarini ajratish, ulardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ularni mu-

hofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini o'z vakolatlari doirasida amalga oshirishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida fuqarolar yig'inining vakolatlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolar yig'ini tegishli hududda ekin maydonlaridan samarali foydalanilishi va yerlarni muhofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi belgilangan.

Shuningdek, 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-sonli qarorining 3-qismi b-bandiga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchilariga o'z hududida qurilishi boshlangan har qanday bino yoki inshootlarning qonuniyligini aniqlash bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, qurilish va kadastr organlariga so'rov yuborish huquqi berilgan.

Mazkur so'rovlar 5 ish kunida majburiy tartibda ko'rib chiqilib, qurilishi boshlangan bino va inshootlarga ruxsat beruvchi hujjatlar mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari so'rovlar asosida olingan ma'lumotlarni o'z binosida barcha fuqarolar uchun ko'rinarli bo'lgan joyda joylashtiradi hamda aniqlangan noqonuniy holatlar bo'yicha ma'lumotlarni bir kunlik muddatda yer sohasida nazoratni amalga oshiruvchi organlarga taqdim etadi.

Prokuratura organlari tomonidan o'zlariga biriktirilgan yerlardan foydalanilishi va uni muhofaza qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishda, albatta, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilinadi. Chunki, aksariyat holatlarda ma'lum bir hududda yerdan foydalanilishi,

qurilishlar amalga oshirilishi va boshqa holatlar haqida ushbu mahalla fuqarolar yig'ini xabardor bo'ladi.

Shuningdek, tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, ilmiy jamiyatlar va boshqa jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolar yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat organlariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ko'maklashadilar.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari dehqon xo'jaliklarining yer uchastkalaridan hamda tomorqa yerlardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shu jumladan, yerlarga ishlov berilishining holati, urug'lar, ko'chatlar va daraxtlarning ekilishi, issiqxonalar qurilishi, chorva va parrandaning ko'paytirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini hamda uylarni aylanib chiqish orqali muntazam ravishda monitoringni amalga oshiradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O.V. Kaluginaning fikriga ko'ra [16, 155-156-b.], prokuratura organlarining yuqorida ko'rsatilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik bilan axborot, tashkiliy, huquqiy, uslubiy, intellektual potentsiallari [19, 102-b.]ning birlashtirishi:

- qonuniylik holatini tez va to'liq tahlil qilish va qonun buzilishlarini bartaraf etish va buzilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini tiklashga qaratilgan javob choralarini ko'rish imkonini beradi;

- turli xil nazorat organlari tomonidan ayni bir hududda va bir masala bo'yicha bir xil tekshirishlar o'tkazilishiga, ular "faoliyatining beqarorlashishiga" yo'l qo'ymaydi;

- yerdan foydalanish, qurilish va kartografiya sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanilgan holda tekshirish uslublarini takomillashtirilishiga ko'maklashadi;

- yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati, shu jumladan, prokuratura nazorati samaradorligini oshirishga imkon beradi;

– ijro hokimiyati organlarining yer resurslarini boshqarish sohasidagi vakolatlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi;

– yer qonunchiligi, fuqarolik, ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual qonunchilik hujjatlarini bir xilda qo'llash imkoniyatini oshiradi;

– mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, shuningdek, tabiiy ekologik xususiyatlar va qonuniyatlarni hisobga olgan holda yer to'g'risidagi qonunchilik tizimini takomillashtirib borishga ko'maklashadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, prokuratura organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiy shakllari 1) qo'shma kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda doimiy ravishda ishtirok etish; 2) qo'shma tadbirlarni o'tkazish; 3) axborot almashinuvi; 4) uslubiy, maslahat, tashkiliy yordam; 5) o'zaro hamkorlikning boshqa shakllarida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni ta'minlashda prokuror jamoatchilik bilan munosabatlarning turli sohalarida sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida doimiy qo'shimcha ma'lumot manbasiga ega bo'lish, shunga mos ravishda qonuniylik va huquqtartibot holatiga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari – axborot tashuvchilari uchun prokuror tomonidan olingan ma'lumotlarning tekshirilishi va qonunda nazarda tutilgan hollarda, aniq faktlar yuzasidan prokuror javob choralarining ko'rilishi ham muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro hamkorlikda tomonlar o'zaro manfaatdor bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, xususan, rejalashtirilgan yoki o'tkazilayotgan alohida tadbirlar yoki tegishli hamkorlik shartnomalarida belgilangan masalalar bo'yicha ham axborot almashish imkoniga ega bo'ladilar.

Ta'kidlash kerakki, bundan 5 yil oldin deyarli yopiq idora bo'lgan prokuratura faoliya-

tiga bugun oshkoralik xos, xalqqa amalda hisobot berish tizimi yo'lga qo'yilgani esa tom ma'noda inqilobiy hodisadir. Zotan, hozirgi kunda prokurorlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z faoliyati haqida muntazam hisobot bermoqda, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni tezkor axborot va ma'lumotlar keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bir qator hollarda prokuratura organlari nazorat organlarining mansabdor shaxslaridan (davlat inspektorlaridan) zarur hujjatlar, materiallar, statistik va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishlarini, yuzaga kelayotgan masalalarga oydinlik kiritish uchun mutaxassislarni ajratishni talab qilish, huquqbuzarliklar to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar asosida suv va suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish huquqiga ega. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasiga muvofiq, prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi.

Prokuraturada murojaatlar bilan ishlash tizimi tubdan takomillashtirildi, Bosh prokuraturada murojaatlarni uzluksiz qabul qiluvchi markaz faoliyati yo'lga qo'yildi, joylarda sayyor qabullar tashkil etish doimiy amaliyotga aylandi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 5 yilda prokuratura organlariga 1 mln 249 mingga murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 1 mln 187 ming nafar fuqaro bevosita qabul qilingan. Ayniqsa, olis va chekka hududlarda o'tkazilgan sayyor qabullar orqali 323 ming nafar fuqaroning muammolari hal etilgan.

Prokuratura organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligining bugungi holatini o'rganishda, so'nggi besh yilda nisbatan faollashganligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Bunday xulosaga kelishga o'z navbatida quyidagi omillar asos bo'ladi:

- prokuratura va nazorat organlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati, bunga mos ravishda, mamlakatimiz prokuratura organlari faoliyati ochiqligi va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash vazifalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlariga, qadr-qimmatiga, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish" nomli 17-maqсадiga muvofiqligida;

- O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosida yangi tashkiliy tuzilmalar, ya'ni Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'limlari va tegishli lavozimlarning joriy etilishida;

- prokuratura organlari tomonidan ko'rib chiqilayotgan faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ijobiy tajribaning to'planganligida;

- prokuratura organlarining jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'yicha

mas'ul xodimlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarining tashkil etib borilishi, o'zaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yaratilishida;

- o'zaro hamkorlikning huquqiy asoslari, birinchi navbatda, hamkorlik shartnomalarini imzolash orqali takomillashtirishda yuzaga keladi.

Bugungi kunda prokuratura organlarining yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishi bilan birgalikda, Bosh prokuror rahbarligidagi "Yer to'g'risidagi qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi" faoliyati ham yo'lga qo'yilganligi, bu borada keyingi yillarda amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biridir desak, to'g'ri bo'ladi.

Chunki, amaldagi Yer kodeksi talablariga ko'ra, yerlarning muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish mahalliy davlat hokimiyati va boshqa vakolatli idoralarga yuklangan bo'lsa-da, biroq ushbu idoralar zimmasiga yer ajratish, yer maydonlarini auksionga qo'yish, yerlarni monitoring qilish va boshqa ko'plab ijro hokimiyati vazifalari yuklanganligi sababli, o'zlariga qonun bilan biriktirilgan yuqoridagi vazifalar ijrosida sustkashlikka yo'l qo'yib kelinayotgan edi.

Biroq bugungi kunda Kengash oldiga qo'yilgan ayrim vazifalarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, Kengashning yer munosabatlarini tartibga solish borasidagi vakolatlari cheklangan hamda uning faoliyatini amalga oshirish uchun esa mablag' va moliyaviy imkoniyatlari mavjud emas.

Xulosalar

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, prokuratura organlarida yer sohasidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirmasdan turib, ushbu sohada qonun ustuvorligini ta'minlash mushkul masaladir. Shu bois, ilg'or xalqaro va milliy taj-

riba uyg'unligini ta'minlagan holda, yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan tizimning yaratilishi istiqbolda prokuratura organlarining ushbu nazorat yo'nalishidagi faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu sohada quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, Yer kodeksining 83¹-moddasi ko'ra, prokuratura organlari yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar sirasiga kirmasa-da, biroq prokuratura organlarining yerdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta'minlashga mas'ul bo'lgan va bu sohada davlat nazoratini amalga oshiradigan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga maxsus vakolatli bo'lgan davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishi, ushbu organlar

bilan o'zaro amaliy hamkorlikni ta'minlash borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishi mazkur sohada qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilishi haqida xulosaga kelindi.

Ikkinchidan, yerlardan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlash maqsadida, Soliq qo'mitasi huzuridagi Davlat kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligining yerlardan maqsadli va oqilona foydalanilishi ustidan nazorat borasidagi vazifalarini uyg'unlashtirgan holda, Vazirlar Mahkamasi huzurida bevosita Yer nazoratini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan "Davyernazorat" inspeksiyasini shakllantirish lozimligi taklif etiladi.

Bizning fikrimizcha, yer nazorati bo'yicha yagona davlat idorasi tashkil qilingan taqdirda, prokuratura organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vazifalarnigina amalga oshirishiga imkoniyat yaratiladi.

REFERENCES

1. National Report on the State of Land Resources of the Republic of Uzbekistan. Cadastre Agency 2022, pp. 6–21.
2. Yo'ldoshev N.T. Yangi O'zbekiston prokuraturasi islohotlarning dastlabki samaralari [The first results of reforms of New Uzbekistan prosecutor's office]. *New Uzbekistan newspaper*, 2021.
3. Semenov A.S. Institute of mutual cooperation of the prosecutor's office with state authorities and municipal bodies. *State Power and Local Self-government*, 2012, no. 1, pp. 23–26.
4. Po'latov B.X. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Tashkent, 2009, p. 169.
5. Vinegrad A. The Role of the Prosecutor serving the interests of all the people. *Hofstra Law Review*, 2000, vol. 28 (4), Art. 3. Available at: <https://scholarlycommons.law.hofstra.edu/hlr/vol28/iss4/3>
6. Vinokurov A.Yu. Mutual cooperation of the prosecutor's office of the Russian Federation and the environmental protection authorities of the Ministry of Natural Resources of the Russian Federation on the prevention of environmental violations. Moscow, 2000, p. 24.
7. Vinokurov Yu.Ye. Organization of law enforcement supervision. Moscow, MNEPU Publ., 1997, p. 83.
8. Chervyakova Yu. G. Problems of the prosecutor's control over the implementation of land legislation in the Russian Federation. Moscow, 'RSL' Publ., 2003, p. 115.
9. Raximov Sh.J. Suv to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the prosecutor's control over the execution of legal documents on water]. Tashkent, 2023, p. 115.

10. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 631.
11. Vinokurov Yu.Ye. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Moscow, 2015, pp. 433–436.
12. Kapinus O.S. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Moscow, 2014, vol. 2, pp. 365–374.
13. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning buyruqlari [Orders of the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 'Tasvir' Publ., 2018, vol. 2, pp. 63–78.
14. O'zbekiston Respublikasining kodekslari to'plami [Collection of codes of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. Tashkent, 'Yuridik adabiyotlar' Publ., pp. 207–208.
15. Kalugina O.V. Prosecutor's control over the implementation of land legislation in the Russian Federation. Moscow, 2013, pp. 155–156.
16. Vinokurov K.Yu. Prosecutor's control over the execution of laws by administrative jurisdictional bodies. Moscow, 2004, p. 102.

Kelib tushgan / Получено / Received: 04.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./QLNU2867
UDC: 343.988(045)(575.1)

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNING JINSIY DAXLSIZLIGIGA QARSHI QARATILGAN JINOYATLAR SABABLARI

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning sodir etilish sabablari tahlil etilgan. Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv omillar hamda ularni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar ham o'rganilgan. Xususan, ushbu turdagi jinoyatlar kriminologik nuqtayi nazardan o'rganilib, ijtimoiy so'rovlar tahlili ham berib o'tilgan. Jumladan, voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarning obyektiv omillariga oiladagi nosog'lom muhit, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, oiladan tashqaridagi muhit (maktab, mahalla, kichik guruhlar) ning, kriminogen hududning, shuningdek, ommaviy axborot vositalari (internet, ijtimoiy tarmoqlar)ning salbiy ta'siri haqidagi fikrlar bayon etilgan. Voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan jinsiy jinoyatlarni sodir qilishning subyektiv omillari sifatida uning demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, xarakteri, temperamenti, yoshi, jinsi, ma'lumoti, sog'lig'i (nogironlik), muomalaga layoqatliligi, shuningdek, voyaga yetmaganning jinoyat sodir etilishi uchun o'ziga ma'qul bo'lgan shart-sharoitni yaratishi sanab o'tiladi. Bu borada olimlarning fikrlari tahlil etilib, sabablarini bartarafetish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinsiy daxlsizlik, jinoyat, jazo, shaxs, sabablar, shart-sharoit, omillar, bartarafetish.

ПРИЧИНЫ СОВЕРШЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ПОЛОВОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Ниёзова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Уголовное право, криминология и борьба с коррупцией»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проанализированы причины совершения преступлений, направленных против половой неприкосновенности несовершеннолетних. Кроме того, изучены объективные и субъективные факторы, провоцирующие преступления, направленные против половой неприкосновенности несовершеннолетних, а также условия, их порождающие. В

частности, этот вид преступлений изучается с криминологической точки зрения, а также даётся анализ социальных опросов. Так, к объективным факторам преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних относятся нездоровая обстановка в семье, экономическая и политическая нестабильность в обществе, негативное влияние среды вне семьи (школа, махалля, малые группы), криминогенной территории, а также средств массовой информации (Интернета, социальных сетей). В качестве субъективных факторов совершения сексуальных преступлений, направленных против несовершеннолетних, перечисляются демографические и социально-психологические особенности, в частности характер, темперамент, возраст, пол, образование, состояние здоровья (инвалидность), дееспособность, а также создание несовершеннолетним благоприятных для совершения преступления условий. Были проанализированы мнения учёных по этому поводу и даны рекомендации по устранению причин.

Ключевые слова: несовершеннолетние, половая неприкосновенность, преступление, наказание, лицо, причины, условия, факторы, устранение.

REASONS FOR COMMITTING CRIMES AGAINST THE SEXUAL INTEGRITY OF MINORS

Niyozova Salomat Saparovna,
Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. In this article, the causes of crimes against the sexual integrity of minors are analyzed. In addition, this article examines the objective and subjective factors that cause crimes against the sexual integrity of minors, as well as the conditions that cause them. In particular, this type of crime was studied from a criminological point of view, and an analysis of social surveys was also given. In particular, opinions on the negative influence of the unhealthy environment in the family, economic and political instability in the society, the environment outside the family (school, neighborhood, small groups), the criminogenic area, as well as mass media (internet, social networks) on the objective factors of sexual integrity of minors are stated. Demographic and socio-psychological characteristics, in particular, character, temperament, age, gender, education, health status (disability), legal capacity, as well as the creation by the minor of conditions favorable for the commission of the crime, are listed as subjective factors in the commission of sexual crimes against minors. In this regard, the opinions of scientists were analyzed, and recommendations were given to eliminate the causes.

Keywords: minors, sexual inviolability, crime, punishment, personality, causes, conditions, factors, elimination.

Kirish

Bugungi kunda jinoyatchilikning oldini olish masalalari butun dunyo xalqlari oldida turgan eng muhim masalalardan biri. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarning sodir etilish sabablari, shart-sharoitlari, bu holatning oldini olish muammolarini o'rganish, yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi, voyaga yetmaganlarning jismoniy va aqliy jihatidan hali to'la yetilmagani ularga nisbatan

alohida munosabatda bo'lishni, ularni maxsus huquqiy himoya qilishni taqozo etadi.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda jinoyat sodir etilishining sharoit va sabablari, jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, jinoyat xulqining oqibatlarini o'rganiladi. Shunga muvofiq, bunday jinoyat faoliyatining davom ettirilishi yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan yangi bir jinoyatning, shuningdek, qilmish

boshqa shaxslar tomonidan sodir etilishining oldini olish uchun qanday harakatlar lozimligi ko'zlanadi. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyat sodir qilgan jinoyatchi shaxsiga qonun yo'li bilan qanday choralar ko'rilishi mumkinligi ham belgilanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarning hayotiy tajribasi hamda huquqiy ongining yetarli emasligi bu turdagi jinoyatlarning latentligi har doim yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etadi. O'tkazilgan so'rovlar natijalari ham ushbu holatni yana bir bor tasdiqladi. Unga ko'ra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar o'zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyat bo'yicha: 39,5 foiz holatda hech kimga xabar bermagan, 9 foiz holatda faqat yaqin qarindoshlariga ma'lum qilgan, 20,5 foiz holatda "sharmanda bo'lishi"ning oldini olish uchun sir saqlagan. Shuningdek, 31 foiz holatda jabrlanuvchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik bildirgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, voyaga yetmaganlarning, ya'ni 18 yoshga to'lmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini har qanday tajovuzlardan huquqiy himoya qilish har bir davlat hududida nafaqat hozirgi davr uchun, balki insoniyat tarixining barcha davrlari uchun muammoli tarzda xos [1–3] bo'lib, bu o'ziga xoslik uni mustaqil tadqiqot predmeti sifatida bevosita tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Material va metodlar

Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning sodir etilish sabablarini tahlil etish jarayonida qiyosiy-huquqiy hamda mantiqiy (analiz va sintez) metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishida voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning sodir etilish sabablarini yoritish bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganishda qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish metodlari qo'llandi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida rasmiy elektron manbalar hamda olimlarning ilmiy maqola va ilmiy ishlaridan foydalanildi. Shu sababli ushbu materiallarni ishonchli manba sifatida tavsiflash mumkin, degan fikr-damiz.

Tadqiqot natijalari

Har qanday jinoyat singari voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarni fosh etishdan ko'ra oldini olish har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham mazkur ijtimoiy xavfli tajovuzlarning oldini olishga erishish maqsadida, avvalambor, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur o'rganib, tahlil etish lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish bo'yicha oldimizga qo'yilgan vazifaga muvofiq, muammo-ni hal qilishda jinoyatchi shaxsini chuqurroq o'rganib chiqish zarurati vujudga keladi.

Voyaga yetmaganlarga qarshi jinsiy jinoyatlarni sodir qilish ko'pincha aybdor shaxsning o'ta axloqsizligidan, shafqatsizligidan, shuningdek, uning ongida axloqsiz odat va ko'nikma chuqur o'rnashib qolganidan dalolat beradi [4]. Bu shunday holatki, shaxs ma'lum ijtimoiy guruhda mavjud bo'lgan va jamiyat qiziqishlariga ma'qul keladigan, u tomonidan to'g'ri deb topilgan huquqiy hamda ijtimoiy normalarga qarshi chiqadi. Bu yerda shaxsning individual pozitsiyasi bilan jamiyat qiziqishlari o'rtasida aniq ziddiyatni ko'rish mumkin.

Subyektning davlat hamda jamoat tarbiyaviy ta'siri doirasidan chiqib qolishi undagi jinoyatning motivi va maqsadini shakllantiruvchi omillarga qarshi ijtimoiy-axloqiy hamda ma'naviy immunitetining yetarli darajada pasayishiga, shaxsning kriminologik omillar ta'siriga tushib qolishiga olib boradi. Bunda shaxs buzuk shahvoniy omillar fantaziyalari ta'sirida qoladi. Jinsiy istaklarni ayni daqiqada qondirish deyarli asosiy maqsad bo'lib qoladi, chunki tug'ilganidan emas, balki

atrof-muhit ta'sirida vujudga keluvchi omillar natijasida u o'z-o'zini boshqarishga qodir bo'lmaydi.

P. Lyublinskiy kattalarning bolalarga nisbatan jinsiy tajovuz sodir etishining asosiy sababi aybdorning alkogolizmga chalin-ganida, deb hisoblaydi, chunki alkogolizm insondagi mas'uliyatni anglash tuyg'usini so'ndiradi va buzuv mayllarga yo'l ochadi. Bunday mayllardan himoyaga muhtoj, o'z ahvoldagi bola jabr ko'rishi mumkin. Shu-ningdek, muallif bunday hodisalarning bosh omillari qatoriga qo'pol egoizm, bolaga nisba-tan befarqlik va javobgarlikdan qutulib qolish ehtimoli mavjudligini anglash bilan birikkan tiyiqsiz ehtiroslikni kiritgan [5].

R. Kraft-Eybing oilada voyaga yetmagan, bola bilan jinsiy munosabatlarga kirishish haqidagi har qanday fikr axloqli, madaniyatli odamda jirkanch tuyg'ular uyg'otishini qayd etadi. Zero, o'z yaqinlariga nisbatan jinsiy mayl ta'sirchanligi haddan tashqari kuchli va axloqiy-huquqiy tasavvurlari o'ta buzuv bo'lgan shaxsdagina vujudga kelishi mumkin. Beqaror oilalarda ba'zan bu omillarning har ikkalasi: erkaklarda alkogolizmga chalingan-lik yoki mastlik holati, ayollarda – uyatchan-likning rivojlanishini kechiktiruvchi, ba'zan erotizmga sabab bo'luvchi aqli pastlik mavjud bo'ladi. Bular qon-qarindoshchilikning tah-qirlanishiga imkoniyat yaratuvchi omillardir [6]. R. Kraft-Eybing bunday jinoyatlarning sababi sifatida aybdorlarda ruhiy holat buzi-lishining mavjudligini ko'rsatgan. Bizningcha, ruhiy patologiya jinoiy jazoga loyiq qilmish-ning sodir etilishiga imkoniyat berishi mum-kin, lekin hech qachon uning sababi (yoki bir-dan-bir sababi) bo'la olmaydi. Biz o'rgangan jinoyat ishlarining ko'pida jinoyatchilar mast ahvolda bo'lgan. Ma'lumki, bunday holatda barcha ichki ijtimoiy taqiqlar yo'qoladi, mayl-lar tizgini bo'shaladi, shaxs muayyan sharoit-da to'g'ri mo'ljal olishga qodir bo'lmay qoladi.

Mutaxassislar inson ruhiyatining ongliklik va ongsizlik darajalarini farqlaydi. Shaxsning xulq-atvori, jumladan, jinoiy xulq-atvorning

shakllanishiga odatda hisobga olinmaydigan omillar va anglanmaydigan ruhiy hodisalar ta'sir ko'rsatadi. Ular individual hayotning eslanmaydigan tajribasi, unutilgan bolalik taassurotlari, subyekt uchun og'ir bo'lgani bois xotiradan siqib chiqarilgan ruhiyatni azoblovchi hodisalar, individning axloqqa zid mayllari kabilardan iborat. Ular shaxs-ning turmush tarzi va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ruhiyatida turli motivlarning shakllanishida faol ishtirok etadi. Huquqiy, axloqiy ong darajasining pastligi, his-hayajo-nini jilovlay olmasligi bilan ajralib turadigan shaxslarda anglanmaydigan emotsiyalarga boy kechinmalar katta salbiy kuchga aylanishi mumkin.

Z. Freyd ruhiy faoliyatning eng murak-kab turlari – xohish-iroda ifodasi, niyatlar, o'ylar, affektlar, mayllar kabi ruhiyatning anglanmaydigan harakatlantiruvchi motiv-lari yashirin tarzda mavjud bo'ladi va amal qiladi, ongning shakllanishi hamda o'zlikni anglash faqat ruhiy jarayonlar amalda na-moyon bo'lishining alohida, doim ham joiz bo'lavermaydigan shaklidir [7], deb hisobla-gan.

Z. Freydning fikriga ko'ra, siqib chiqaruv-chi va qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar hamda ularning ta'sirida yuzaga keluvchi ratsiona-lizatsiya jarayonlari asosiy ruhiy-dinamik kuchlar hisoblanadi. Siqib chiqarish ongosti darajasida shaxsning turli sabablarga ko'ra qoniqmay qolgan mayllari, istaklari va eh-tirolari bilan bog'liq kechinmalarning ti-yilishi tarzida ifodalangan. Bunday sabab-lar qatoriga shaxsning ijtimoiy muhitdagi muayyan xulq-atvorini tartibga soluvchi normalarni, uning intellektual, moddiy va jismoniy imkoniyatlarini kiritish mumkin. Bunda subyekt tiyish jarayonini bevosita idrok etmaydi. Z. Freydning nazariy tasav-vurlaridan kechinmalarning har qanday turi siqib chiqarilishi mumkin, biroq jinsiy mayl-lar bilan bog'liq kechinmalar, ayniqsa, kuchli quvg'inga duchor bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlarning sabablari bir qarashdagina aniq-ravshan bo'lib tuyulishi mumkin, amalda ular inson ruhiyatining teran qatlamlarida yashirinib yotadi va aksariyat hollarda qilmishning motivlari ong bilan qamrab olinmaydi. Biz tadqiq qilnayotgan jinoyatlarining bir nechta asosiy sabablarini aniqladik. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy mayl ibtidoiy jamoadan ongsizlik mexanizmlari orqali keyingi avlodlarga ular bilan jinsiy aloqalar man etilmagan uzoq zamonlarning odamlaridan meros qolgan, deb aytish mumkin. Ayrim primitiv qabilalarda inestning mavjudligi ular ongi va madaniyatining mutlaqo rivojlanmaganidan dalolat beradi.

Bu hodisaga nisbatan "tabu" inson rivojlanishining muayyan bosqichida, aftidan, odamlar uning irsiyatga zararli ta'sirini anglab yetganlaridan so'ng paydo bo'lgan.

Bunday jinoyatlar sodir etilishining boshqa muhim omillari qatoriga oilada bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarning alkogolizm yoki giyohvandlikka chalinganligi, ularda ruhiy faoliyatning buzilganlik hollari mavjudligi, OIVga yo'liqqanlik [8–10], oila va mikromuhitdagi boshqa ixtilofli munosabatlar kiradi. Ushbu omillar ta'sirida ma'rifatli jamiyatda yashash qoidalarini o'zlashtirmagan yoki jamiyatdan uzoqlashgan, insonniylik qiyofasini yo'qotgan odamlarda qadimgi, mohiyatan hayvoniy hirs uyg'onadi. Ular hech qanday taqiqni tan olmaydi, o'z bolalari yoki yaqin qarindoshlari bilan jinsiy munosabatlarga kirishaveradi.

Tadqiq qilnayotgan jinoyatlarning sabablaridan biri sifatida individual regress, ya'ni o'tmishga, subyektiv qulay emotsional holatga shartli ravishda qaytish yoki ayollar bilan nisbatan murakkab jinsiy munosabatlardan bolalar bilan soddaroq jinsiy munosabatlarga o'tishni ko'rsatish mumkin. Bu hol muayyan yoshdagi shaxslar tomonidan mazkur harakatlarning sodir etilishida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlarning sodir etilishiga jinsiy zaiflik, ya'ni ayol bilan jinsiy aloqa qilishdan

qoniqmaslik ham sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda jinoyatchilar o'z e'tiborini jinsiy aloqa qilishdan ko'zlangan maqsadga erishish imkonini berishi mumkin bo'lgan obyektga qaratadi.

Shuningdek, sud amaliyotidan ma'lumki, ko'plab o'smirlarda jinoiy javobgarlikka necha yoshdan boshlab tortilishi, alkogolik va giyohvandlarga nisbatan majburiy davolash choralari qo'llanishi to'g'risida tushuncha bo'lmaydi.

Tahlil natijasida voyaga yetmaganlarning xatti-harakatlarini belgilashda, shu bilan birga, ularning uyatsiz-buzuq jinsiy xarakter kasb etuvchi qilmishlarni sodir etishida ijtimoiy omillar asosiy rol o'ynaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada oila va o'quv muassasalaridagi tarbiya, ayniqsa, jinsiy tarbiyaning sustligi hamda jinsiy-tarbiyaviy chora-tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'yishdagi mavjud kamchiliklar jinsiy daxlsizlik va erkinlikka tajovuz qiluvchi jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, chunki mazkur jinsiy tarbiyaning noto'g'ri olib borilishi shaxsda jinsiy munosabatlarga nisbatan buzuq qarashlarning vujudga kelishiga olib keladi [11–17], degan fikrni keltirish o'rinlidir.

Shaxsning ma'naviy dunyosi rivojlanmasligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar asosan maktab va mehnat tarbiyasidagi umumiy kamchiliklardan kelib chiqadi. Umumta'lim maktablarida va kollejlarda o'quv-tarbiyaviy ishlardagi mavjud kamchiliklar jinoiy oqibatlariga olib boradi, bunda ijtimoiy aloqalar buziladi, salbiy ta'sir manbalari bilan bog'lanish esa yengillashadi. Bundan tashqari, bilim darajasining pastligi ham ko'pgina hollarda shaxsning talab va manfaatlari torayishiga, o'z-o'zini nazorat qilishning, o'z-o'ziga to'g'ri baho berishning zaiflashuviga olib boradi.

Mehnat jamoalarida yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularni tarbiyalashni tashkil etishdagi kamchiliklar ham voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan jinoyatchilikning o'sishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, huquqiy-tarbiyaviy ishlardagi va huquqni muhofaza

qilish faoliyatidagi kamchiliklar ham jinoyat-chilikning ko'payishiga olib borishi mumkin. Shaxsning huquqiy madaniyati uning huquqiy ongi, huquq va uni qo'llash amaliyotiga, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga, sodir etilgan jinoyatga, shuningdek, qonunga itoat qilish talabiga bo'lgan munosabati, o'zining shaxsiy ishonchi va odatlarining huquqiy yo'nalishlari yig'indisidan iboratdir. Huquqiy tarbiyadagi kamchiliklar esa jamiyatning yosh avlodni muhofaza qilish faoliyatida, o'smirlarni o'z huquq va burchlarini tushunib olish darajasiga yetkazishda, qonunning ijtimoiy o'rni haqidagi aniq tushunchalarni shakllantirishga to'liq e'tibor bermaslikda va boshqalarda ko'rinadi [18].

Odatda jinoyat sodir etuvchi shaxslar huquqiy ongida sezilarli o'zgarishlar mavjudligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday o'zgarishlar qisman qonunda ko'rsatilgan taqiqlashni rasmiy va "shaxsan o'zi uchun" majburiy emas deb tushunish, qonunning ijtimoiy ahamiyatini anglamaslik, qonunni maqsadga muvofiqlikka qarama-qarshi qo'yish, huquqni qo'llash amaliyotining adolatligini inkor qilish, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga nisbatan ishonchsizlik munosabati, sodir qilgan jinoyati uchun jazo olishdan qutulish imkoniyati borligiga ishonch kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bu borada "voyaga yetmagan shaxslarni huquqiy tarbiyalashning obyekti ularning huquqiy ongi hisoblanadi" [19] degan qarashlar o'rinlidir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabab va shart-sharoitlari sifatida Y.V. Trunsevskiy [20–21] jamiyatdagi nosog'lom muhit, ya'ni katta yoshdagi va voyaga yetmagan shaxslarning axloqan tarbiyasizligini, hozirgi kunda yoshlar orasida xorijiy filmlar, jurnal va gazetalaridagi ular axloqiga ta'sir qiluvchi holatlar, bu vositalar ustidan nazorat olib borilmasligini, N.Gaydarenko [22] ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi ustida yetarlicha nazorat olib bormasligini,

B.A.Jetpisbayev [23] esa ota-onalarning farzandlari ehtiyojlarini moddiy jihatdan yetarli darajada qondira olmasligi va bu holat voyaga yetmaganlar tomonidan to'g'ri qabul qilinmasligi kabilarni ko'rsatadilar.

Keling, voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni vujudga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillarni o'rganib ko'raylik. Voyaga yetmagan shaxslar jinsiy daxlsizligining obyektiv omillariga oiladagi nosog'lom muhit, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, oiladan tashqaridagi muhit (maktab, mahalla, kichik guruhlar)ning, kriminogen hudud, shuningdek, ommaviy axborot vositalari (internet, ijtimoiy tarmoqlar)ning salbiy ta'siri kiradi. Shaxsning demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, xarakteri, temperamenti, yoshi, jinsi, ma'lumoti, sog'lig'i (nogi-ronlik), muomalaga layoqatli ekanligi, shuningdek, voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi uchun o'ziga ma'qul bo'lgan shart-sharoitni yaratishini voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan jinsiy jinoyatlarni sodir qilishning subyektiv omillari sifatida qayd etish mumkin.

Subyekt shahvoniy motivlar ta'sirida bo'ladi, ya'ni ularga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bunday jinoyatlar motiviga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

1) shaxsning demografik va intellektual jihatlar bilan bog'liq omillar (yosh, ta'lim, intellekt, bog'liqlik va ergashuvchanlik);

2) tashqi muhit va uning tarbiyaviy ta'siri shart-sharoitlaridan kelib chiquvchi omillar. Masalan, pornografik materiallar shaxsda jinsiy munosabatlar haqida noto'g'ri va hattoki ma'naviy buzuv stereotiplarni shakllantiradi. Bunday materiallar tarqalishining oldini olish jinsiy jinoyatlar, xususan, voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan jinsiy tajovuzlarning kamayishiga sabab bo'ladi (Daniya va Germaniya davlatlarida esa aksincha, pornografiyani rasmiylashtirish jinsiy jinoyatlarning oldini olish chorasini sifatida qo'llangan [24]).

3) jinoyatni sodir etishga undovchi aniq holatlar bilan bog'liq omillar [25].

Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarda motiv 90 foiz holatlarda jinsiy xarakterga ega bo'lsa-da, [26] bunday jinoyatlarning kelib chiqishida shart-sharoit yaratuvchi vaziyatlar aksariyat sotsial (ijtimoiy) xarakterda bo'lishi [27, 25] ko'plab tadqiqotlar orqali isbotlangan.

Demak, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir qilgan jinoyatchilar shaxsini o'rganayotganimizda, birinchi navbatda, ularning ijtimoiy qiyofasi shakllanishidagi buzilishlar, kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning 2/3 qismi 25 yoshga to'lmagan umumiy-o'rta ma'lumotli shaxslar; deyarli 4/5 qismi turmush qurmagan shaxslar; 1/3 qismi esa ish joyi mavjud bo'lmagan shaxslar deb topilgan. Bunday jinoyatlar aksariyat holatlarda mastlikda, yarim kechasi, ko'cha va qurilish joylarida sodir etilgan. Jinoyatning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, oldini olish choralarini qo'llash borasida mana shu jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligi odatda jinoyat sodir etilishidan birmuncha oldinroq yuzaga keladi. Shaxsning ijtimoiy salbiy xususiyatlari [28] va birinchi navbatda xatti-harakatining jinoyatkorona xususiyati, uning har xil g'arazli niyatlari muayyan jinoyatlar sodir qilinishining sababi sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, jinoiy xatti-harakatlarining yuzaga kelishida irodasizlik emas, balki salbiy-ruhiy yo'nalish ko'proq ahamiyat kasb etadi. Bunda jinoyatchida uyatchanlik hissi yo'qolib, qo'pollik va rahmsizlik, aldoqchilik va o'zini o'zi tanqid qilmaslik xususiyati shakllanadi.

Katta yoshdagi va voyaga yetmagan jinoyatchilarning ko'pchiligi jismoniy jihatdan sog'lom bo'lsa-da, lekin ularda o'z tengdoshlariga nisbatan ruhiy buzilishlar bir necha marotaba ko'proq uchraydi. Bu kasalliklarning beshdan bir qismigina nasldan naslga o'tganligi bilan bog'liq.

10. Investor profile. Navoi Free Economic Zone, Uzbekistan. *Invest Foresight*, 2022. Available at: <https://www.if24.ru/dose-investora-navoi-free-economic-zone-uzbekistan/>
11. Statistical yearbook of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2021, 278 p.
12. Section Investments. Website of the Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan.
13. Avezov A.Kh. Sovershenstvovaniye zakonodatel'stva Uzbekistana v oblasti zaschity prav inostrannykh investorov [Improving the legislation of Uzbekistan in the field of protecting the rights of foreign investors]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, 2021, no. 3, pp. 72–79. DOI: 10.12737/jflcl.2021.029
14. Shakirov O.Sh. Uzbekistan v initsiative "Poyas i put'", vozmozhnosti i riski [Uzbekistan in the Belt and Road Initiative, Opportunities and Risks]. *Problems of the Post-Soviet Space*, 2019, no. 6/2/, pp. 138–154. DOI: 10.24975/2313-8920-2019-6-2-138-154
15. Khoshimov Kh., Otaboyev Sh. Perspektivy uchastiya Uzbekistana v initsiative KNR "Odin poyas – odin put'" [Prospects for Uzbekistan's Participation in China's Initiative "One Belt - One Road"]. *International Relations*, 2018, no. 3, pp. 68–76. DOI: 10.7256/2454-0641.2018.3.26693
16. Yusupov E.D. Stabilizatsionnaya ogovorka v investitsionnom zakonodatel'stve, opyt Uzbekistana i zarubezhnykh stran [Stabilization clause in investment legislation, experience of Uzbekistan and foreign countries]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, 2020, no. 5, pp. 113–124. DOI: 10.12737/jflcl.2020.043
17. Tursunbayeva N.S. Sozdaniye mezhdunarodnogo investitsionnogo arbitrazha v Respublike Uzbekistan: predposylki i perspektivy [Creation of international investment arbitration in the Republic of Uzbekistan prerequisites and prospects]. *Law and the State*, 2021, no. 3/4/92–93, pp. 205–210. DOI: 10.51634/2307-5201_2021_3-4_205
18. Yuldashev O.T. Investitsionnaya politika Uzbekistana: priority, mekhanizmy i napravleniya sovershenstvovaniya [Investment policy of Uzbekistan priorities, mechanisms and directions of improvement]. *Economy and Innovative Technologies*, 2020, no. 4, pp. 30–38.
19. Chzhan V., Li T. Analiz i rekomendatsii po pravovoy srede dlya investitsiy v Uzbekistane [Analysis and Recommendations on the Legal Environment for Investments in Uzbekistan]. *Legal System and Economy*, 2021, no. 2, pp. 119–121.
20. Lyu Ch. Issledovaniye pravovykh mekhanizmov zashchity investitsionnogo sotrudnichestva mezhdru Kitayem i Uzbekistanom v ramkakh initsiativy "Odin poyas, odin put'" [Research on Legal Mechanisms for Protecting Investment Cooperation between China and Uzbekistan within the Framework of the One Belt, One Road Initiative]. *South Asian Studies*, 2022, no. 3, pp. 73–85.
21. Van I. Analiz vliyaniya nalogovoy reformy v Uzbekistane na investitsii kitayskikh kompaniy [Analysis of the Impact of Tax Reform in Uzbekistan on Investments of Chinese Companies]. *Foreign Investment and Export Credits*, 2020, no. 11, pp. 33–37.
22. Chen S. Problemy i strategii kitayskikh kompaniy, investiruyushchikh v Uzbekistan [Problems and strategies of Chinese companies investing in Uzbekistan]. *International Projects and Workforce*, 2021, no. 5, pp. 45–49.
23. Gao T. Opyt i uroki lokalizatsii kompanii Huawei v Uzbekistane [Huawei's Localization Experience and Lessons in Uzbekistan]. *Globalization*, 2019, no. 8, pp. 136, 147–161.

Kelib tushgan / Получено / Received: 08.07.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.08.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.08.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.4./GTMI6578

UDC: 343.341.1(045)(575.1)

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR HAQIDA XABAR BERGAN SHAXSLARNI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDAGI QONUN LOYIHASINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Majidov Shahzod Abdixalil o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-0583-2266
e-mail: shohzod.majidov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini takomillashtirishga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 3-bandida ko'zda tutilgan. Unda korrupsiya to'g'risida xabar beruvchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda asosiy chora sanalgan korrupsiyaga oid xabarlarini qayta ishlash tizimini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Jumladan, O'zbekistonda xabar beruvchi shaxsda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berishda g'arazgo'ylik, shaxsiy adovatga yo'l qo'ymaslik, xabar beruvchi shaxsga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq, ta'qib va zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida ushbu tushunchalarni tadqiq etish dolzarbdir. Shuningdek, mazkur loyiha doirasida o'tkazilgan ilmiy tahlillardan kelib chiqib, mazkur qonun loyihasini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasining jinoyat qonunchiligi, shuningdek, huquqshunos olimlarning qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan va muallif tomonidan olimlar bilan ilmiy bahs-munozaraga kirishilgan. Bundan tashqari, maqolada qonun loyihasidagi xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish va rag'batlantirishning asosiy prinsiplari tahlil qilinib, mazkur tamoyillarni takomillashtirish yuzasidan zarur takliflar berilgan. O'zbekistonda korrupsiyaviy jinoyatlarni tezkor fosh etish va oldini olishda xabar beruvchi shaxslarning roli va o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, shaxsiy adovat, g'arazgo'ylik, tazyiq, ta'qib, zo'ravonlik, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, xabar qiluvchi shaxs, xabar qiluvchining ish joyi.

НЕКОТОРЫЕ СУЖДЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ЗАКОНОПРОЕКТА О ЗАЩИТЕ ЛИЦ, СООБЩИВШИХ О КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ

Мажидов Шахзод Абдихалил угли,
базовый докторант Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию проекта Закона Республики Узбекистан «О защите лиц, сообщивших о коррупционных правонарушениях». Его разработка Агентством по борьбе с коррупцией Республики Узбекистан предусмотрена пунктом 3 Государственной программы по противодействию коррупции на 2023–2024 годы, утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций» от 27 ноября 2023 года № УП–200. Поставлена задача совершенствования системы обработки сообщений, касающихся коррупции, где основной мерой является разработка проекта нормативно-правового документа, предусматривающего механизмы защиты прав лиц, сообщивших о коррупции. В частности, в Узбекистане актуально изучение этих понятий в целях недопущения случаев осуждения, неприязни, давления, преследования и насилия в отношении лица, сообщившего о коррупционном правонарушении, которые могут быть совершены третьими лицами. Также на основе проведённого в рамках статьи научного анализа разработаны предложения по совершенствованию данного законопроекта. В ходе него было изучено уголовное законодательство Российской Федерации и Республики Беларусь, а также научно-теоретические взгляды учёных-правоведов, и автор вступил в научную дискуссию с учёными. Кроме того, в статье проанализированы основные принципы защиты и поощрения сообщающих лиц и даны необходимые предложения по совершенствованию этих принципов в законопроекте. Исследованы роль и значение сообщающих лиц в оперативном раскрытии и предупреждении коррупционных преступлений в Узбекистане.

Ключевые слова: коррупция, личная неприязнь, осуждение, притеснение, преследование, насилие, противодействие коррупции, коррупционные правонарушения, сообщившее лицо, место работы сообщившего лица.

SOME CONSIDERATIONS FOR IMPROVING THE DRAFT LAW ON THE PROTECTION OF PERSONS REPORTING CORRUPTION OFFENSES

Majidov Shakhzod Abdixalil ugli,
Doctoral student of the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article is devoted to the improvement of the draft law of the Republic of Uzbekistan "On the protection of persons reporting corruption-related offenses". The draft developed by the Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan is the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-200 of November 27, 2023 "On measures to further improve the system of anti-corruption and increase the effectiveness of the system of public control over the activities of state bodies and organizations" provided in paragraph 3 of the state program for the fight against corruption for 2023-2024. It faces the task of improving the system for processing reports of corruption, which is the main measure in the development of a draft regulatory document providing for mechanisms to protect the rights of persons reporting corruption. In particular, in Uzbekistan, it is important to study these concepts in order to prevent hypocrisy, personal hostility, oppression, harassment, and violence against a person reporting a corruption offense that may be committed by third parties. Also, based on

the scientific analysis carried out on this project, proposals have been developed to improve this draft law. During the analysis, the criminal legislation of the Russian Federation and the Republic of Belarus was analyzed, as well as the theoretical views of legal scholars, which were studied in a scientific and theoretical way and included by the author in scientific discussion work with scientists. Also, in this article, the basic principles of protection and encouragement of informants in the draft law were analyzed, and reasonable suggestions for improving these principles were given. The role and place of whistleblowers in the rapid detection and prevention of corruption crimes in Uzbekistan is analyzed.

Keywords: corruption, personal animosity, condemnation, harassment, stalking, violence, anti-corruption, corruption offenses, whistleblower, whistleblower's place of work.

Kirish

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining xalqaro huquqiy asosi hisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 33-moddasida har bir ishtirokchi davlat vakolatli organlarga mazkur konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlar xususida istalgan dalillar to'g'risida halol va oqilona asoslarga tayangan holda xabar bergan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan tegishli choralarni o'zining ichki huquqiy tizimiga kiritish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi lozimligi qayd etilgan bo'lsa [1], Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kengashi-ning "Samarali boshqaruvni mustahkamlash, korrupsiya, pul mablag'larini legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni tasdiqlash to'g'risida"gi Dublin deklaratsiyasida (2012-y.) ishtirokchi davlatlar tomonidan davlat va xususiy sektorda ma'lumot beruvchi shaxslar va ularning oila a'zolarini samarali himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchga kiritish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishning muhimligi tan olingan [2].

So'nggi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masalaga aylandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir", – deb ta'kidlagan edi [3, 1-b.]. Shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kura-

shish borasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori 2024-yil 16-yanvarda mamlakatimiz aholisiga qilgan murojaatida shunday degan edi: "Korrupsiya bilan bog'liq har bir jinoyatni o'z vaqtida aniqlashda biz mahalla, yoshlar, xotin-qizlar va nuroniy tashkilotlarining faollariga, turli mehnat jamoalaridagi jonkuyar va vatanparvar insonlarga, ularning tezkor xabari, amaliy yordami va hamkorligiga tayanamiz" [4, 1-b.]. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda korrupsiyaga oid faktlar to'g'risida xabar berish tizimi jinoyatlarni tezkor ravishda fosh etish, korrupsiyaviy jinoyatlar-ning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali usul hisoblanadi. Shu sababli korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida axborot taqdim qilgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldi olinishi, jinoiy holatlarning tezkor aniqlanishi, fosh etilishi, unga sabab bo'luvchi sharoitlarning o'z vaqtida bartaraf etilishi va jazo muqarrarlari ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Biroq bugungi kunda xabar beruvchi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berilishi tufayli ularga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan tazyiq o'tkazilishi ularning xabar berishga oid rag'batining tushib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, xabar beruvchi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid faktlar haqida xabar qilmaslikni vakolatli organlarning xabar beruvchi shaxslarga himoya choralari-ning o'z vaqtida qo'llashiga ishonch darajasi kamligi bilan izohlash mumkin. Jumladan, tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, haqida xabar qiluvchi

shaxslar korrupsiyaviy jinoyatlarning atigi 10 foizidan kamrog'i ma'lumot bermoqda [5].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "Chegara bilmas muxbirlar" (Reports without borders) xalqaro tashkiloti tomonidan "Matbuot va so'z erkinligi" bo'yicha e'lon qilingan yillik hisobotga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda matbuot va so'z erkinligida 45.73 ball bilan 180 ta davlat orasida 137-o'rinda turgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragida 37.27 ball bilan 148-o'rinda qayd etilib, 11 pog'ona pastlagan. Mazkur yillik hisobotda O'zbekiston Respublikasida OAV uchun davlat organlari faoliyatini tanqid qilish murakkabligicha qo'layotganligi, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslar, ommaviy axborot vositalari, blogerlar va jurnalistlarga tahdid qilinayotganligi, shuningdek, ularning huquqiy himoyasini yetarlicha ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari va himoya qilish mexanizmlari to'liq emasligi ta'kidlangan [6]. Bundan tashqari, yillik hisobotda O'zbekiston Respublikasida xabar beruvchilarning so'z erkinligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy jihati sifatida, davlat va xususiy sektorda korrupsiyaviy huquqbuzarlikni profilaktika qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va uning oldini olishda xabar beruvchi shaxslarning huquqlarini huquqiy jihatdan himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturida korrupsiya to'g'risida xabar beruvchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizm-

larini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy chora-tadbiri sifatida belgilandi.

Ushbu chora-tadbirdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni loyihasi (keyingi o'rinlarda loyiha) ishlab chiqildi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida xabar berish institutida "xabar qiluvchi shaxslar" tushunchasiga oid yuridik terminlarni qo'llashdagi xatolar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslar tomonidan xabar berishda g'arazgo'ylik yoki past niyatlar hamda shaxsiy adovatga yo'l qo'y-maslik, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslarga ushbu qonun loyihasi tatbiq etilmasligi, xabar qiluvchi shaxslarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq, ta'qib, zo'ravonlikdan muhofaza qilishning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi davlatlarida ushbu tajribaning normalarda mustahkamlanishi hamda qo'llanishi kabi masalalar o'rganildi.

Yuqorida sharhlanayotgan masalalar yuzasidan muallif pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni loyihasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qiyosiy-huquqiy va taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Mazkur loyiha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarning hu-

quqlarini huquqiy jihatdan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq loyiha ustida o'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar loyiha-ning ayrim moddalarini qayta ko'rib chiqqan holda uni yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Tahlillar loyiha-ning nomi va matnida keltirilgan "xabar bergan shaxslar", "xabar beruvchi shaxslar" so'zlarini "xabar qiluvchi shaxslar" so'zlariga almashtirish zarurligini taqozo qilmoqda. Buning sababini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- birinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hujjatlarida "korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslar himoyasi" belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni 26-, 28-moddalarida "xabar qiluvchi shaxs" termini qo'llangan va moddalarning nomi:

"Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati" (26-modda);

"Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborot haqida xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish" (28-modda) tarzida bayon etilgan;

- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi-ning Jinoyat kodeksida "jinoyat haqida xabar qilmaslik" jinoyatga daxldorlikni keltirib chiqarishi belgilangan va ushbu moddada "jinoyat haqida xabar qilmaslik" atamasi qo'llangan (JK 31-modda);

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi-ning amaldagi qonun hujjatlari tahliliga ko'ra, yuridik texnika qoidalar va qonun ijodkorligi amaliyoti talablarida yuridik terminlar (normativ qoidalar)ni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagi talablarga asosan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni va ushbu qonun bilan tasdiqlangan yagona uslubiyot, shuning-

dek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining 2010-yil 30-dekabr kunidagi 237-II/150-II-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan qoidalar talablaridan kelib chiqib, loyiha-ning nomini "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxslarni himoya qilish to'g'risida" deb nomlash va loyiha moddalarida qayd etilgan "xabar bergan shaxslar", "xabar beruvchi shaxslar" so'zlarini "xabar qiluvchi shaxslar" atamasiga o'zgartirish lozim.


Shuningdek, o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, loyiha-ning 1-moddasi ikkinchi qismiga asosan, ushbu qonun tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarga tatbiq etilmasligi belgilangan.

Ma'lumki, maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi-ning 2012-yil 25-dekabr-dagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-sonli Qonuniga muvofiq, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashishi mumkin. Ko'maklashish faqat yuqorida ta'kidlangan qonunga muvofiq amalga oshirilgan taqdirda ushbu shaxs toifasi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli mazkur loyiha-ning 1-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha tahrirda o'zgartirish lozim: "Ushbu qonun "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxslarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarga tatbiq etilmaydi".

Bundan tashqari, loyiha-ning 14-moddasi-da xabar beruvchining majburiyatlari sifatida xabar beruvchi xabar berishda g'arazgo'ylik va shaxsiy adovatga yo'l qo'yimasligi belgilangan. Biroq loyiha-ning biror-bir matnida "g'arazgo'ylik yoki past niyatlar" va "shaxsiy adovat" kabi tushunchalarning izohi mavjud emas va bu esa kelgusida har qanday shaxs

unga nisbatan “g’arazgo’ylik yoki past niyatlar” yoinki “shaxsiy adovat” orqali shikoyat qilinganligini bildirishi va amaliyotda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan buning oldini olishda ma’lum bir qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli loyiha ning 3-moddasida qayd etilgan asosiy tushunchalarga “g’arazgo’ylik” va “shaxsiy adovat” tushunchalarini kiritish va ularning aniq ta’rifini ishlab chiqish shart.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, quyida keltirilgan rasmdan ko’rish mumkinki, tadqiqot ishi so’rovnomasida “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslar xabar berishda g’arazgo’ylik yoki past niyatlar, shaxsiy adovat hamda shaxsiy manfaatlarni ko’zlab xabar berishi mumkinmi?” degan mazmundagi savolga respondentlar quyidagicha ovoz berishgan (1-rasm).



1-rasm. So’rovnoma natijasi foiz hisobida

Ushbu so’rovnoma natijasini xabar qiluvchi shaxslar ish joyida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishda g’arazgo’ylik yoki past niyatlar, shaxsiy adovat yoinki shaxsiy manfaatlarni ko’zlab xabar berishi mumkinligi ehtimoli mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Huquqshunos olimlarning ilmiy nazariyasida “g’arazgo’ylik yoki past niyatlar” va “shaxsiy adovat” tushunchalariga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, tadqiqotchi U. Zakirova tomonidan “g’arazgo’ylik” va “past niyatlar” tushunchalarini izohlash borasida amaliyotchi va nazariyotchi olimlar o’rtasida yagona yondashuv mavjud emasligi, buning natijasida ular turlicha talqin qilinishiga sabab bo’layotganligi ta’kidlangan [7, 119-b.].

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi ning “Atamalarining huquqiy ma’nosi” nomli 8-bo’limida ham faqat g’arazgo’ylik niyatla-

ri izohlangan. Unda g’arazgo’ylik niyatlariga “sodir qilingan jinoyatdan moddiy yoki boshqacha mulkiy yo’sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutulishga intilishda ifodalangan niyat” deb ta’rif berilgan.

Huquqshunos olim I.G. Tyutyunnikning fikricha, g’arazgo’ylik shaxsning shaxsiy xususiyatlari (qiziqishlari, intilishlari, sevimli mashg’ulotlari va hayot yo’nalishlari) bilan to’ldirilgan va boyitilgan ehtiyojlarni qondirish, noqonuniy boyishni amalga oshirish maqsadida shaxs tomonidan har qanday foyda (moddiy yoki boshqacha mulkiy yo’sindagi foyda) olishga qaratilgan, xudbin ehtiyoj va o’zga shaxsning mulki yoki mulkiy huquqini tortib olishga qaratilgan harakatlarni o’z ichiga oluvchi niyatdir [8, 11-b.].

Rossiyalik huquqshunos olim A.A. Turi-shevning ta’kidlashicha, g’arazgo’ylik shaxsning o’zi yoki yaqin qarindoshlari uchun foyda olish maqsadida mulk yoki mulkiy huquq-

ni olishga qaratilgan ichki motivdir [9, 11-b.]. Huquqshunos olim D.O. Teplovaning fikricha, g'arazgo'ylik o'zga shaxslarning mulki va mulkiy huquqlarini qo'lga kiritishda ifodalanadigan maqsadda namoyon bo'ladi [10, 11-b.].

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksida g'arazgo'ylik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "G'arazgo'ylik – shaxsda qonuniy asoslarning mavjud emasligiga qaramasdan, shaxsning noqonuniy ravishda boyishi, moddiy yoki boshqacha mulkiy yo'sindagi manfaat olishga bo'lgan ichki istagidir (motiv)" [11, 11-b.]. Belarus Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko'ra, g'arazgo'ylik – bu sodir etilgan yoki etilayotgan jinoyatdan o'zi yoki yaqinlari uchun mulkiy foyda olish istagi yoki o'zi yoki yaqinlarini moddiy xarajatlardan qutqarish niyati bilan tavsiflangan motivlar majmuasidir [12, 11-b.].

Bugungi kunda "past niyatlar" atamasi ham jinoyat qonunchiligida keng qo'llanib kelinmoqda. Ko'p hollarda u g'arazli niyatlar bilan birga keladi (bunda g'arazli va boshqa past niyatlar deb qayd etiladi). Demak, g'arazli niyat, shubhasiz, past niyatlardan biri hisoblanadi, lekin qonun chiqaruvchi nazdida boshqa past niyatlar ham mavjud. Yuridik adabiyotlarda "past niyatlar" (shuhratparastlik, tubanlik, razillik, qo'rqqoqlik, burchni noto'g'ri tushunish va boshq.) juda keng tushuniladi [13, 243-b.]. Huquqshunos olim S.I. Nikulinning fikriga ko'ra, "past niyatlar shunday motivlarki, ular odob-axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzadi (masalan, o'ch olish, milliy va irqchilik zamirida)" [14, 301-b.]. Xuddi shunga o'xshash pozitsiyani tadqiqotchilari A.I. Chuchayev ham bildiradi. Uning nazarida, past niyatlar shaxsning boshqa bir shaxsdan o'ch olish yoki rashk tufayli ong ostida o'ylangan niyatlaridir [15, 348-b.].

Bizningcha, bu yerda so'z odob-axloq va jamiyat qadriyatlariga zid bo'lgan motivlar haqida bormoqda. Y. Gil esa "past niyatlar" tamagirlik, bezorilik, o'ch olish, milliy, irqiy yoki diniy adovat zamiridagi motivlar ekanligini bildirgan [16, 355-b.].

Bundan tashqari, jinoyat qonunchiligida shaxsiy adovat tushunchasi yuzasidan ham olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S. Vshivsevning fikriga ko'ra, shaxsiy adovat – murakkab psixologik jarayon bo'lib, shaxsda yashirin psixologik tajovuzda ifodalangan ruhiy jarayondir [17, 11-b.]. D.N. Ushakovning fikricha, shaxsiy adovat uchinchi shaxslarga nisbatan yashirin ruhiy dushmanlik munosabatini bildiradi [18, 11-b.], R.A. Sevostyanovning fikriga ko'ra, shaxsiy adovat shaxsiy dushmanlikning tashqi ifodasi bo'lib, boshqa shaxs va uning xatti-harakatlarini ichki rad etishda ifodaladi [19, 11-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Tahlillarga ko'ra, mazkur loyihaning 14-moddasida xabar beruvchining majburiyatlari sifatida uning xabar berishda g'arazgo'ylik va shaxsiy adovatga yo'l qo'ymasligi belgilangan.

Fikrimizcha, shaxsiy adovat shaxslar o'rtasida dushmanlik munosabati va shunday munosabatga xos his-tuyg'uda ifodalangan harakat yoki harakatsizlik bo'lsa, g'arazgo'ylik moddiy yoki boshqacha mulkiy yo'sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutulishga intilishga bo'lgan harakat yoki harakatsizlikda ifodalangan niyat yoxud maqsaddir.

Yuqorida o'tkazilgan tahlillarga asoslanib, loyihaning 3-moddasida qonunda qo'llangan asosiy tushunchalar sifatida "g'arazgo'ylik yoki past niyat" va "shaxsiy adovat" tushunchasiga ta'rif ishlab chiqilishi lozim. Jumladan:

"xabar berishda g'arazgo'ylik yoki past niyat" – moddiy yoki boshqacha mulkiy yo'sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutulishga intilishga bo'lgan harakat yoki harakatsizlikda ifodalangan niyat yoki odob-axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzishda ifodalangan maqsad;


"xabar berishda shaxsiy adovat" – shaxslar o'rtasida dushmanlik munosabati, psixologik tajovuzda ifodalangan yoki shunday munosabatga xos salbiy his-tuyg'uda ifodalangan jarayon.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni 28-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etishi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan holatlarda va shaxsning o'zi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayoti va sog'lig'iga haqiqiy tahdid, ularga nisbatan zo'rlik ishlatilganligi, ularning mol-mulki yo'q qilinganligi yoki shikastlantirilganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himo-

ya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, ularni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shartligi belgilangan.

Demak, xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil qiladi va oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Xabar qiluvchi shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlarning oshkor bo'lishi kelgusida ularga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan tazyiq, ta'qib va zo'ravonlik holatlari sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Xususan, O'zbekistonda 2021–2023-yillar oralig'ida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan va rag'batlantirilgan shaxslar soni tahlil qilinganda, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish ko'rsatkichlari nisbatan past darajani tashkil qilayotganligi aniqlangan. Mazkur ko'rsatkichlarni quyidagi 2-rasmda ko'rish mumkin.



2-rasm. 2021–2023-yillar oralig'ida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan va rag'batlantirilgan shaxslar soni

Demak, mazkur statistika ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar beruvchi shaxslar soni ko'rsatkichlarining kamligini ularga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan tazyiq, ta'qib va zo'ravonlik holatlari sodir etilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar orqali izohlash mumkin. Shu sababli loyihada xabar bergan shaxslarga nisbatan tazyiq, ta'qib va zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida himoya chorasi qo'llanishi belgilangan. Xususan, loyihada xabar qiluvchi shaxslarga oid "tazyiq" (28-modda), "ta'qib" (25-modda), "zo'ravonlik" (25-modda), "tazyiq va zo'ravonlikdan hi-

moya qilish" (3-modda), "xabar beruvchining ish joyi" (15-modda), "xodim" (12-modda), "sobiq xodim" (12-modda), "shaxsiy manfaatlarini ko'zlab xabar berish" (23-modda) tushunchalari ishlatilgan. Biroq loyihaning biror-bir matni yoki moddasida "xabar beruvchining ish joyi", "tazyiq", "ta'qib", "zo'ravonlik", "tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish" kabi tushunchalarning izohi mavjud emas. Bu esa kelgusida har qanday shaxsga nisbatan "tazyiq", "ta'qib" va "zo'ravonlik" orqali shikoyat qilinganligini bildirishi va amaliyotda buning oldini olishda ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu tufayli loyihaning 3-moddasida belgilangan asosiy tushunchalarga “xabar qiluvchining ish joyi”, “xodim”, “sobiq xodim”, “shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab xabar berish”, “tazyiq”, “ta‘qib”, “zo‘ravonlik” hamda “tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” kabi asosiy tushunchalarni ishlab chiqish va kiritish maqsadga muvofiq.

Jumladan:

“xabar qiluvchining ish joyi” – o‘zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoxud fuqaroviy-huquqiy shartnomaga muvofiq, mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish uchun bo‘lishi yoki bori-shi lozim bo‘lgan, ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy (hudud);

“xodim” – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat yoki xizmat vazifalarini bajarish maqsadida mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

“sobiq xodim” – ish beruvchi bilan mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish maqsadida ilgari mehnatga oid munosabatlariga kirishgan va keyinchalik ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarini tugatgan shaxs;

“shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab xabar berish” – xabar qiluvchi shaxs tomonidan o‘z shaxsiy manfaatlari yoxud yaqin qarindoshi yoki o‘ziga aloqador bo‘lgan boshqa shaxslar manfaatini ko‘zlab, moddiy va nomoddiy qimmatliklar yoki boshqacha mulkiy yo‘sindagi foyda yoxud mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyatini (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) ko‘zlab xabar berishda ifodalangan xatti-harakat;

“tazyiq” – sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik);

“ta‘qib” – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsning xohish-irodasiga qarshi u bilan og‘zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan, Internet jahon axborot va ijtimoiy tarmog‘i orqali yoki boshqa usullarni qo‘llash yo‘li bilan muloqotga kirishish; uning ish (xizmat), o‘qish va (yoki) yashash (doimiy, vaqtinchalik) joyiga borib tazyiq o‘tkazishda ifodalangan hamda xabar qilgan shaxsda o‘z xavfsizligi uchun xavotir qo‘zg‘atadigan xatti-harakatlar;

“zo‘ravonlik” – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsga nisbatan jismoniy va ruhiy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali uning hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si, qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayri-huquqiy harakat (harakatsizlik);

“jismoniy zo‘ravonlik” – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xabar qilgan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

“ruhiy zo‘ravonlik” – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsni haqoratlash, unga tuhmat qilish, tahdid qilish, uning sha‘ni, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, uning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan, tazyiq va zo‘ravonlik haqida xabar bergan shaxsda o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik);

“tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i va mulki uchun paydo bo‘lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlar talab qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda, uning xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, xabar bergan shaxsga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va boshqa tusdagi kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlar qo‘llash tizimi.

Shuningdek, loyiha ustida o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, loyihaning 4-moddasida xabar beruvchini himoya qilishning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, xabarlarini jamiyat manfaatida ko‘rib chiqish, himoya qilishning asosiligi va adolatiligi, xolislik, xabar beruvchi haqidagi ma‘lumotlarning sir saqlanishi, xabar beruvchining sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, shaxsiy hayot, turar joy va mulki daxlsizligini ta‘minlash belgilangan.

Fikrimizcha, xabar qilgan shaxsni himoya qilishning asosiy prinsiplari sifatida “xabar qiluvchining xohish-istaklarini hisobga olish”, “fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish”ni kiritish lozim. Sababi ushbu loyiha moddalarida xabar qiluvchilarga nisbatan himoya qilish choralarini qo‘llash va ularni rag‘batlantirishda ularning xohish-istaklari hisobga olinishi belgilangan. Jumladan, ushbu loyihaning 5-moddasida xabar beruvchi rag‘batlantirishdan voz kechish; 13-moddasida xabar beruvchi himoya vositalarini himoya qilishni ta‘minlovchi organlar bilan kelishgan holda shaxsiy tashabbusi bilan tanlashi yoki o‘zgartirishi; 32-moddasida voyaga yetgan xabar beruvchi o‘z roziligi bilan, voyaga yetmaganlar esa qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organi roziligi bilan ularning xavfsizligi ta‘minlanadigan joylarga bepul vaqtincha joylashtirilishi; 33-moddasida xabar beruvchining roziligi bilan yoki uning arizasiga ko‘ra, boshqa vaqtinchalik yoxud doimiy yashash joyiga ko‘chirilishi, vaqtinchalik yoki doimiy ishga (xizmatga) yoxud boshqa o‘qish joyiga o‘tkazilishi; 34-moddasida esa xabar

beruvchining arizasiga ko‘ra yoki uning roziligi bilan uning ismi, otasining ismi va boshqa ma‘lumotlari o‘zgartirilgan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar berilishiga haqli ekanligi belgilangan. Shu sababli ushbu normalarni amalga oshirishda xabar beruvchilarni himoya qilishning asosiy prinsiplari sifatida ularning xohish-istaklarini hisobga olish prinsipini belgilash lozim. Shuningdek, xabar beruvchilarni himoya qilishda vakolatli davlat organlari tomonidan boshqa fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish tamoyilini ham kiritish muhim.

Bundan tashqari, ushbu loyihaning 8-bobida xabar berish orqali xabar beruvchini rag‘batlantirishning umumiy asoslari belgilangan bo‘lib, ammo rag‘batlantirishning asosiy prinsiplari mazkur loyihada o‘z aksini topmagan. Shu bois loyihaning 4-moddasini “Xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish va rag‘batlantirishning asosiy prinsiplari” deb nomlab, rag‘batlantirishning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, xolislik, xabar qiluvchining shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash, rag‘batlantirishning asosiligi va adolatiligi hamda xabar qiluvchi shaxsning xohish-istaklarini hisobga olishni belgilash lozim.

Xulosalar

Yuqorida olib borilgan tahlillarga ko‘ra, quyidagi takliflar ilgari surildi:

– birinchidan, loyihaning nomini “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida” deb nomlash va loyiha moddalarida qayd etilgan “xabar bergan shaxslar”, “xabar beruvchi shaxslar” so‘zlarini “xabar qiluvchi shaxslar” atamasiga o‘zgartirish;

– ikkinchidan, xabar qiluvchi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berishda g‘arazgo‘ylik yoki shaxsiy adovatga yo‘l qo‘ymasligi lozim va xabar berish ko‘ngilli ravishda beg‘araz tarzda bo‘lishi shart. Biroq loyihada bu tushunchalarga ta‘rif berilmagan. Shu sababli asosiy tushunchalar sifatida “g‘arazgo‘ylik yoki past niyatlar” va “shaxsiy adovat” kabi tushunchalarning izohi mav-

jud emas. Bu esa kelgusida har qanday shaxs unga nisbatan “g‘arazgo‘ylik yoki past niyatlar” yoinki “shaxsiy adovat” orqali shikoyat qilinganligini bildirishi, amaliyotda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga buning oldini olish va qarshi kurashishda ma‘lum bir qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli loyiha 3-moddasida qayd etilgan qonunning asosiy tushunchalariga “g‘arazgo‘ylik yoki past niyat” va “shaxsiy adovat” tushunchalarini kiritish hamda ularning aniq ta‘rifini ishlab chiqish;

– uchinchi, loyihada qayd etilgan tushunchalarning huquqni qo‘llovchi subyekt-

lar tomonidan turli talqinda qo‘llanishining oldini olish maqsadida “xabar qiluvchining ish joyi”, “xodim”, “sobiq xodim”, “shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab xabar berish”, “tazyiq”, “ta‘qib”, “zo‘ravonlik” va “tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” kabi tushunchalarga aniq ta‘rif ishlab chiqish;

– to‘rtinchi, loyihada xabar qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirishning asos va tartiblari belgilangan bo‘lsa-da, biroq loyihada rag‘batlantirishning asosiy tamoyillari mavjud emas. Shu tufayli loyihada xabar qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirishning asosiy prinsiplarini belgilash lozim.

REFERENCES

1. United Nations Convention against Corruption. New York, a collection of international agreements of the Republic of Uzbekistan, 2008, no. 3, p. 4.
2. Declaration on Strengthening good governance and combating corruption, money-laundering the financing of terrorism. Declaration of Dublin. Organization for Security and Co-operation in Europe. *Ministerial Council. Second day of the Nineteenth Meeting MC(19) Journal*, 2012, no. 2, A. i. 7.
3. The speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the awarding ceremony of the high international award for the fight against corruption. *People’s Word newspaper*, 2023, no. 271/8614, p. 1.
4. Address of the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan to the people of our country]. *People’s Word newspaper*, 2024, no. 11/8634, p. 1.
5. UNODC research on bribery in the Western Balkans. Available at: <http://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/statistics/corruption.html>
6. Reports without borders. Get informed. Index Uzbekistan in 2024. Available at: <https://rsf.org/en/country/uzbekistan>
7. Zakirova U. Jinoyat motivi maqsadining jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati [The importance of the purpose of the criminal motive in the qualification of the crime]. *Review of Law Sciences*, 2018, vol. 2, pp. 117–121.
8. Tyutyunnik I.G. Osobennosti korystnogo motiva v prestupleniyakh protiv svobody lichnosti [Features of the mercenary motive in crimes against personal freedom]. *Russian Investigator*, 2014, no. 11.
9. Turyshv A.A. Korystnyy motiv prestupleniya [Selfish motive for crime]. *Scientific Bulletin of the Omsk Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2020, no. 4/79. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/korystnyy-motiv-prestupleniya>
10. Teplova D.O. Korystnyye tseli i motiv kak priznaki khishcheniya [Selfish purpose and motive as signs of theft]. *Russian Investigator*, 2013, no. 13, pp. 23–25.
11. Criminal Code of the Russian Federation. 1996. Available at: <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody&nd=102041891>
12. Criminal Code of the Republic of Belarus. 1999. Available at: https://zakony-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb/4.htm

13. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 243.
14. Nikulina S.I. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii s postateynymi materialami i sudebnoy praktikoy [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation with article-by-article materials and judicial practice]. Moscow, 2002.
15. Chuchayeva A.I. Postateynny kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Article-by-article commentary to the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, 2004, p. 348.
16. Radchenko V.I. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, 2000, p. 301.
17. Vshivtsev S. Literaturnyy dnevnik [Literary diary]. 2012. Available at: <https://proza.ru/diary/lovec/2012-02-20>
18. Ushakova N. Tolkovyy slovar' russkovo yazika [Explanatory dictionary of the Russian language]. Moscow, AST Publ, 2004.
19. Sevostyanov R.A. Lichnaya nepriyazn' kak motiv soversheniya prestupleniya [Personal hostility as a motive for committing a crime]. *Issues of Russian and International Law*, 2018, vol. 8 (9A), pp. 221–227.